

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI**



KAFEDRA: XALQ TABOBATI VA KASB KASALLIKLARI

ALLERGOLOGIYA FANI

o‘quv-uslubiy majmuasi

stomatologiya fakulteti

3–kurs talabalari uchun



Bilim sohasi: 500 000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi: 510 000 – Sog‘liqni saqlas
Ta‘lim yo‘nalishlari: 5510400 – Stomatologiya

Buxoro 2019

“Tasdiqlayman”
O’quv va tarbiyaviy ishlari prorektori
t.f.n.,dots. _____ Jarilkasinova G.J.

“Kelishilgan”
O’quv ,o’limi boshlig’i
_____ Qo'chqorov U.I.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

Xalq tabobati va kasb kasalliklari kafedrası

Klinik allergologiya fani bo’yicha
O’quv- uslubiy majmua
Stomatologiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

Bilim sohasi:	500 000 –	Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	510 000 –	Sog’liqni saqlas
Ta’lim yo’nalishlari:	5510400 –	Stomatologiya

Buxoro 2019

Tuzuvchi:

Nurboyev F.E

Xalq tabobati, sport tibbiyoti, kasb
kasalliklari dotsenti t.f.d.

Taqrizchilar :

Babadjanova Z.X.

Ichki kasalliklar propedevtikasi va oliy hamshiralik ishi
kafedrasi mudiri t.f.n.

Nosirova M.SH.

“Gospital va fakul’tet terapiyasi” kafedrasi
dotsenti

Abu ali ibn sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining o‘quv-metodik kengashining
2019 ___ yil “__” iyun -son majlisida muxokama etildi.

O'quv –uslubiy majmua mundarijasi

1.O'quv mteriallari	
1.1.Nazariy mashg'ulot materiallari_____	5-41 bet
1.2. Amaliy mashg'ulot materiallari_____	41-87 bet
1.3. Mustaqil ish mavzulari_____	88 bet
2. Glossariy _____	88-89 bet
3. Ilovalar	
3.1. Fan dasturi _____	89-98 bet
3.2. Ishchi o'quv dasturi _____	98-107 bet
3.3. Tarqatma materiallar_____	90- 121 bet
3.4. Testlar_____	122-151 bet
3.5.Baholash_____	151-157 bet
3.6. Foydalanilgan adabiyotlar_____	157 bet

Annotasiya

Ushbu o'quv uslubiy majmua allergologiya fanining asosiy bo'limlarini o'z ichiga oladi va talabalarga allergik kasalliklarning turli sharoitda kelib chiqishi, ularni tashxislash, birinchi yordam ko'rsatish va davolash, bemorlarni parvarishlash va profilaktika ishlarini olib borishni, ushbu kasalliklarining davolash va ularni oldini olishni qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarur bilimlarni egallash imkonini beradi. Allergologiya fani respublikadagi sog'liqni saqlash tizimida o'tkazilayotgan islohatlar kesimida muhim ahamiyatiga ega. Ushbu kasalliklarni oldini olishda sog'likni saqlash birlamchi bo'g'iniga alohida e'tibor berilishi va umumiy amaliyot tizimini rivojlanirish nuqtai nazaridan bu fanning ahamiyati oshib bormoqda.

1.O'quv mteriallari
1.1.Nazariy mashg'ulot materiallari

1-mavzu Allergologiya fani va uning vazifalari. O'tkir va surunkali bronxitlar.

1.1.Ma'ruza mashgulotning texnologik modeli

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 18-24 gacha
Mashg'ulotning shakli	Ma'ruza axborot ma'ruza, slayd ma'ruza, multimedia ma'ruza shaklida
Mashgulotning rejasi	1.Kirish 2.Allergik kasalliklarning epidemiologiyasi 3.Allergik kasalliklarning turlari 4.Allergik sinamalarning turlari 5.O'tkir va surunkali bronxitlar 6.Xulosa
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Maqsadi yoritiladi. Ta'limiy: Allergologiyada tekshirish usullari, allergik kasalliklarni davolashda sinamalarning axamiyatini tushuntirish, o'tkir va surunkali bronxitlar haqida tushuncha berish Tarbiyaviy: 1. Talabalarga allergologik kasalliklarni tarkalishini tushuntirish 2. Allergik ksalliklarni turlarini talabalarga tushuntirib berish 3. Allergik sinamalarni turlari xakida ma'lumot berib texnikasini tushuntirish 4.Provokatsion testlar texnikasi moxiyatini tushuntirish 6.Eliminatsion testlar xakida ma'lumot berish
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proyektor, kompyuter, multimedialar
Mashgulot uslubi	Axborotli, suxbat, ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2 Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyatining mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar

2.Asosiy bosqich (45 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
3.YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi	Tinglaydi
4.Mustaqil ta'lim uchun topshiriklar (5 daqiqa)	1. Mustaqil ish beradi 2. Uyg'a vazifa beradi	Yozib oladi Yozib oladi
Jami:80minut-2soat		

Mavzu bayoni: ALLERGOLOGIYA FANI VA UNING VAZIFALARI. O'TKIR VA SURUNKALI BRONXITLAR.

Allergiya - hozirgi zamon tibbiyotining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Organizmga yot moddalar tushganidan so'ng uning o'zgargan reaktivligini belgilash uchun tibbiyotga 1906 yili Avstriyalik pediatr K. Pirke tomonidan «allergiya» termini ilk bor kiritilgan edi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha keng ko'lamda tibbiyotda mustaqqil fan sohasi bo'lib «allergologiya» deb nomlanadi. Tarixiy jihatdan allergologiyaning rivojlanishi o'zaro uzviy bog'liq ikki yo'nalish bo'yicha boradi. Birinchi - eksperimental allergologiya. Bu

yo'nalish laboratoriya hayvonlarida tajribalar o'tkazishga asoslangan. Ikkinchi - klinik allergologiya. Bu yo'nalish har xil allergik kasalliklar bilan hastalangan bemorlarni kuzatish va tekshirishlarga asoslangan. Hozirgi davrda allergologiya alohida tibbiyot fani sifatida keng tarqalib bormoqda. Allergologiya muammosiga qiziqishning ortishi qator sabablar bilan tushuntiriladi.

Bularga bolalar va katta yoshlilar o'rtasida allergik kasalliklarning ko'payishi, og'ir klinik kechishga ega bo'lishi, ularni o'lim bilan yakunlanishi, shuningdek, xalq orasida yashirin sensibilizatsiyalashgan «potensial allergik» shaxslar sonining ko'payishi va ularni qulay sharoit paydo bo'lganda allergiyaning ro'yi rost klinik shakllari bilan kasallanishi mumkinligi muhim ahamiyatga ega.

Har xil sohadagi shifokorlar allergologiya bilimidan xabardor bo'lishlari muhim va zarur, chunki organizmning hohlagan to'qimasi allergiya mexanizmi bo'yicha shikastlanishi mumkin. SHu tufayli allergik patologiya masalalari bilan pediatrlar, terapevtlar, otorinologlar, dermatovenerologlar, gastroenterologlar, kardiologlar, nevropatologlar va boshqa ham qiziqmoldalar.

SHunday qilib, allergologiya tibbiyotning turli sohalari namoyondalarini birlashtiruvchi vazifasini bajaradi, bu esa allergik kasalliklarini kamaytirish uchun kurashda davolash-profilaktika tadbir-choralarini takomillashtirishni va aholi sog'ligini mustahkamlashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Allergologiya ko'p qirrali fandır. Hozirgi zamon allergologiyasining eng asosiy masalalari quyidagilardan iborat: allergik kasalliklarni erta tashxislash va davolash chora tadbirlarini takomillashtirish, kasallikning klinik belgilarini maxsus tashxislash yordamida aniqlash, va profilaktika ishlarini yaxshilash shular jumlasidandır. O'zbekistonda allergologiya bo'yicha

ilmiy tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilmokda. ToshPMIning klink allergologiya kursisida regional allergologiyaning dolzarb muammolari o'rganilmokda. O'zbekistonda birinchi allergologik kabinet 1963 yili Samarkand shahrida tashkil etildi. Hozirgi vaqtda respublikada katta yoshli bemorlar va bemor bolalar uchun mo'ljallangan allergologik markazlar muvaffaqiyatli ishlab turibdi. Toshkent shahrida allergologik bemorlar uchun allergologiya markazlari, viloyatlarda ham allergologik markazlar, allergologiya kabinetlari xalq salomatligi yo'lida xizmat qilmoqda. Mana shunday allergologik muassasalarda allergologik patologiya bilan hastalangan bemorlarda ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika yordamlari ko'rsatilmokda. Toshkent VZITI negizida 20 turdagi chang, hashorat, maishiy allergenlar sanoat usulida tayyorlash yo'lga qo'yilgan. ToshPTI negizida O'zbekiston tibbiyot ta'limi tizimida 6-kurs talabalari uchun "allergologiya" kursi 1997 yildan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. 2007 yilda №1 Toshkent klinik shifoxonasida bolalar «allergologiya» bo'limi tashkil etildi. TashTMA negizida esa allergologiya markazi tashkil etildi. Allergik kasalliklar tobora ko'payib borayotganligi munosabati bilan Vatanimizda allergologik xizmat rivojlanib bormoqda. Allergik kasalliklarni anqinlash, davolash va ularning oldini olish maqsadida hal qilinishi lozim bo'lgan ko'p muammolarni echish uchun allergologik kabinetlar, kasalxonalar, kafedralar va ilmiy – tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilgan. Bu muassasalar tobora kengayib, rivojlanib bormoqda. Rossiya Fanlar Akademiyasining fahriy a'zosi akademik L.D. Ado Vatanimizda allergologik xizmatni tashkil qilishda asoschi va etakchi olim hisoblanadi. Uning 30dan ortiq shogirdlari: fan doktorlari vatanimizning turli shaxarlarida allergologik xizmatni rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. O'rta Osiyoda birinchi allergologik kabinet Samarqandda tashkil qilindi. Professor Xaqberdiev M.M allergologik kabinet hodimlari allergologik kasalliklar to'risida aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlari olib borganlar. Keyinchalik Andijon shaxrida allergologik kabinet ishga tushdi. 1972 yilda Toshkentda kattalar uchun respublika allergologik markazi tuzilib ishlay boshladi. Respublikamizda o'lka allergologiyasining rivojlanishi aholi sog'ligini muxofaza qilishda olg'a qarab qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi.

Allergologik markazga yuboriladigan bemor oldin allergologik konsultativ poliklinikaga murojat qilishi lozim. Allergolog bemor bolani xar tomonlama chuqur tekshirishni nazarda tutib, uning ota – onasi o'zlari bilan quyidagi xujjatlarga ega bo'lishlari tavsiya etiladi. 1. Davolovchi vrach peditrning maxsus yo'llanmasi. Yo'llanmada bemor bola kasalligining to'liq tashxisi va oldin o'tkazilgan davolar haqida qisqacha ma'lumot bo'lishi shart.

2. Umumiy qon va peshob taxlili.

3. Ko'krak qafasidagi organlarning (o'pka, yurak, bronx yo'llari) rentgenoskopiyasi haqida to'liq ma'lumot.

4. Axlatning umumiy va gijja yuzasidan tekshirilgan taxlili. Allergolog xar bir bemor bolani tekshirish uchun 1 soat vaqt sarf qiladi. Agar kasalni qabul qilish vaqtida birorta mutaxassis (endokrinolog, lor vrachi, genikolog, nevropatolog) maslahati kerak bo'lib qolsa u holda bemor bola allergolog tomonidan mutaxassisga yuboriladi. Allergologik konsultativ poliklinikada bemor bola ko'rib bo'lingandan so'ng shu joyning o'zida shubxa tug'ilgan allergenlardan aniqlash probasi (na'munasi) qo'yiladi. So'ng tegishli davolash usullari va maslaxat poliklinika sharoitida yoki allergologik bo'limlarda olib boriladi.

Allergiya nima? Allergiya tushunchasini fanga 1906-yilda avstraliyalik vrach-pediatr Fon-Pirke kiritgan. Bu so'z grek tilidan olingan bulib so'zning birikmasidan iboratdir, chunonchi, «allos»-boshka, «ergon»-javob berish degan manoni bildiradi. Bu iborani bir butun qilib olganda, ta'sirga boshqacha javob berish degan tushuncha kelib chiqadi. Xozirgi zamon tibbiyot ilmida

allergiya deb organizmning xar kandy yot moddalarga nisbatan sezuvchanligi oshib ketishi tushuniladi. Organizmga tushib, uning sezuvchanligini oshiradigan har qanday yot narsalarga allergenlar deyiladi. Sezuvchanligi oshib ketgan organizmga tushgan allergenlar bir gurux allergik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Turli dori moddalar, dori allergiyasi, bir gurux ovkatlar (sut tuxum, shokolod, baliq) va x.k. YUkori nafas va me'da ichak yullari allergik kasalliklarini yukumli kasalliklarning oldini olish maqsadida kilinadigan emlash vositalari zardob allergik kasalliklarini keltirib chiqaradi. Bolalar allergik kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi turli tug'mandir. SHuning uchun xam bolalarda uchraydigan allergik kasalliklarning kelib chiqish sabablarini, rivojlanishlarini va ularni bir biriga bo'lgan bog'liqlik munosabatlarini o'rganish lozim.

O'TKIR BRONXIT

O'tkir bronxit – aksariyat yuqumli tabiatli kelib chiqishga ega bo'lgan, 3 xaftagacha etib davom etadigan va yo'tal bilan (quruq yoki balg'am ajralishi bilan) ifodalaniadigan bronxlarning yallig'lanish kasalligidir.

KXT-10: J 20

Epidemiologiyasi. O'tkir bronxit epidemiologiyasi gripp va boshqa respiratorli virusli kasalliklarning epidemiologiyasi bilan bog'langan. Uning uchun kasallikning chastotasini dekabr oxiri va martning boshida ortishi xos bo'ladi. O'tkir bronxitning epdemiologiyasiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarda O'zbekiston va Rossiyada bajarilmagan.

Sabablariga bog'liq xolda virusli va bakterial o'tkir bronxit ajratiladi. Boshqa (nisbatan kam) etiologik variantlari (toksik, yuqumli) xam bo'lishi mumkin, ammo ular aloxida xolda juda kam kuzatilmaydi, boisi odatda o'tkir bronxitlar tizimli xastalanishni komponenti bo'lib namoyon bo'lishadi va ularni muvofiq kasalliklar doirasida kurilishadi.

O'tkir bronxitni etiologiyasi

CHaqiruvchilar	Aloxida belgilari
Gripp A virusi	Ulkan epidemiyalari xar uch yilda 1 marta sodir bo'ladi va ko'plab mamlakalarni qamrab oladi, klinik kuchli ifodalangan, grippni eng ko'p sababchisi, kasallikni og'ir kechishi va epidemiyalar paytida o'lim sura'tini yuqori bo'lishi kuzatiladi
V grippi virusi	Epidemiyalar 5 yilda 1 marta kelib chiqadilar pandemiyalar kam kelib chiqishadi, kechishi unchalik og'ir bo'lmaydi (A grippning virusi infeksiyasiga qiyosan olganda).
Paragripp (1-3 tiplari)	Izolyasiyalangan xolatlari, o'zaro epidemiologik bog'lanishlik kuzatilmaydi
Adenoviruslar	Izolyasiyalangan xolatlari, o'zaro epidemiologik bog'lanishlik kuzatilmaydi
Pnevmokokklar	O'rta yoki kekxa yoshdagi axolida kutilmaganda boshlanish va yuqori nafas yo'llarini zararlanishi belgilari ifodali bo'ladi
Mikoplazmalar	Odatda 30 yoshdan oshgan axolidagi kasallikni sababchisi bo'lishadi, ilk bosqichlarda quruq yo'tal va yuqori nafas yo'llarini zararlanishi belgilari kuzatiladi
Bordetella pertussis	Davomli yo'tal
Haemophilus influenzae	Kasallikni ko'pincha chekuvchilarda va surunkali bronxit bilan bemorlarda keltirib chiqaradi
Moraxella	Surunkali bronxit yoki immunodefitsit bilan bemorlarda aniqlaniladi

“O‘tkir bronxit” tashxisi quyidagilardan kelib chiqib tashxislanadi: 3 haftadan ziyod davom etmagan, o‘tkir kelib chiqqan yo‘tal bo‘lganda (balg‘am bo‘lishi – bo‘lmasligidan qat‘iy nazar), xalqumning burun qismi patologiyalarini bo‘lmasligida yoki boshqa – yo‘tal sababchisi bo‘lishi mumkin bo‘lganda – pnevmoniyalar va o‘pkalarning surunkali kasalliklari simptomlari bo‘lmagan chog‘da. Tashxis istisno tarzida yoki boshqa kasalliklarni istisno qilish yoo‘li bilan klinik manzarasiga asoslanib qo‘yiladi.

Katta yoshdagi bemorlarda nisbatan ko‘p uchraydigan klinik belgilari bo‘lib yo‘tal (92% xollarda) balg‘am ajralishi bilan (62% xollarda) bo‘lishadi.

Nafas a‘zolari bilan bog‘liq kelib chiquvchi davomli yo‘talning mumkin bo‘lgan sabablari: bronxial astma; O‘SOQ; o‘pkaning surunkali yuqumli kasalliklari, ayniqsa sil; sinusit; postnazal oqava sindromi; gastroezofageal refluyks; sarkoidoz; biriktiruvchi to‘qima kasalliklari va ularni davolash bilan chaqirilgan yo‘tal, asbestoz; silikoz; “fermerlar o‘pkasi”; dori vositalarini salbiy ta’sirlari (APF ingibitorlari, β -adrenoblokatorlari, nitrofuranlar); o‘pka raki; plevrit.

Mabodo APF ingibitorlari bemor tomonidan qabul qilinayotgan bo‘lsa, aynan mazkur dori vositasi bilan yo‘talni chaqirilayotganligi extimoli yuqori bo‘ladi. Alternativasi bo‘lib boshqa APF ingibitorini tanlash yoki angiotenzin II retseptorlari antaganistlari o‘tish xisoblanadi, qaysilar-ki yo‘tal chaqirilmaliklari darkor. Bemorni yurak yurak etishmoviligini istisno qilish uchun tekshirish lozim. Engil darajadagi yurak etishmovchilgini birinchi belgisi – tungi paytda bo‘ladigan yo‘tal. Bunday xolatlarda avvalambor ko‘krak qafasi a‘zolarini rentgenografiyasi o‘kazilishi darkor.

Fibrozirlovchi alveolit – yo‘talni mumkin bo‘lgan sabablaridan biridir (goxida revmatoidli artrit yoki sklerodermiya bilan qo‘shilishib). Birinchi navbatda ko‘krak qafasi a‘zolarini rentgenografiyasi o‘tkazilishi kerak. Xos topilma – o‘pka fibrozi, ammo ilk bosqichlarda u rentgenologik ko‘rinmas bo‘lishi mumkin, vaxolang-ki, o‘pkaning diffuzlash xususiyati (alveolalarda kislorodalmashinuvini aks etdiruvchi) allaqachon pasaygan bo‘ladi. Bunday klinik vaziyatda dinamik spirometriya o‘tkazilsa – restriktivli o‘zgarishlar aniqlanishliklari mumkin.

Balg‘am ajralishlari bilan ifodalanuvchi davomli yo‘tal va istimada silni, o‘pka kasalliklari bilan bemorlarda bo‘lsa – atipik mikrobakteriyalar bilan keltirib chiqarilgan notipik o‘pka infeksiyasi rivojlanishi mumkinligi extimol qilish lozim. Aynan shunday ko‘rinishlar bilan vaskulit boshlanishi mumkin (masalan, periartoerit, Vegener granulematozi). Eozinofilli pnevmoniyalar xaqida xam o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi.

O‘tkir bronxitni solishtirma tashxisoti

Kasalliklar	Asosiy belgilari	SHarxlar
Pnevmoniyalar	O‘pkalarni zararlanishini maxalliy belgilarni aniqlanishi, krepitatsiya, egofoniya, ovoz titrashining kuchayishi	Tashxisiy standart – ko‘krak qafasi a‘zolari rentgenografiyasi ammo u 100% - li sezgirlikka ega bo‘lmaydi, ustuvorlik klinik mnzaralanishga beriladi
Ko‘k yo‘tal	Ilgari immunizatsiyalangan bemorlarda doimiy yo‘tal, klinik manzarasi noxos bo‘lishi mumkin	Tashxisiy standart – bakteriologik tekshiruvni yki PSR ijobiy natijasi

Surunkali sinusitlar	Nafas yo‘llariga shilliqni oqishi va yonbosh bo‘shliqlar xamda burun xoxalarida diskomfort bevizota qiladi	Tashxisiy standart – burun, yonbosh bo‘shliqlarni kompyuterli tomografiyasi
Bronxial astma	Simptomatikani xurujsimon va to‘lqinsimon bo‘lishi, β 2-adrenoblokatorlari agonistlaridan engil tortish ifodali	β 2-simptomomimetiklar bilan qo‘yilgan sinamada bronxial obstruksiyanı qaytuvchan bo‘lishligi
Gastroezofageal reflyuks	Yo‘tal ko‘p ovqat iste‘mol qilingandan so‘ng, yotish xolatida kelib chiqadi va tana vaziyati o‘zgarishida taskin topadi	FEGDS o‘tkazish, qizilo‘ngachning RNni sutkalik monitoringlash tavsiya qilinadi

Davolash

Davolash yo‘talning og‘irligini engillashtirish, davomiyligini kamaytirish va mexnat qobilyatini tiklash maqsadi bilan o‘tkaziladi.

Nomedikamentozli davolash balg‘amning ajralishini engillatishga qaratiladi. Muqobil gidratatsiyani quvvatlab berishga zaruriyat doimo bo‘lishligi mijozga tushuntirilish lozim. Bemorga namli xavoning ijobatixaqida batafsil ma‘lumot beriladi (ayniqsa quruqshagan iqlimda va qishda), sababi gidratatsiyani pasayishi bronxial sekretning yopishqoqligini oshiradi va uni chiqarib tashlanishini qiyinlashtiradi. SHilliqning ko‘chishini engillashuvini yo‘talning og‘irligi va uning davomiyligi kamaytirish mumkin. Yo‘talni pasaytiruchi dori vositalari (DV) buyuriladi (dekstro metorfan yoki kodein tutuvchi preparatlar). Ular faqat tinkani qurituvchi yo‘tal bo‘lganda buyurilishdi. Bronxodilatadorlar sillani qurutuvchi yo‘talda va/yoki nafas yo‘llari obstruksiyalari isbotini topgan xollarda qo‘llaniladi. Nomedikamentozli usullar sillani qurituvchi yo‘talni, ayniqsa bronxial gippereaktivlik belgilari bo‘lganda (distansion xirrilashlar), ololmagan vaziyatlarda, salbutamol miqdorlovchi individual ingalyator shaklida buyuriladi. O‘tkir bronxit asoratlanmay kechsa, antibioterapiya tavsiya etilmaydi, chunki ko‘pchilik xollarda kasallik virusli etiologiyaga ega bo‘ladi. O‘tkir bronxit – antibiotiklarni su‘istemol qilishning eng ko‘p sabalaridan biri. Antibakterial DV bilan davolashga ko‘rsatma- faqat bronxlarning bakterial tabiatli xastalanganligini isbotlovchi aniq belgilarning bo‘ishi xisoblanadi (yiringli balg‘amni ajralishi va uning midorini ortishi, xansirashni paydo bo‘lishi yoki kuchayishi, intoksikatsiya alomatlarini shiddatlashuvi). Tanlov (ustuvor) prkparatlar – makrolidlar (azitromitsin, klaritromitsin, azimak) yoxud amoksitsillin, ampisid.

Standart empirik terapiyada xam kasallik tufayli bo‘layotgan yo‘tal davom etaverishi xolatida, yo‘talning (davomli bo‘lgan) boshqa sabablari taxmin qilinmog‘i darkor. Ko‘krak qafasi a‘zolari rentgenografiyasi normal bo‘lgan bemorlarning 85%-dan ortig‘ida o‘zoq davom etuvchi yo‘talni (3-xaftadan ziyod) sababchisi bo‘lib sinusitlar, bronxial astma va gastroezofageal reflyuks xisoblanadi. Pulmonolog maslaxati zarur: o‘pkaning surunkali kasalliklarining refoallashuvini mumkinligini tasdiqlab olish uchun yoki gastroentolog maslaxati olinadi – gastroezofageal reflyuksni istisno qilish borasida. SHuningdek otorinolaringolog maslaxatiga zaruriyat bo‘ladi: cho‘zilib ketayotgan yo‘talning sababchisi bo‘lib mumkin bo‘lgan LOR – a‘zolari patologiyalarini istisno qilish uchun. Taxminiy vaqtincha mexnat qobilyatini yo‘qotish muddati

7-9 sutkani tashkil etadi. Odatda yoʻtal, oʻtkir asoratlanmagan bronxit bilan bogʻlangan boʻlsa, 4-8 hafta davomida batamom toʻxtaydi.

DAVOLASH MUASSASASIDAN TASHQARIDA KELIB CHIQQAN PNEVMONIYA

Davolash muassasidan tashqarida kelib chiqqan pnevmoniya (AP) – davolash muassasidan tashqari sharoitda kelib chiquvchi, quyi nafas yoʻllari infeksiyasi simptomlari (isitma, yoʻtal, balgʻamni ajralishi, yiringli boʻlishi xam mumkinligi, koʻkrak soxasidagi ogʻriqlar, xansirash) va oʻpkadagi yaqinda kelib chiqqan oʻchoqli – infiltrativ oʻzgarishlarning rentgenologik alomatlar bilan (muʻyan bir tashxisiy alternativlar boʻlmagan chogʻda) ifodalanuvchi oʻtkir kasallikdir.

Kasalxonaga tushgandan 48 soat va undan ortiq vaqt oʻtib chiqqan pnevmoniyani kasalxona ichki (nozokomial) pnevmoniya deb ataladi va u davolash muassasida rezistentli mikroflora boʻlishligi bois kelib chiqadi. YUqori oʻlim surʻati bilan xarakterlanadi.

10-XKK-J15.0. Klebsiella pneumonia bilan chaqirilgan pnevmoniya

J15.1. Pseudomonas (yashil tayoqchali tayoqcha) chaqirgan pnevmoniya

J15.2. Stafilakokk bilan chaqirilgan pnevmoniya

J15.3. V guruxiga mansub streptokokk bilan chaqirilgan pnevmoniya

J15.4. Boshqa streptokokklar bilan chaqirilgan pnevmoniya

J15.7. Mycoplasma pneumonia bilan chaqirilgan pnevmoniya

J15.8. Boshqa bakterial pnevmoniyalar

J15.9. Tabiati ochilmagan pnevmoniya

J16.0. Xlamidiyalar bilan chaqirilgan pnevmoniya

J17.1. Virusli kasalliklarda, boshqa rubrikada tasniflangan va x.k.da kelib chiqqan pnevmoniya.

Epidemiologiyasi

Pnevmoniya nisbatan koʻp tarqalgan oʻtkir yuqumli kasalliklar qatoriga kiritiladi.

AP bilan kasallanish yosh va oʻrta yashar axoli orasida 0.1 – 1.16% oʻrtasida, katta yosh guruxlarida boʻlsa (65 yosh va undan ortiq) – 2.5 – 4.4% orasida tebranish bilan ifodalanib aniqlanadi. YOsh va oʻrta yosh guruxiga mansub shaxslarda, qardosh kasalliklar boʻlmagan taqdirda, AP da oʻlim eng kam surʻatlar bilan (1-3%) sodir boʻladi. Katta yosh guruxiga mansub mijozlarda qardosh kasalliklar boʻlgan taqdirda (SOʻOK, yomon sifatli oʻsmalar, alkogolizm, qandli diabet, buyraklar va jigar kasalligi, yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa kasalliklar) xamda pnevmoniyani ogʻir kechishi xolatlarida ushbu koʻrsatkich 15-30% ga etadi.

Etiologiyasi

AP etiologiyasi normal mikroflora bilan, qaysilar-ki yuqori nafas yoʻllarida kolonizatsiyalanishgan boʻladi, bevosita bogʻlangan.

Koʻplab mikroorganizmlarda faqat ayrimlarigina quyi nafas yoʻllariga tushganlarida yalligʻlanishli reaksiyalarni keltirib chiqarish xususiyatiga ega boʻlishadi. Bunday APni tipik chaqiruvchilari boʻlib Streptococcus pneumonia (30-50% xollarda) va Haemophilus influenzae (to 10%) xisoblanadilar.

Davolash muassasidan tashqaridagi sharoitda kelib chiqadigan pnevmoniya yoki ambulator pnevmoniya etiologiyasida aloxida oʻringa atipik mikroorganizmlar ega boʻlishadi: ularning xissasiga 8-30% kasallik xolatlarini toʻgʻri keladi. Ular jumlasiga Chlamydia pneumoniae, Mycoplasma pneumoniae, Legionella pneumophila kiradilar.

Ambulator pnevmoniyaning kam (3-5%) chaqiruvchilari safiga Staphylococcus aureus, Klebsiella pneumonia, kamroq boshqa enterobakteriyalar kiritiladi.

Juda kam xollarda APni etiologik agenti sifatida *Pseudomonas aeruginosa* bo'lishi mumkin. (mukovissidoz, bronxoektazlar bilan bemorlarda).

Ayrim mikroorganizmlar bronxo'pka yallig'lanishini chaqirmaydilar va bularni balg'amdan ajratilib olinishi – ularning etiologik axamiyatidan emas, ko'proq yuqori nafas yo'llarining mikroflorasi bilan materialni kontaminatsiyalanishidan dalolat beradi. Ana shunday mikroorganizmlar jumlasiga quyidagilar kiritiladi: yashmtir streptokokklar guruxi, *Staphylococcus epidermidis* va boshqa koagulazamanfiy stafilokokklar, va yana *Enterococcus* spp., *Neisseria* spp., *Candida* spp. 5-20% xolatlarda pnevmoniyalarning kelib chiqishini etiologik faktori bo'lib viruslar, xususan, gripp virusi xisoblanadi.

Tashxisoti

Ambulator pnevmoniya tashxisi isitma, yo'tal, xansirash, balg'amni ajralishi va/yoki ko'krak qafasi og'riqlari bo'lganda extimollanishi kerak. Tashxisni verifikatsiyalash uchun quyidagilar o'tkazilishi kerak: o'pkalar rentgenografiyasi (infiltrativli, odatda o'pka to'qimasining bir tomonlama qorong'ilashuvi), umumiy qon analizi (leykotsitoz).

Bemorlarni isitma yo'tal, xansirash, balg'am ajralishi va/yoki ko'krak qafasi og'riqlari bilan qo'shilib bezovta qiladi. Mijozlar noaniq bexolikka, tez charchab qolishga, ishtaxaning pasayishiga shikoyat qilishadi. Mijozni fizikal tekshiruvda axamiyatli va xos alomatlar aniqlanadi: o'pkaning xastalangan xududi ustida perkutor tovushni bo'g'iqlashuvi (bo'g'iq bo'lishi), lokal eshituvchi bronxial nafas, jarangli maydapufakchali xirillashlar yoki nafas olish paytida krepatatsiyalar, bronxofoniya va ovoz titrashini kuchayishlari. Pnevmoniyaning ob'ektiv alomatlarini jadallik bilan ifodalanishlari o'pka to'qimasining xastalanish ko'lamlariga bog'liq bo'ladi. Qon umumiy analizi albatta o'tkazilishi kerak bo'lgan tekshiruv xisoblanadi: leykotsitozni 10-12 x 10g/l dan ziyod bo'lishi bakterial infeksiya bo'lishi extimoli yuqoriligiga ishora qiladi, agarda leykopiniya -3 x 10g/l dan past bo'lib yoki leykotsitoz 25x10 g/l dan yuqori bo'lib ifodalansa bu yomon oqibatdan bashora beruchi aloma bo'lib xisoblanadi. Nafas etishmovchiligi bilan mijozlarda ambulatoriya sharoitida qo'shimcha tekshiruv – puloksimetriyani (qonni kislorodga to'yinish darajasini aniqlash maqsadida) o'tkazish zarur. 88%dan kam kislorodli soturatsiya – nomaqbul oqibatni bashoratlovchi alomat va u bemorni jadal terapiya bo'limiga yotqizilishiga zaruriyat borligini ko'rsatadi. Ambulatoriya amaliyotida pnevmoniyani rutinli mikrobiologik tashxisoti etarlicha ma'lumotchan emas va antibakterial DV ni tanloviga sezilarli ta'sir eta olmaydi. O'pkaning rengenologik tekshiruvi – pnevmoniyalar bilan bemorlarda majburiy instrumental tekshiruv usulidir. Pnevmoniyaning rengenologik ko'rinishlari – infiltrativli, odatda bir tomonlama bo'lib, o'pka to'qimasining qorong'ilashuvi va ushbu soylanish qorong'ilashuvni o'choqli qo'shiouchan esgmentli (polisegmentli), bo'lakli (odatda gomogenli) yoki tatal bo'lishi bilan ifodalanadi. Rentgenologik tekshiruvni ikkita – orqa oldi va yonboshli proeksiyada o'tkazish kerak. Tekshiruvni bajarish davomida infialtratsiyalarning tarqalish ko'lamini, plevral suyuqlikni ortiqcha yoki meyorda borligi yoxud yo'qligi distruksiya bo'shlig'i, yurak etishmovchiligi belgilari baxolanishi kerak.

Ambulator pnevmoniya tashxisi shubxasiz (ochiq) deb bemorda rengenologik tasdiqlangan o'pka to'qimasining infiltratsiyasini borligida va xech bo'lmaganda ikkita quyidagi klinik alomatlar topilganda qo'yiladi: kasallikning tana xaroratini 38S dan oshib o'tkir boshlanishi, yo'tal, balg'am bilan (kichiq miqdorli ajralishi bilan bo'lishi mumkin), fizikal tekshiruvda aniqlangan pnevmoniyani belgilari (krepatatsiyalar va yoki kichiq pufakchali xirillashlar, dag'al va yoki bronxial nafas, perkutor tovushni bo'g'iqlashuvi); leykotsitoz (10x10 g/l dan ziyod) va yoki tayoqcha yaderli siljuv (10%dan ziyod). O'pkadagi o'choqli infiltratsiyani rentgenologik tasdig'i

bo'lmaganda yoki uning iloji yo'qligida (rentgenografiya yoki yirik kadrli flyuroografiya) pnevmoniyani tashxisi noaniq (shonchli aniqlanmagan). Agarda istimalash, yo'talga, xansirashga, balg'amni ajralishi va yoki ko'krak qafasi oraliqlari bilan bemorni tekshirish paytida ko'krak qafasi a'zolarini rengenologik tekshirish iloji yo'q bo'lsa va mos lokal simptomatika topilmasa (o'pkaning xastalangan xududi ustida perkutor tovushni bo'g'iq bo'lishi yoki bo'g'iqdashishi, lokal eshitiluvchi bronxial nafas, nafas olishda jarangli kichiq pufakchali yoki krepitatsiyalar, bronxofoniya va ovoz titrashini kuchayishi), unda ambulator pnevmoniya tashxisi gumonli bo'ladi. Tipik pnevmoniyalardan tashqari atipik deb ataladigan pnevmoniyalar ajratiladi (to 30% gacha etib) ularni Mycoplasma pneumoniae, Legionella, Hlamidiophilla pneumonie chaqiradilar. Ularni tashxisoti qiyinchilik tug'diradi boisi: 1. Sekin astalik bilan boshlanishi 2. Ko'proq quruq yo'talli bo'lishi 3. O'pkadan tashqarigi alomatlarini ustuvor bo'lishi (bosh og'rig'i, mushak og'riqlari, angina, ko'ngil aynishi, qayd qilish va ich ketishi) 4. Fizikal tekshiruvda minimal darajada alomatlarini aniqlanishi 5. Rentgenogrammada minimal o'zgarishlarni aniqlanishi (masalan, o'pka chizgisi manzarasini kuchayishi). Mikoplazmali infeksiyalar uyushgan jamoalarda (maktablar, xarbiy qismlar) kelib chiqishi mumkin. Legionozli pnevmoniyalar 35% xolatlarda oshqozon – ichak simptomlari bilan kechadilar, 20% ga etib nevrologik alomatlar bilan ifodalanishadi va faqat 40% xollarda nafas yo'llari tomonidan simptomlar bilan namoyon bo'lishadi; 2-25 % ga etib etib og'ir kechish bilan xarakterlanadilar. SHifoxona sharoitida yuqorida ko'rsatib o'tilgan tekshiruvlardan tashqari balg'amlarni sitologik tekshiruvini bajarish va uni antibiotiklarga sezuvchanligini taxlil qilish, ko'rsatmalar bo'yicha – qonda JgA, JgM, JgG, JgM, JgG larni odamni immuntanqisligi virusi VICH-1/VICH-2 ga o'rganishni xamda plevra bo'shlig'i UZI-si va kompyuterli tomografiyani (KT) o'tkazish tavsiya etiladi.

Qiyosiy tashxisot

Ambulator pnevmoniyani quyidagi kasalliklar bilan tafovutlash lozim.

O'pka sili "nimtik, bilinar-bilinmas" bo'lib kasallikni va klinik simptomlarini boshlaangan xolatlarda, odatdagi antibakterial terapiyadan foyda bo'lmaganda (7-10 sutka davomida) va o'pkalardagi rentgenologik o'zgarishlar xususiyatlari bo'yicha (yuqori bo'laklarni xastalanishi, miliarli zararlanish va b.q.) extimol qilinadi. Mijozni sotsial status, sillli bemorlar bilan aloqada bo'lishi kabilarxisobga olinishi kerak. Balg'amni sil mikrobakteriyasiga ekish, diaskin-sinov, silni PSR-tashxisoti, o'pkalarni rentgenli tomografiyasi va KT, ftiziator maslaxati o'tkaziladi.

O'pka rakini istisno qilish maqsadi bilan, pnevmoniyani orqaga qaytish jarayoni juda sust bo'lgan chog'da, chekuvchi bo'lgan 40 yoshdan o'tgan shaxslarning archasida va yana onkologik jarayoni rivoji xavfi bo'lgan boshqa guruxlardagi mijozlarga bronxoskopiya biopsiya bilan, zaruriyat bo'lganda KT bajarilishi kerak.

TELA ayoqlar chuqur venalari tromoflebiti bilan xastalangan bemorlarda istisno qilinishi darkor. TELA uchun ko'krakda o'tkir og'riqni, xansirashni, gipotoniyaning, ba'zan obmorokni, yuz terisini oqarinqirashi yoki sianozini, yurakning o'ng bo'limi zo'riqishini EKG-belgilarini (Gis tutami o'ng ayoqchasi qamali, R-pulmonale, sindrom SIQIII) kelib chiqishlari xos bo'ladi.

Dimlanishli yurak etishmovchiligidan qiyosiy tafovutlash uchun EKG, ExoKG, kardiolog maslaxati o'tkazilishi kerak. Kuchli ifodalangan yurak etishmovchiligida bo'ladigan xansirash yotish vaziyatida kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Ekssudativ plevrit uchun o'pka perkussiyasida aniqlanadigan bo'g'iq tovush, UZI da suyuqlikni aniqlanishi va rentgenogrammada qorong'ilashuv xos bo'ladi.

Pnevmoniyani qiyosiy tashxisoti yana o'pkaning eozinofilli infiltrati, idiopatik o'pka fibrozi, dorili pnevmopatiya, volchankali pnevmonit va Vegener granulematozi kailar bilan xam o'tkaziladi.

Davolash

Ambulator pnevmoniyada davolash chaqiruvchilarni eradikatsiyasiga, kasallik simptomlarini bartaraflashga, laborator ko'rsatkichlar va funksional buzilishlarni me'yorlashtirishga, o'pka to'qimasida infiltrativ o'zgarishlarni bitirishga va kasallik asoratlarini profilaktik qilishga qaratiladi. quyidagi ko'rsatmalar bilan bemorlar shifoxonaga yoqizilishadi:

O'pka to'qimasida pnevmonik infiltratsiyasini bo'lishadi va, xech bo'lmaganda, 2ta quyidagi klinik belgilar kuzatilganda:

- Kasallikni tana xaroratini 38S dan bilan bo'lishi xam mumkin;
- Yo'tal balg'am ajralishi bilan, kam ajralishi bilan bo'lishi xam mumkin;
- Nafas chastotasi ≥ 20 daqiqasiga;

Krepitatsiyalar va/yoki kichiqpufakchali xirillashlar, dag'al yoki bronxial nafas, perkutor tovushni bo'g'iqdashishi;

- leykotsitoz (10.10 9/l dan ortiq) va/yoki tayoqcha deyarli siljuv (10%dan ortiq bo'lib);
- 3 sutkadan ortiq vaqt mobaynida antibakterial terapiyani samara bermasligi.

SHifoxonada davolash masalasi quyidagi vaziyatlarda ko'tarilishi kerak. Mijozning kasalliklar bo'lganda (surunkali bronxit yoki SO'OK, bronxektazlar, yomonsifatli o'smalar, qandli diabet, surunkali buyrak etishmovchiligi (SBE), surunkali yurak etishmovchiligi, surunkali alkogolizm, narkomaniya, tana vaznini kuchli defitsiti, serebrovaskulyar kasalliklar). Bemorda pnevmoniyaning og'ir kechishi alomatlari bo'lgan taqdirda (nafas chastotasi soni ≥ 30 ta daqiqasiga; sistolik AB 90 mm sim.ust.dan past, ikkitomonlama yoki ko'p bo'lakli pnevmonik infiltratsiya, o'pkalarda o'choqli – infiltrativ o'zgarishlarni tezkorlik bilan avjlanib borish, septik shok yoki vazopressorlarni 4 soat va undan ortiq muddat davomida qo'llashga zaruriyatni bo'lishi, o'tkir buyrak etishmovchiligi), tez tibbiy yordam vositasi yordami bilan intensiv bo'lim/palataga bemorni shoshilinch tarzda yotqazish talab etiladi yoki unga ko'rsatma bo'ladi.

Antibakterial terapiya – bakterial pnevmoniyani yagona ilmiy – asoslangan davolash usuli bo'lib xisoblanadi. Antibiotiklar virusli pnevmoniyani davolash uchun samarasiz bo'lishadi. Metitsillin – bardoshchan tillasimon stafilakokk (MRSA) bilan yoki polirexzistentli shtamplar bilan chaqirilgan pnevmoniyalar, akteriyalarni ta'siriga bakteriyalarni chidamliligi bois, jiddiy muammo tug'dirishadi

APning farmakoterapiyasida bakterial pnevmoniyaning ko'pincha uchraydigan chaqiruvchilari – S. Pneumoniae, S.aureus, Enterobacteriaceal kabilarga ta'sir qiluvchi preparatlarga ustuvorlik berilishi kerak (beta- chaqiruvchilar aniqlanganda makrolidlar yoki respiratorli ftorxinolollar foydalaniladi.

Og'ir bo'lmagan ambulator pnevmoniyada, 60 yoshgacha bo'lgan mijoz bo'lsa, amoksitsillin yoki makrolidlar (azitromitsin, klaritromitsin, azimak) qo'llaniladi.

Og'ir bo'lmagan, 60 yoshdan oshgan mijozlardagi pnevmoniyalarda va qardosh kasalliklar bo'lgan chog'da, rezistentli mikrofloralarda nisbatan samarasi kuchli bo'lgan ximoyalangan antibiotiklarga urg'u beriladi (amoksitsillin/klavulanat va amoksitsillin/sulbaktam, ampidid).

SHifoxonaga tushgan bemorlarda ko'pincha benzilpenitsillin, amoksitsillin, ampidid, sefalosparinlar (sefuroksatsin, sefotaksim, seftriakson) muskul ichiga yoki vena ichiga buyurilib foydalaniladilar, ularni ichish uchun qo'llaniladigan makrolidlar bilan bir vaqtda qo'llash mumkin. Oxirgi paytlarda ekoantibiotiklarni (ekolevid, ekotsittrin, ekofos va b.q.) tobora ko'p

qo'llanishga tavsiya etilayotganligini xam ta'kidlab qo'yamiz yoki bu xam o'ylaymizki, antibiotikoterapiyaning yangi bosqichini – davrini boshlanishi va istiqbolidir. Alternativ preparatlar bo'lib respirator florxinolollarni (levoflaksatsin, moksifloksatsin) vena ichiga berib qo'llash xisoblanadi.

Antibakterial terapiyaning samaraliligini ilk baxolash davolashni boshlangandan keyin 48-72 soat o'tib amalga oshiriladi. Ushbu muddatda samaradorliklarini ko'rsatuvchi mezonlar bo'lib quyidagilar xisoblanadilar: tana xaroratini 37,5 S dan pastga tushishi; intoksikatsiyani yo'qligi; nafas etishmovchiligining yo'qligi (nafas olish chasotasini – CHDDni 20 tadan daqiqasiga kam bo'lishi); yiringli balg'amni yo'qligi.

Davolashni olib borish davomiyligi 7-10 sutkani tashkil qiladi. Kasallikning mikoplazmali yoki xlamidiyli etiologiyasini tasdiqlovchi klinik va epidemiologik ma'lumotlar bo'lganda terapiyaning davomiyligi muddati 14 kun bo'lishi kerak. Agarda mijozda yuqori isitma saqlanib davolanishga jo'natiladi. Standartdagi antibakterial terapiyaga mobodo allergik yoki noxush reaksiyalar kuzatulguday bo'linsa, birinchi bosqichda buyurilgan preparatni berish to'xtatiladi va zaxira preparati buyuriladi.

Katta miqdor suyuqliklarni ichrishdan yoki ularni vena ichiga kiritishdan, suvsizlanishni oldini olish uchun, foydalaniladi.

Nafasni engillatish uchun va xansirashni kamaytirish uchun mukolitiklar qo'llaniladilar (karbotsistein, ambroksol, atsetilsistein). Ularni ingalyatorlar yordamida xam berish mumkin. Burun kateterlari orqali kislorodni ingalyasiyasi o'tkaziladi. Isitma tushiruvchi preparatlar isitmalashni engillatish uchun (39 S dan yuqori bo'lganda) qo'llaniladilar yoki badan og'rig'ida buyuriladi.

Isitma bartaraflangandan so'ng fizioterapevtik davolash usullari qo'llaniladilar: ingalyasion terapiya (bioparoks, atsetilsistein), induktoterapiya, SVCH-terapiya – ditsimetrli diapazonda, magnitoterapiya va b.q.

Reanimatsiya bo'limida og'ir xansirash bilan bemorlarni IVLga o'tkaziladi, ularga bronxoskopiyada nafas yo'llarini sanatsiyasi o'tkaziladi.

Og'ir bo'lmagan davolash muassasidan ashqarida kelib chiqqan pnevmoniyada vaqtincha mexnatga layoqatini yo'qotish muddati 15 sutkani tashkil etadi.

2-ma'ruza : Bronxial astma

1.1.Ma'ruza mashg'ulotning texnologik modeli

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 18-24 gacha
Mashg'ulotning shakli	Ma'ruza axborot ma'ruza, slayd ma'ruza, multimedia ma'ruza shaklida
Mashg'ulotning rejasi	1. Kirish. 2. Bronxial astma etiologiyasi 3. Bronxial astma tasnifi 4. Bronxial astma klinikasi va davolash tkatikasi. 5. Bronxial astma statusida birinchi yordam. 6. Xulosa
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Maqsadi yoritiladi. Ta'limiy: Bronxial astma kasalligi haqida ma'lumot berish Tarbiyaviy:

	Bronxial astma etiologiyasi, tasnifi, klinikasi va davolash taktikasi. Bronxial astma statusida birinchi yordam haqida ma'lumot Rivojlantiruvchi: Bronxial astma etiopatogenezi, klinikasi, turlari. Astmatik statusning davolash taktikasi xakida ma'lumot berish
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proyektor, kompyuter, multimedialar
Mashg'ulot uslubi	Axborotli, suxbat, ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2 Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyatining mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2.Asosiy bosqich (45 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
3.YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi	Tinglaydi
4.Mustaqil ta'lim uchun topshiriklar (5 daqiqa)	1. Mustaqil ish beradi 2. Uyga vazifa beradi	Yozib oladi Yozib oladi
Jami:80minut-2soat		

Mavzu bayoni: BRONXIAL ASTMA

Bronxial astma- nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishi va buning natijasida xurujli yo'talish takrorlanib turib, xirillashlar paydo buladi, ko'krakda qisilish hissi paydo bo'ladi va nafas olish, va ayniqsa, nafas chiqarish qiyinlashadi. YAllig'lanish natijasida respirator traktning allergenlar, kimyoviy ta'sirotlar, tamaki tutuni, covyq xavora yoki jismoniy zo'riqishlarga ta'sirchanligi keskin oshadi. Ular ta'sir qilganda nafas yo'llari shishib, spazm yuzaga keladi, ko'p miqdorda shilliq ishlab chiqilib, nafas yo'llarining tashqi ta'sirlarga giperreaktivligi ortadi. Natijada yuzaga

keladigan bronxial obstruksiya spontan holda yoki dorilar yordamida o'tishi mumkin, lekin ba'zi hollarda to'lik ketmasligi ham mumkin.

Etiologiya

Ma'lumki, kishilar, va ayniqsa bolalar allergik anamnezida moyillik bo'lsa va ular tamaki tutuni va turmushdagi allergenlar (uy kanasi, mushuk juni va h.k.), ovqatlarga, dori-darmonga, ish joylaridagi kimyoviy ta'sirlar, ekologik muhit ta'siriga yuqori beriluvchan bo'ladi va ularda astma yuzaga kelishi xavfi bo'ladi. Bronxial astmani rivojlanishiga oli6 keluvchi sabablarga tez-tez O'RVI, bronxit olib keladi.

Patogenez

Nafas yo'llaridagi yallig'lanish bronxial obstruksiyaning 4 xil yo'l bilan keltirib chiqaradi: 1) o'tkir bronxokonstriksiya - sillik mushak spazmi natijasida 2) o'tkir osti bronxokonstriksiya — xavo yullari shilliq qavatining shishishi tufayli; 3) surunkali - yopishkok quyuc bronxial shilliqning bronxlar va ayniqsa terminal bronxlar obstruksiyasi tufayli va nixoyat, 4) sklerotik bronxokonstriksiya – bronx devorlarining sklerotik deformatsiyasi tufaylidir. Bronxial astma patofiziologiyasi qator xujayraviy mexanizmlardan iborat bo'lib, yallig'lanish xujayraviy elementlari makrofaglar, yumaloq-semiz xujayralar stimulyasiyasini o'z ichiga oladi. Yallig'lanish yuzaga kelishida o'pka struktura elementlaridan fibroblastlar, epitelial va endotelial xujayralari ishtirok etadi. Ular makrofag va semiz xujayralar va T-limfotsitlar bilan qator sitokinlarning ishlab chiqilishiga olib keladi va bronxlarda surunkali yallig'lanish yuzaga kelishi va rivojlanishida rol o'ynaydi.

Klinika

BAning asosiy klinik belgisi: nafas qisishi xuruji va uning ekvivalent belgilari (xurujsimon tungi yutal, to'sh ortida qisilish hissi).

Nafas qisishi xurujining rivojlanish 3 davrdan iborat:

1-davr — xuruj darakchilari davri: tomog'da qichishish va yo'tal, teri, ko'z, quloqning qichishi, ko'p siyish va boshqalar. SHu davrda xurujni qaytarish osonroq bo'ladi.

2-davr — ekspirator nafas qisilish xurujining avj olishi. Bemor bunda ko'krakda qisilish xis etadi, nafasni to'liq chiqara olmaydi. Nafas chiqarilishi masofada eshitiladigan — distansiyali xushtaksimon xirillashlar bilan kechadi. Bemor o'tirgan xolda ko'llariga tirilib, majburiy xolatda bo'ladi. YUzlari kerikib, diffuz ko'karish - sianoz kuzatiladi. Nafas olganda burun kataklari puflanadi. Nafasda xamma yordamchi mushaklar ishtirok etadi, umrov usti chukurchasi, qovirg'alar oralig'i nafas olinganda ichga tortiladi. Buyin venalari bo'rtadi. Vaqti-vaqti bilan kam balg'amli quruq, yutal kuzatiladi. Balg'am yopishkok, quyuc, ba'zida esa ko'pikli bo'ladi. Perkussiyada o'pka ustida timpanik tovush eshitilib, o'pkaning quyi chegaralari pastga siljiydi; auskultatsiyada — ko'p miqdorda quruq xushtaksimon, g'ijillovchi xirillashlar nafas chiqarish fazasida nisbatan ancha kuchliroq eshitiladi, nafas chiqarilishi olishga nisbatan ancha cho'zilgan bo'ladi. YUrak chegaralarini o'pkaning juda kengayganligi tufayli aniqlab bo'lmaydi. YUrak tonlari bo'g'iq bo'lib, o'pka arteriyasida II ton aksentli bo'ladi. Puls tezlashadi, tarangligi susaygan bo'ladi. Xuruj uzoq davom etganda yurakning o'ng qorinchasi etishmasligi alomatlari: jigarning kattalashuvi, oyoqlarda shish kuzatiladi. Balg'amda tipik o'zgarishlar — eozinofillar, kam xollarda SHarko-Leyden kristallari va Kurshman spirallari topilishi mumkin.

Rentgenologik tekshiruv o'pka to'qimasi yorug'lanishini orttanligini, diafragmaning sust xarakterini qayd etadi.

3-davr — xurujning pasayishi. Bemorda balg'amli yo'tal bo'lib, ko'p miqdorda balg'am chiqqanidan so'ng, bemorning ahvoli engillashadi. Xuruj regressiyasi turli bemorlarda turlicha

bo'lishi mumkin — ba'zilar tez o'tsa, boshqalarda xurujning o'tishi qiyin bo'lib, bemorni xoldan toydiradi. Ba'zi xollarda Bronxial astma bronxlardagi yallig'lanish bilan kechadigan surunkali bronxit fonida shakllanadi.

Atopik variant. Ko'prok yoshlarda uchraydi. Tipik belgisi bo'lib, astma xurujlarining allergiya faktorlari (chang, o'simlik changlari, ovqat, dorilar va x,k.) bilan bog'liqligi xisoblanadi. Allergening eliminatsiyasi yaqqol ijobiy samara beradi. Xuruj tezkor rivojlab, aniq klinikaga ega. Xuruj yo'tal va yopishqoq balg'am ko'chishi bilan tugallanadi.

Qonda va balg'amda eozinofillar ko'payadi, allergenlar bilan teri va provakatsiyalovchi sinamalar natijasi musbat bo'ladi. Xurujlar orasida kasallik belgilari kuzatilmaydi. Qonda gistamin miqdori ko'payadi.

Infeksiyaga bog'liq variant. Bizning regionda tez-tez uchraydi. Bakteriyalar va ularning parchalanish maxsulotlari semiz xujayralar, bazofillar, bronxlar epiteliysidan yallig'lanish mediatorlari ajralib chiqadi va bronxlarda infeksiyon yallig'lanishni yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida bronxlar obstruksiyasiga olib keladi. Kasallikning qo'zishi, odatda infeksiya o'chog'ida qo'zish bilan boshlanadi. Kasallik cho'zilib ketadi, xurujlarni engish kiyin bo'ladi. Asoratlar juda erta boshlanadi; astmatik xolat yuzaga keladi; bronxit alomatlari bilan birga kechadi. Qonda ko'proq yallig'lanish belgilari bo'ladi, balg'amda ko'p miqdorda leykotsitlar bo'ladi.

Autoimmun variant — og'ir va uzluksiz retsivli kechadi. Kasallik yoshlikdan boshlanadi. Bunda autolimfotsitlar bilan teri sinamasi musbat bo'ladi, qon zardobida fosfataza aniqlanadi.

Disgormonal variantning o'ziga xos belgisi glyukokortikoid terapiyaga bog'liq bo'lishidir. Gormonal dorilar miqdorining kamaytirilishi bemor axvolining ogirlashuviga sabab bo'ladi. Bemorlarda tuxumdon faoliyatining buzilishi kuzatilib, bu ayniqsa ayollarda klimaks davrida zo'rayadi.

Nerv-ruxiy varianti diagnostikasi bemor shaxsi ruxiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, bunda aksariyat xolda ruxiy travma, konflikt xolatlar, diensefal zona buzilishlari, seksual sferada buzilishlar aloxida o'rin tutadi.

Disadrenergik variant — bunda astmali bemorlarda β -2 retseptorlar blokadasi va β -1 retseptorlari sezuvchanligi keskin ortganligi qayd etiladi. Bronxlarning simpatomimetik bronx kengaytiruvchi dozalanagan ingalyatorlarga ta'sirchanligi kamayadi, adrenalina, efedringa teskari — paradoksal reaksiya kuzatiladi. Bu variant tug'ma biologik defektlar bo'lganda, yoki β -2 retseptorlar blokadasi simpatomimetiklarni xaddan ziyod ko'p ko'llanilishi tufayli xam bo'lishi mumkin. SHuningdek bu xolatga viruslar agressiyasi, gipoksimiya; atsidoz xam sabab bo'lishi mumkin. Qonda glyukoza miqdorining paradoksal kamayishi adrealin yuborilishidan keyin yuzaga kelishi bu variantni tasdiqlaydi.

Xolinergik variant — adashgan nerv — N. VAGUSning haddan ziyod yuqori faolligi tufayli yuzaga keladi. Bemorlarning asosiy shikoyati — tungi xurujlarga bo'ladi va u juda ko'p miqdorda so'lak ajralishi, burundan shiliq oqishi bilan xarakterlanadi. Bemorlarda qizil dermografizm kuzatiladi.

Jismoniy zo'rikish astmasi va aspirin astmasi — bu variantlar asosida bronxlar reaktivligining birlamchi o'zgarishi yotadi. Klinikada bu variant jismoniy zo'riqish, sovuk havodan, kuchli hidlar, tamaki tutuni tufayli sodir bo'ladi. Ekspirator hansirashli xurujlar atsetil kislotasi va shu rypyx ta'siriga yaqin dorilar (metindol, analgin, baralgin va boshqalar)ga nisbatan kuzatilib, u retsivlanuvchi polipoz rinosinusopatiya bilan kechadi.

Jismoniy zo'rikish astmasi jismoniy harakatdan so'ng 10- 15 minut (ba'zan 1 soat)dan keyin boshlanib, spontan o'tib ketishi mumkin, yoki β -adrenostimulyatorlar yaxshi yordam beradi.

Differensial diagnostika

Bronxial astmaning diagnostikasi kasallik simptomlari tahlili va yaxshilab yig'ilgan anamnez asosida qo'yiladi. Bronxial astmaga quyidagi simptomlar xos: epizodik hansirash, xushtaksimimon xirillashlar, tunda va erta tongda kuchayuvchi ko'krak qafasida qisilish va yo'tal. Bemor simptomlarning takrorlanib turishini va ularning allergenlar, jismoniy zo'riqish, uchoqli infeksiyaning qo'zishi, virus infeksiyasi, irritantlar qo'zg'ashini qayd etadi.

Bronxial astma kuyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashhis qilinadi:

1) Surunkali obstruktiv bronxit bulan — bunda hansirash va nafasning qiyinlashuvi xurujsimon emas, balki doimo bo'ladi, va yo'tal va jismoniy harakatdan keyin zo'rayadi. Balg'amning ko'chishi bemorga engillik tug'dirmaydi; bronxlar obstruksiyasi remissiya davrida ham qaytmas bo'ladi; eozinfiilya holati bo'lmaydi; allergenlar bilan teri sinamaları manfiy bo'ladi.

2) YUrak astmasilan differensiatsiya qilish mushkul vazifa, chunki bronxial astmali keksa kasallarda ko'p hollarda yurak xastaligi bo'ladi. YUrak astmasida xansirash aralash tipda-ekspirator va inspirator turda bo'ladi, bunda nafas qaynayotgan suv tovushini eslatuvchi xirillash bilan va ko'pikli pushti rang balg'amli bo'ladi. O'pka usti satxida har ikki tarafdan jarangsiz nam xirillashlar eshitaladi. YUrak chap qorinchasi etishmasligi shu holatga sabab bo'lgan yurak xastaligining qator boshqa simptomlari bilan kechadi.

3) Isterik astma – ko'pincha yosh ayollarda uchraydi va stressli holatlardan so'ng hansirash xuruji bo'lishi mumkin. Lekin bunda nafas chastotasi 40-50 martagacha bo'lib, yuzaki bo'ladi — u "kuchuk hansirash" ni eslatadi. Auskultatsiyada o'pkada o'zgarish bo'lmaydi.

Davolash

Bronxial astmaning negizli davosi asosini yallig'lanishga qarshi terapiya tashkil etib, unga quyidagilar kiradi:

Intal plyus (xromglikat natriy+salbutamol) – kombinirlangan dorivor preparat bo'lib, salbutamol - selektiv β -2 simpatolitik — bronxlarni kengaytiruvchi ta'sirga, intal esa bronxospazmni oldini oladi, semiz hujayralardan gistamin ajralishini to'xtatadi. Intal-plyus astma xuruji to'xtatish uchun yordam bermasada, sistematik davo uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Tayled — allergiya mediatorlari ajralishini tormozlaydi, u ko'proq astmani davolashda spetsifik xususiyatga ega. 2 oy mobaynida kuniga 2 ingalyasiyadan 2 mahal olinishi remissiyaga olib keladi.

Kortikosteroidlar Bronxial astmani davolashdagi eng effektiv dorilardir. Ular parenteral, peroral yoki aerezol shaklida qo'llaniladi.

Ingalyasion kortikosteroidlar effektiv va xavfsiz hisoblanadi. Kortikosteroidlarni sistemali qo'llash asosan boshqa usullar, jumladan ingalyasion kortikosteroidlar, samarasiz bo'ganda qo'llaniladi.

Ingalyasion kortikosteroidlarga Beklatiazon dipropionat (beklamed, bronxokort, bekotid), Beklokort, Ingokort (flunizolid) — prolangirlangan ta'sirga ega, Azmakort (triamsinolon atsetonid)lar kiradi.

Bronxodilatatorlar — bu gurux preparatlari bevosita astma xuruji uchun qo'llaniladi, ammo ular ko'proq simptomatik moyiyatga ega bo'lganligi uchun monoterapiya shaklida ishlatilishi maqsadga muvofiq emas. Bronx kengaytiruvchi dorilar xuruj davrida darhol engillik tug'diradi, aksariyat holda vaqtincha samaraga ega. SHuning uchun ularni faqat lozim bo'lgandagina ishlatish kerak. Bu preparatlar 3 rypyxra bo'linadi: 1) adrenergik retseptorlar

stimulyatorlari - simpatomimetiklar; 2) antixolinergik moddalar — xolinolitiklar; 3) metilksantinlar — miolitiklar.

1. Simpatomimetiklar — adrenergik retseptorlarga monand bo'lishi tufayli o'z navbatida 3 guruxga bo'linadi: a) a- va b-adrenoretseptorlarni qo'zg'atuvchilar; b) b-1 va b-2 retseptorlarni qo'zg'atuvchilar; v) selektiv b-2 adrenostimulyatorlar. b-2 adrenostimulyatorlarning salbiy ta'siri kam bo'lgani tufayli, Bronxial astmada ko'proq ishlatiladi.

Ingalyasion simpatomimetiklar — xuruj oldidan ishlatilsa, uni oldini oladi, lekin kasallikning umumiy kechishga ta'sir eta olmaydi. Ular b-2 retseptorlarni stimullab, bronxlarni kuchli kengayishiga olib keladi.

Preparatlar:

qiska ta'sirli b-2 agonistlar – salbutamol (ventolin); fenaterol (berotek); terbutalin (brikanil); *cho'ziq ta'sirli (prolongirlangan), b-2 agonistlar* - salmeterol (serevent, salmeter); fermoterol (farodil).

2. Antixolinergik dorilar - parasimpatolitik yoki xolinolitiklar - muskarin retseptorlarni qamal qiladi va adashgan nerv N.VAGUSni ta'sirlanishini kamaytirish hisobiga bronxlarni kengayishiga olib keladi. Ingalyasiyali turi simpatomimetiklarni bemorlarga qo'llash qiyin bo'lganda ishlaytiladi.

Preparatlar: atrovent - dozatorli aerosol, berodual, troventol.

3. Metilksantinlar — miolitiklar (teofillin preparatari) — bronxlar devoriga spazmolitik ta'sir ko'rsatuvchi, inotrop ta'sirli, nafas mushaklarini toliqishini kamaytiradi. Ko'pincha cho'ziq ta'sirli preparatlar qo'llaniladi.

Preparatlar: teofillin, eufillin, aminofillin retard, teospireks, teodur, teopek, eufillin retard.

Boshqa dorivor moddalar

Zaditin (ketotfen) — allergiya mediatorlarining sintezi va ekskretsiyasini tormozlaydi, nafas yullarida allergik yallig'lanish va giperreaktivlikni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Allergiyaga qarshi immunoglobulin, gistoglobulin. Bronxial astmani qo'zishini kamaytiradi, kasallikning kechishini engillashtiradi, klinik remissiyaga olib kelishi ham kuzatiladi.

Immnostimulyatorlar — interkurrent o'tkir respirator kasalliklarni oldini oladi, o'choqli infeksiyaning qo'zishini kamaytiradi.

Antibiotiklar — yiringli balg'am va leykotsitlarning soni balg'am va qonda ko'payganda va ya'ni bakterial infeksiya bo'lganda harorat ko'tarilganda qo'llaniladi.

Kasallikning remissiya davrida naturoterapiya (dorilarsiz davolash) qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Naturoterapiyaga eliminatsiyalovchi davo; mashqlar bilan davolash; fitoterapiya va kombinatsiyali davolar kiradi.

Eliminatsiyalovchi davoga: engillashtirilgan parxezli davo (ochlik bilan davolash), gemosorbsiya, plazmaferez, sitaferez, postural drenaj kiradi.

Mashqlar bilan davolashga - nafas gimnastikalarining barcha turlari, gipo- va giperbaroterapiya, akupuntura, Su-jok terapiya, spetsifik giposensibilizatsiya, psixoterapiya kiradi.

BRONXOSPASTIK SINDROM BRONXIAL ASTMA VA UNI DAVOLASH dolzarb yunalishlari:

1. Bronxospastik sindrom ta'rifi, patogenezi, klinikasi, solishtirma tashxisi, davolash va profilaktikasi uslublari.

2 Bronxial astma ta'rifi, tasnifi va dolzarb mavzulari.

3. Bronxial astma etiologiyasi, patogenezi va simptomatologiyasining zamonaviy yunalishlari.

4. Bronxial astma diagnostikasi - buguni va kelajagi.

5. Bronxial astma farmakoterapiyasi, davolash usullarini takomillashtirish muammolari.

6. Bronxial astmani dramatik terapiyasi.

Zamonaviy pulmonologiya yutuklaridan kelib chiqqan xolda bronxospastik sindrom (BS) deb nom olgan aloxida bir klinik tushuncha paydo buldi, tib axlining unga nisbatan kizikishi tobora ortmokda.

Bu muammoni xal kilishda A.A.Ado, B.E.Votgal va P.N.YUrenevlarning xizmatlari katta bulgan, xozirga kelib esa mazkur masalani echishga pulmonologiya-xirurglar xam faol kirishganlar.

SHuni ta'kidlash lozim-ki, ayrim eponim sindromlarga (xammena-Richa Kartagera va b.k.) uxshab bronxospastik sindrom tom ma'nosiga kura aloxida bir nozologik tushuncha xisoblanmaydi. U keng kulamli tushuncha bronxial utkazuvchanlik buzilishi (BUB) ning bir zarrasidir. BUB ning deganda esa-bronxlar va upka tukimasining shunday bir patologik xolati angladiki, unda bronxial suyukliklarni okib ketishi kiyinlashgan buladi va upka ventilyasiyasi buziladi. Ut okishi buzilishi gepatobiliar tartiboti kasalliklari uchun yoxuda urokinamikaning buzilishi siydik ajratish a'zolari xastaliklari uchun kanchalik axamiyat kasb etsalar BUB xam nafas a'zolari patologiyasi uchun shunchalik salbiy ta'sir kursatadi.

Xozirgi paytda BUB ni keltirib chiqaruvchi 8 ta etiopatogenetik omillar ma'lum. Ular kuyidagilardir: bronxospazm, bronx shillik kavatining shishi, bronxial shilliklari gipersekretsiyasi, respirator epiteliya siliar apparatining buzilishi, bronxlar diskineziyasi, bronxlarni tashkari tomondan ezilishi, bronxlarni ichki tomondan obturatsiyasi, bronxlar deformatsiyasi. Tabbiy, kayd kilib utilgan omillar ta'siri turlicha ifodalangan buladi (davomiyligi buyicha, kullamiga kura, bartaraf kilinishi darajasiga karab). SHu boisda BUB 4 ta turga tafovutlanadi. (R.G.Artamonov, 1995): chegaralangan, tarkok, bartaraf kilinsa buladigan va bartaraf etib bulmaydigan BUB.

CHegaralangan BUB da patologik jarayon bronxial shoxchalarni ma'lum kismini egallab joylashgan buladi, uning kolgan xududlari esa intakt xolda koladi.

Tarkoklanib ifodalanuvchi BUB da esa patologik jarayon bilan bronxial shojaraniig deyarli barchasi kamrab olingan.

Agarda dorivor moddalar yoki boshka biror bir konservativ davolash usublari bilan BUB unglanish imkoni bulsa-bu bartaraf kilinishi mumkin bulgan buzilish deb xisoblanadi. BUB fakat jarroxlik yuli bilan yoki boshka asbob-uskunalar kullabgina bartaraf kilinsa - u xolda bartaraf etib bulmaydigan BUB xakida suz ketishi kerak. BUB bronxial astma va astmasimon bronxitda turlicha buladi (tarkok va bartaraf etsa buladigan), yod jism bilan bronxlarni tikilib kolishi okibatida kelib chiqadigan upka atelektazida xam xar xil ifodalanadi (chegaralangan va bartaraf kilib bulmaydigan) yoki ayrim bronxlar illatlari va mukovissidozda xam shaklan farklanadi (tarkok bartaraf kilib bulmaydigan).

YUkoridagilardan kelib chiqqan xolda, bronxospastik sindrom deganda tarkoklanib kechuvchi va bartaraf kilinishi mumkin bulgan bronxial utkazuvchanlikning buzilishi tushunish kerak. Demak, BS - bu, mantikan patofiziologik tushunchadir.

Ma'lum buldi-ki, BS ni yuzaga chiqaruvchi patofiziologik jarayonlar bronxial astma va astmasimon bronxidlarda buladigan xodisalarga uxshash buladi. Uning asosida avvalambor allergik antigenni allergik antitelalar yoki sensibilizatsiyalangan xujayralar bilan uzaro ta'siroti yotadi. BS da trigcherlik vazifasini virusli infeksiya na boshka irritativ omillar utaydilar. Xususan, aniklangan-ki, respirator viruslar E sinfiga mansub (immunoglobulinli) viruslarga

karshi antitelalarni xosil kiladilar. Ular semiz xujayralarni va bazofillarni kuzgatuvchi ta'sir etib gistamin xamda araxnoidon kislotasi metabolitlari (leykotrmenlar, tromboksanlar, prostaglandinlar) ning sekretsiyasini kuchaytiradilar (Rachinskiy S.V.Tatochenko. V.K. 1987). Bundan tashkari BS rivojida liberator mexanizm – ya'ni, respirator viruslarini semiz xujayralarga bevosita ta'siroti xam rol uynashi mumkinligi ayrim mantalarda kursatib utilgan.

BS da siklik nukleotidlar xolatining uzgarishi muxim urin tutadi (Artamonov R.G, 1982, 1996). CHunonchi, BS xuruji paytida siklik adenozinmonofosfatning (SAMF) kamayishi va siklik guanozin-monofosfatning (SAMF) ortishi kuzatiladi. Tuzalish davrida, ayniksa eufillin kullanilganidan keyin bu kursatgichlar me'yorlashadilar.

BS simptopatologiyasi va solishtirma tashxisi xakida suz yuritishdan ilgari kayd etib utish kerakki, bronxospastik sindromni utkir respirator virusli infeksiyalarida kuzatilishi turli mualliflar buyicha xar-xil 10 foizdan to 40 foizgacha deb beriladi: urtacha u 25 foiz tashkil kilib uchraydi.

BS kurinishi anik keltirib chiqaruvchi tugma yoki ortirilgan patologik xolatlariga monand xolda ifodalanadi.

Bronxospastik sindromning patogenetik turlari tasnifi

BS ni kelib chiqishida ustivor nozologik birliklar bulib bronxial astma va boshkalar xisoblansada, ammo lekin uni tashxislagashda kator boshka turkum xastaliklarni xam tafovutlab olish lozimdir. BS genezi xam, demak, turlichadir: yalliglanish-yukumli, allergik, obturatsion, irritativ, gemsodinamik, endokrin-modda almashinuvi buzilish tufayli, nevrogen va toksik. Kupincha yalliglanish-yukumli va allergik jarayonlar tufayli BS vujudga keladi. BS ni tugri etiopatogenetik diagnostikasini ta'mirlash uchun avvalo utasinchkovlik bilan anamnez yigish, bronxoskopiya va bemorni chukur kliniko-instrumental tekshirish kabilar muxim axamiyat kasb etadi. BS ni davolash kat'iyon individual tarzda patogenetik turlaridan kelib chiqqan xolda tashkil kilinishi kerak. Ayrim xollarda (yod moddani yoki usmani olib tashlash - obturatsion BS da) etiologik davolash tadbirlari kullaniladi, asosan patogenetik terapiya utkazilishi lozim. Masalan. Allergik genezli BS da xromoglikat natriy - intal uta yaxshi samara keltiradi. Albatta, bronxlarni kengaytirib ta'sir etuvchi dori-darmonlar keng kullanishi kerak (adrenoreaktiv) strukturalar stimulyatorlari, xolinolitiklar, miolitiklar). Keng kulamli dorilarni tanlab olishda farmakologik sinovlarni keng kullash maksadga muvofik xisoblanadi, bu BS ning avjida simpatomimetiklar mikdori ortib ketishi tufayli kelib chiqadigan xavfli okibatlarni bartaraf qiladi.

Umuman, BS ni davolash-profilaktikasi taktikasi kuyidagilardan iborat bulishi kerak:

1. Ogir bronxospastik sindromni davolash kompleks tarzda olib borilishi lozim va u uz ichiga terapevtik muolajalar bilan bir katorda tozalovchi bronxoskopiya va anesteziolog-reanimatologik kursatmalarni olgan bulishi zarur.
2. Uzluksiz davom etish bilan ifodalanib kechuvchi BS ni bilan xastalangan bemorlar albatta pulmonologiya markazlari sharoitida tekshiruvidan utishlari va davolanishlari kerak.
3. Bronxospastik sindromni birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratilishi maksadga muvofikdir, chunki fakat shundagina mukobil davolash dasturini tanlab olish imkoniyati tugiladi.
4. CHuzilib kechish bilan ifodalanuvchi surunkali bronxit natijasida rivojlangan BS da yalliglanishga karshi preparatlar, bronxolitik dori-darmonlar va steroidli terapiya (kiska muddatli kurs bilan) bir vaktida kullaniladi.
5. Upkaning tug'ma kasalliklari, traxeobronxial shajara xududida rivojlangai yaxshi sifatli usmalar, diafragma churralari kabilarda rivojlangan yaxshi bs da radikal jarroxiya usullari kullaniladi va bu aksariyat xollarda bemorlarni tula tuzalib ketishlariga olib keladi.

Bronxospastik sindromda bronxial astma mavzusiga utishdan oldin shuni takidlab utish lozimki, XXI asr busagasida tib ilmi erishgan yutuklarining aksariyati bevosita yoki bilvosita bronxial astma muammolari bilan bog'liqdir.

Bronxial astmani dolzarb masalalari yoki echimi yaqin yillargacha munozarali bulib kelgan ancha-muncha muammolari xam bor-ki, ular tugrisida tuxtalib utish lozim.

1. Bronxial astma ta'rifi xanuzgacha turli maktab va mualliflar tomonidan turlicha talkin kilib kelinmokda. Bronxial astma-engil tashxislanuvchi, lekin ta'riflanishi kiyin bulgan kasallikdir. (D. 1979; N.R.Paleev va b.k. 1990). Xakikatdan xam, xozirgi kungacha bronxial astmani (BA) e'tirof kilingan yagona ta'rifi yuk. Vaxolan-ki bu yunalishda juda kuplab say-xarakatlar kilingan.

2. Oxirgi yillarda asosiy munozaralar BA da buladigan yalliglanish va uni persistensiyasi xakida davom etmokda. Bu borada kuplab mamlakatlarda (AKSH, Angliya, Avstriya, YAponiya, Rossiya av b.k.) milliy konsensuslar kabul kilindi internatsional va xalkaro ma'ruzalar paydo buldi (Bronxial astmaga karshi kurashish buyicha global strategiya, VOZ, 1995).

Bularda mavjud muammolarga ma'lum darajada nukta kuyildi desak xato kilmagan bulamiz. Xususan, bronxo-alveolyar lavak va bronxlar biopsiyasi natijalariga asoslanib, BA-ogirlik darajasiga karamasdan, nafas yullarini albatta yalliglanishi bilan ifodalanuvchi kasallikdir degan nizom deyarli shak shubxasiz isbotlab berildi.

Bu BA ni bilib olishda uziga xos bir inkilobiy xodisadir, chunki mazkur nigox bilan bokish mavjud tasavvurlarimizni kasallikning davolash muolajalariga nisbatan uzgartiradi va bazisli, uzok muddatga mo'ljallanib olib boriladigan yalliglanishga karshi terapiya tushunchasini tibbiyot amaliyotiga kiritdi.

3. Bronxial astmada bronxobstruksiya va nafas yullari giperreaktivligi fenomenlari etarli darajada asoslanmay kilinayotgan edi. Bu masalada xam yagona konsepsiya yaratildi: xususan, bronxial obstruksiyaning bir necha turlari ajratildi: amaliyotga «upkaning surunkali obstruktiv kasalliklari» birikmasi bilan bronxoobstruksiyaning ma'lum shakllari birlashtirilgan xolda kiritildi. Bular «mo'ljalli» davolash dasturlari yaratilishiga asos buldi.

4. Ma'lumki, epidemiologiya BAga oid samarali davolash va profilaktika strategiyasini ishlab chiqish imkonini yaratadi. YAkin yillargacha bu borada deyarli ma'lumotlarga ega emas edik. Lekin oxirgi 10-15 yillar ichida BA ga bagishlangan epidemiologik tadbikotlar kupayishi va yangi-yangi etiologik omillar aniklandi, bronxial astmaga karshi kurashish zamonaviy milliy dasturlari yaratilishi uchun poydevor kuyildi.

5. Bronxial astma farmakoekonomikasi jadal ishlab chiqila boshlandi va bu xastalikni davolash ishlarini takomillashtiruvchi zamonaviy yunalishlar belgilandi. Umuman, xozirgi davrga kelib bronxial astmaga oid tib ilmi yutuklari uni zamonaviy ta'rifi va tasnifi tulakonli ravishda oydinlashtirish xamda shakllantirish imkonini beradi.

BA ta'rifi va uning moxiyati xakida yukorida kursatib utilganidek muayyan tasavvurni shakllantirish murakkab vazifa. SHuning uchun kuplab mintakalar asosida mazkur munozarali muammoga nukta kuyib amaliyot uchun kulay bulgan ta'rifni tavsiya etamiz. Bu ta'rif A.G.CHugalin va G.B.Fedosevlar tomonndan (1987) berilgan, deyarli kupchilik olimlar uni e'tirof etganlar: «Bronxial astma bu nafas yullarini asosan xastalik kechish bilan ifodalanuvchi, bronxlar reaktivligini uzgarishi bilan utuvchi immunologik va noimmunologik mexanizm ta'sirotida rivojlanadigan, asosiy klinik alomati bulib bronxlar sillik mushaklari spazmi va ularning shillik kavatlari shishi xamda gipersekretsiya okibatida kelib chiquvchi bugilish xuruji yoki astmatik xolat xisoblanadigan surunkali kaytalanib kechuvchi kasallikdir»

«Astma» suzi yunonchadan olingan vz u tez tezlashgan va yuzaki nafasni anglatadi. Epidemiologik tekshiruvlar dalolat berishlaricha, BA bolalar orasida 8 - 10% kattalarda esa deyarli 5% axolida uchraydi. Oxirgi un yil ichida bu kasallik 50 foizdan kuprokka usgan. Afrika kit'asining ayrim mamlakatlarida uning tarkalishi 70 foiz va undan kuprokka ortgan. YAna shuni ta'kidlab utish kerak-ki, BA ning 20 foizi un engil va urta ogir darajasiga, 60 foizi esa ogir darajasiga tugri keladi. Moliyaviy resurslarni sarflanishi xam shunga monand bulib, 60 foizdan ziyod mablag ogir BA ga, 40 foiz mablag esa uning urtacha ogir darajadagi turlarini davolashga ketadi. SHunday kilib, engil darajadagi BA profilaktik dasturlarga jalb kilinmay koladi.

AKSH da BA bilan xastalangan Amerikaliklar 10 millionga etgan, ularning 80 foizida ya'ni 8 mln axolida kasallikning engil darajasi va fakat 5 foizidagina ogir darajasi uchraydi.

BA nisbatai kup uchraydngan mamlakatlarga yana Avstraliya. YAngi Zelandiya va Kuba xam kiradilar. Bu ulkalarda BA bilan 10 foizdan ziyod axoli xastalanganlar. Tugri tashxis kuyish uchun kasallikning tasnifi xakida oydin tasavvurga ega bulish muximdir. Bronxial astmaga oid kuplab tasniflar borki, ularning kupchiligi uzlarining nomufassalligi okibatida amaliyotda foydalanish uchun nokulayliklar tugdiradi. Xozirgi paytda A.D.Ado va P.K.Bulatovlar tomonidan (1969) ishlab chiqilgan va G.B.Fedoseev (1987 yil) tomonidan tuldirilgan BA tasnifi kabul kilingan va keng kullaniladi (jadvallarda ilova kilingan). Mazkur tasnifga kura, bronxial astmani ikki turi tafovutlanadi: nafas a'zolarining yalliglanish kasalliklari sababli paydo buluvchi infeksiyon-allergik (I) va noipfeksiyon ta'sirotlarga sezuvchanligi nomunosib tusda ortganligi shaxslarda rivojlanuvchi noinfeksiyon-allergik (atopik-A) shakllari. Uz navbatida ularning xar biri kechishiga kura BA boskichlari (I va II) ajratiladigan, bunday bulinish xastalik tufayli nafas a'zolari faoliyatlarini oddiydan murakkablashib buzilib borishini funksional siljuvlardan organik uzgarishlargacha etib boruvchi patologik xodisalarning darajalarini aks ettiradi. Bundan tashkari xar bir boskichda kuzgalish va remissiya fazalari ajratib kuyilgan.

BA 1 boskich bugilish xuruji bilan namoyon bula boshlaydi va davom etadi. Xurujning jadalligi va davomiyligiga engil, urtacha ogir va ogir.

BA engil kechishida (I I, - va IA ,) xuruj kiska davom etadi, yilda 2-3 marta kuzgaladi, xuruj tezda bartaraf etiladi. Xurujlararo davrda tulik remissiya kuzatiladi va ya'ni bronxospastik sindrom alomatleri umuman aniklanmaydi. Urtacha ogir darajada ifodalanib kechuvchi BA da esa (I I2 - va IA 2) kasallik davomida 3-4 marta kaytalanadi, bugilish xuruji ogirroq utadi va fakat R moddalar in'eksiya kilingandan keyingina tuxtaydi. Xurujlararo doir notulik remissiya bilan ifodalanadi ya'ni kuchsiz ifodalangan bugilish davom etib turadi.

YUkoridagilardan farkli ularok ogir kechuvchi BA (I I3 - va IA 3) tez-tez bugilish xuruji (yiliga 5 va undan ortik) bulib turishi va kuzgalish davri chuzilib davom etishi bilan ifodalanadi. Xuruji ogir utib ba'zida astmatik xolatga aylanadi va uni tuxtatish uchun bir necha gurux preparatlar kayta-kayta kullaniladi. Remissiya deyarli kuzatilmaydi.

BA ning ikkinchi boskichida asoratlar kelib chiqqan buladi, nafas tartiboti buylab chukur morfologik va funksional uzgarishlar kuzatiladi: tarkoklashgan surunkali bronxit, surunkali pnevmoniya, upka interstitsial kasalliklari, upka emfizemasi, pnevmoskleroz, upka etishmovchiligi (III boskich) yoki upka-yurak etishmovchiligi, dekompensatsiya davrida ifodalanuvchi yurak etishmovchiligi A.D.Ado va P.K.Bulatovning bronxial astmaga oid tasnifi suzsiz oldinga kuyilgan katta kadam. Lekin shu bilan birga aytish kerak-ki, BA ni nafakat immunoologik balki noimmunologik variantlari xam mavjud. SHuni xisobga olib R.S.Fyudoseev

ma'lum bulgan BA ning ikki turiga yangi kliniko-patogenetik variantlarni kiritdi, ya'ni tasnifi boyitdi yoki u umumlashgan xolda kuyidagi-cha ifodalandi:

1. Atopik
2. Infeksiyaga moyil (infeksion-aplergik)
3. Autoimmun
4. Disgormonal
5. Asab-ruxiy zurikishli
6. Adrenergik disbalansli
7. Bronxlar reaktivligi birlamchi uzgarishi bilan ifodalanuvchi (bu guruxga aspirinli astma va zurikishdagi astma xam kiradi)
8. Xolinergik (A.G.CHuchalin va G.B.Fedoseev 1986).

Xulosa kilish mumkin-ki, mantikan BA-etiologyasi va patogenezi tabiatan turli bulgan kasalliklar yigmasidir, lekin amaliyot nuktai nazaridan uni bir butun nozologik birlik sifatida kabul kilish makbuldir. Xozircha xastalikni shu yunalishda talkin kilishga tugri keladi, ammo yakin kelajakda, extimol uni inson immun tartibotining buzilishi bilan bog'liq kasallik deb atarmiz... Xar kalay bunday bashorat kiluvchi olimlarning tarafdorlari ortib bormokda.

BA - polietiologik kasallik xisoblanadi va uning kelib chiqishida moyillik yaratuvchi xamda bevosita chakiruvchi omillar muxim urin tutadi. Bular tuplamiga kuyidagilar kiradi: tugma va orttirilgan biologik nuksonlar (bir kismi genetik buzilishlar tufayli rivojlanadi, xomila rivojlanishi jarayonida, chakaloklik va undan keyingi davrda), astma oldi kasalliklari, irsiy moyillik, xomiladorlik patologiyalari, professional omillar, klimatometeorologik va ekologik omillar.

Biologik nuksonlar jumlasiga - xujayralar beta-adrenergik sezgirligini susayishi, siklik nukleotidlar xosil bulishida ishtirok kiluvchi fermentlar tartibotining uzgarishi, tranzitor neonatal immunodefitsit, makrofaglar funksional faolligini kamayishi, zardob omilining faollashuvi - tripsin mikdorining kamayishi, T-supressor faolligining etishmovchiligi, bronx va upkalarni sezuvchanligi va reaktivliklarini biologik faol moddalarga, allergenlarga, irritantlarga, turli ximik va fizik omillar ta'sirotiga sezuvchanliklarining ortishi, respirator tizim semiz xujayralari giperreaktivligi kabilar kiradi. Bular BA ni keltirib chiqarishida axamiyat kasb etuvchi ichki omillar xisoblanadilar. Bundan tashkari uni kelib chiqishida kator tashki omillar ustuvorlik kiladilar: infeksiyon allergenlar, noinfeksiyon allergenlar, mexanik va ximik ta'sirotlar, meteorologik va fizika - ximik omillar, ruxiy-zarba xamda asabiy ta'sirlanishlar kabilar.

Azaldan xayvonlar va o'simliklar bilan aloqador kishilarda astma kelib chiqishligi ma'lum (tushuk astmasi, pichan astma): oilaviy, asab tizimi va modda almashinuvi buzilishlari natijasida astmaga moyillik tugilishi mumkin.

Allergenlarga muvofik xolda nutritiv astma, primullan buladigan astma, ursoldan buladigan astma, jun rumoldan buladigan astma va b.k.lar. xamda infeksiyon astma xodisalari xam ayon.

Nevrogen omil bevosita ta'xsirida xam astma rivojlanadi. Bundan tashkari «astma tugib beruvchi» maxsus nuktalar kitiklanishi natijasida rivojlanuvchi reflektor astmalar xam buladi. Xususan, burun kasalliklarida (poliplar, burun tusigi kiyshayishi) uning shillik kavati nuktalarini kitiklanishi, upkani (peribronxitlar, pnevmoskleroz) ut yullari jinsiy a'zolar va upkadan uzokda joylashgan a'zolarini ta'sirlanishi tufayli xam reflektor astma paydo buladi. Astma kasaliga chalingan bemorlarning kupchiligida sovukni sezuvchanlik optgan buladi sovukdan buladigan eshak emiga uxshab) yoki bunday xodisa ozik-ovkatlarga (sut, tuxum) nafas

bilan olingan xavoga teriga tegib turuvchi (sirpanuvchi) anjomlarga nisbatan xam kuzatilishi mumkin.

Bosh miya yarim shari pustlogi buzilishlari bilan kelib chiquvchi astma xam ma'lum. Masalan, «gulli» astma bilan xastalangan bemorning kuzi sun'iy gulga tushgan zaxotiyok xuruj boshlanishi kuzatilgan.

Ayrim xollarda u kasb bilan bog'liq xolda, ma'lum ta'sirlagichlar ta'sirida rivojlanadi - dorixonachilarda (ipekakuona ta'siri), junchilarda (ursol ta'siri), yoki allergenlarning takroran ta'siri tufayli (gullar) xam paydo buladi.

Bronxial astma-astma oldi xolati deb nomlanadigan patologik jarayonlardan keyin rivojlanadi. Astma oldi xolati birinchi bulib 1969 yilda A.D. Ado va P.K. Bulatovlar tomonidan talkin etilgan va unga BA paydo bulishiga taxdid kilib turuvchi barga patologik xolatlar kiritiladi (utkir va surunkali bronxitlar, bronxospazm bilan ketuvchi utkir pnevmoniya, vazomotor rinit, eshak emi, vazomotor shish, neyrodermit-eozinofiliya va balgamda eozinofillar ortikcha mikdorda aniklansa). Bu xolat nimmunologik va nommunologik patogenetik mexanizmlarga kura rivojlanadi.

Bundan tashkari BA kelib chiqishiga xomiladorlik patologiyasi sabab buladi, xususan bola tugilishi paytidagi ota-ona yoshi axamiyat kasb etadi. YOshi utgan ota-onalardan (20-30 yoshda - 77.1 foiz va 30-40 yoshda - 22,9 foiz) tugilgan bolalarda kupipcha BA kuzatiladi. CHala tugilish bilan BA kelib chiqishida uzaro uzviylik borligi xam isbotlangan, astmasi bor onalardan tugilgan bolalarda respirator allergenlar kupayadi. Xomiladorlik davridagi ona shamollash kasalliklari, umurtka uzgarishlari, tugruk paytida buyin chuzlislari va boshning kuchli burib, tortib olish natijasida buyin umurtkalarini kiyshayib kolishi (vertebrobazilyar shoxobchalarda ishemiya rivojlanishi tufayli perinatal davr patologiyalari kabilar bronxial astma rivojlanishi uchun kulay sharoit kilib beradilar. Umuman, BA kelib chiqishiga kuyidagi omillar moyiilik tugdiradilar: kashandalik, respirator infeksiyalarga tez-tez chalinib turish, dorili va nutritiv (ovkatdan buladigan) allergiya suniy tarzda bolani ovkatlantirish, oshkozozon ichak tartiboti buzilishlari va konda E mikdorining ortishi.

SHuni aytib utish zarurki agarda mijozda kuchli ifodalangan biologik defektlar bulsa xam arzimagan tashki muxit salbiy ta'siroti BA keltirib chiqarishi mumkin. YOki kuchsiz biologik defektlar mavjud bulganda atrof muxitning nomakbul faol ta'sir kilishi okibatida u rivojlanadi.

Bronxial astma karindosh-uruglarda avloddan-avlodga «suyak kuvuvchi» kasallik xisoblanadi. Bu maxsus kliniko-epidemiologo-ginekologiya tekshiruvlar bilan tula uz isbotini topgan. A antigen sistemasi bilan kasallik urtasida aloqadorlik borligi xam ma'lum (bu sistema A,V>S,D,Dg irsiy birliklar birlashtirilgan buladi). Xususan, BA ni kupincha V8 antigeni va A,V8 gaplotiplari assotsiallanishi, ogir kechimi esa A11, V15, V18, VN№28- BN№41 antigenlari mavjud bulganda kuzatilishi xam aniklangan.

BA kelib chiqishida immunoglobulinlarning aloxida urni bor. Disgammaglobulinemiya, E va S mikdorining ortishi kasallik moyil yaratadi. SHuningdek bronxial astmani birlamchi profilaktikasida tibbiy-genetik maslaxatning axamiyati bekiyosdir.

YUkorida sanab utilgan omillarni urganish asosida BA ni bashorat kilish mumkin. Xususan, bronxial astma taxdidi alomatlari 9 ta guruxga mujassamlashtiriladi:

1chi - anamnez buyicha aniklangan irsiy moyiilik:

2 chi - genetik markerlari:

3 chi - konstitutsiya (gavda tuzilishi) xususiyatlari:

4 chi - ona kasalliklari, xomiladorlik patologiyasi:

5 chi - bolalar kasalliklari va bolani usishi xususiyatlari:

6 chi - kattalarni kasalliklari, maishiy va ish sharoiti xususiyatlari:

7 chi - biologik defektlar:

8 chi - astma oldi xolati alomatlari:

9 chi - tashki muxit nomakbul omilari.

1 chi, 2 chi va 3 chi guruxlar alomatlarini bulishi bronxial astmaga irsiy moyillik borligidan darak beradi: 4 chi gurux esa - xomila rivojlanishi davrida biologik defektlar shakllanganligiga gumon tugdiradi: 5 chi va 6 chi guruxlar – xayot davomida biologik defektlar keltirib chiqarishi mumkin bulgan nomakbul omillar borligini ifodalaydi: 7 chi - BA ga moyillik mazmunini ochib beradi: 8 chi - astma oldi xolati mavjudligidan darak beradi va nixoyat, 9 chi - faol ifodalangan tashki muxit omillari borligini kursatadi va ular ta'sirida klinik anik ifodalangan bronxial astma rivojlanishi mumkin.

Klimatometnologik omillarni roli xam aloxida urin tutadi. Uzbekiston sharoitida, Toshkent shaxrida baxor va kuz oylarida BA ni keskin kupayishi aniklangan (U.I.Shodmonov. 1984), Leningradda aprel va yanvar oylarida eng kup va iyulda kam darajada kasallik kuzgolishtari kuzatilgan (V.A.Ignatev va b.k., 1982).

Oxirgi yillarda aniklangan ma'lumotlar buyicha virusli infeksiya tomonidan chakiriladigan BA nisbatan kupaygan: koronaviruslar, rinoviruslar, adenoviruslar va gerpetik guruxi viruslari B ning infeksiyon-allergik shaklini kuzgovchi asosiy omillardan sanaladilar.

BA kelib chiqishida prostoglandinlar xam rol uynaydilar. Prostoglandin B (bronxlarda sintezlanadi) bronxodilatatsiya chakiradi, prostoglandin G-esa bronxospazm beradi (upka tukimasida sintezlanadi) va immunologik jarayonlarda faol katnashadilar.

Bronxial astma klinikasi kompleks alomatlarni ma'lum ketma-ketlikda evolyusiyalanishga bog'liq xolda turlicha ifodalandi. Bronxial astmada kuyidagilar boskichma-boskich yuz beradi.

a) astma oldi xolati:

b) klinik - anik ifodalangan bronxial astma-bugilish xuruji yoki astma xolatidan keyin;

v) bronxial astma shakllari (immunologik va noimmunologik):

g) yukorida zikr etib utilgan kliniko-patogenetik variantlari:

d) kechishi:

s) kasallik fazalari

j) asoratlari

Xar bir boskichda kasallik aloxida belgilar bilan ifodalanadi.

Bronxial astmani oldi xolati turlicha chuzilib davom etadi va uning asosida uziga xos kam alomat berib kechuvchi infeksiyon jarayon yotadi. Uning bosh alomati-bronxlar sezuvchanligini turli ta'sirotlarga nisbatan ortib ketganligidir. Sub'ekt xolati sovuk xavodan nafas olgandan keyin, gox turli xidlardan keyin yomonlashadi, lekin bronxospastik sindrom xam rivojlanib ulgurmagan buladi.

YO erta yoki kech bulsa xam astma oldi xolati urniga BA keladi va u uchta rivojlanish davrini bosib utish bilan ifodalandi. Ularning xar biriga maxsus kurinishlar berib alomat beruvchi xurujsimon bronxostenozning vujudga kelishi xosdir.

Bir xil vaziyatlarda bosh alomat tarzida xurujsimon kuruk yutal buladi va u Kurshman Yozib koldirganiday yopishkok, tinik balgam ajralishi bilan tuxtaydi. Balgam bor yoki yukligi inobat kilingan xolda «namli» va «kuruk» astmalar tafovutlanadi. Boshka bir vaziyatda BA ni bosh alomati bulib turli davomiylik bilan ifodalanuvchi va balgamli yoki balgamsiz ekspirator tusdagi

bugilish xuruji xisoblanadi. Kam xollarda kasallikning klinik alomatlari xuruji nafas olishni kiyinlashuvi davrilari bilangina belgi beradi va unda bronxostenoz belgilari topilmadi. Buning sababi nafas mushaklari faoliyatlaridagi diskoordinatsilashadi. Ayrim xollarda xar bir mijozda uziga xos kurinuvchi auralar BA xurujidan oldin kurinib utadi. Kasallik xurujining utib ketishi agarda davolash tadbirlari kilinmagan bulsa, sekin astalik bilan sodir buladi.

Umuman ekspirator xurujsimon bugilish-faol bronxostenozning klinik aksi-bronxial astmaning uziga xos alomatidir. Goxida u kon bosimining asimmetriyasi bilan davom etadi. Astma xuruji asosan tunda sodir buladi, chunki aynan shu paytda ma'lum fiziologik mexanizmlarning buzilishlari kuchayadi-chalkancha vaziyatda upka faoliyati sustlashadi, bronxial yullar torayadilar, ular bushliklariga sekret yigiladi, korin bushligi a'zolari tomonidan diafragma bosim kuchi ortadi. YAna tunda buyrak usti bezi faoliyati zaiflashadi, kortikosteroid gormonlari ishlab chiqarilishi, okibatida ma'lum darajada xuruj kaytalanishi uchun sharoit yaratiladi.

BA xurujining davom etishi, ifodalanishi va chastotasi individual tarzda xar xil ifodalandi, lekin shunisi ifodali-ki, ular yoxud tumovsimon xolatdan keyin, yoki ekstremal xolat tufayli, ba'zida esa biror bir ilinjisiz paydo buladilar va kuchayadilar. BA ni ogir kurinishi bulib bronxositmatik status xisoblanadi. U bronx upka tizimini, boshka a'zo va organizm funksional tartibotlarini chukur buzilishlari okibatida rivojlanadi, avval samara beruvchi davolash muolajalari uni bartaraf kilishga ojiz bulib koladi. Bu xolat bronxlar va upka parenximasida infeksiyon jarayonlarning faollashuvi natijasida vujudga keladi.

Aynan kursatilgan buzilishlariga mos xolda BA kechishining uch davri tafovutlanadi. BA birinchi davri barcha klinik alomatlarning avvallombor bronxostenozning xurujsimon tarzda kurinishi bilan ifolalanadi. Mazkur boskichda. xurujlararo davrda mijozlar uzlarini deyarli soglom deb tasavvur kiladilar. Eng yomoni shuki, bu nisbatan kam uchraydipgan va engil xurujlar shifokorlar tomonidan anglaniladiyu, ammo kupincha e'tibordan chetda koldiriladi, ya'ni davolash tadbirlari amalga oshirilmaydi: vaxolanki muolajalar albatta utkazilishi kerak.

BA ikkinchi davri xurujlarni nafakat tez-tez bulib turishi va davomiyligi bilan, balki xurujdan keyin xam saklanib turadigan bronx-upka apparati xolatining uzgarishlari bilan xam ifodalanib namoyon buladi. Bu ozgina jismoniy zurikishda xam bugilish paydo bulishi bilan kurinadi, umumklinik tekshiruvda esa upka emfizemasi va upka gipertenziyasi alomatlari aniklanadi. Ayrim xollarda bemorlar ish kobilyatlari chegaralanadi.

BA rivojlanishining uchinchi boskichi kuplab a'zolar faoliyatlarining buzilishlari va ish kobilyatini deyarli tula yukolishi bilan ifodalanadi. YUrakda uzgarishlar rivojlanadi: Ung korincha gipertrofiyasi va dilatatsiyasi (upka gipertoniyasi okibatida), keyinrok chap korincha faoliyati buzilishlar avjlanadi: gemodinamik buzilish natijasida esa jigar va buyrak faoliyatlarining uzgarishlari aniklana boshlanadi.

Bronxial astma simptomlarga boy kasallik xisoblanadi va an'anaviy tarzda kechganda uni tashxislash kiyin emas. BA ustuvor alomatlarini 27 taga (13 ta xuruj paytida va 14 ta xurujlararo davrda) shartli ravishda ajratish mumkin (jadvalda ilova kilingan). Eng kup uchraydigan asosiy alomatlari – ekspirator bugilish (96,8 foiz), burun bitimi (60,6 foiz). tush soxasi buylab noxush xis-siyotlari (57,4 foiz), ortopnoe (72,4 foiz), kutichasimon perkutor tovush (77,5 foiz), xirillashlar (85,1 foiz) va b.k.

«Kasallikning ichki tasviri» alomatlari xam BA da uziga xos ifodalangan buladi va uni tugri baxolay olish mukobil farmakoterapiya xamda tashxis uchun katta axamiyat kasb etadi.

«Kasallikning ichki tasviri» deganda» bemorning butun dunyosi barcha kechinma va tuygulari, xissiyotlari karama-karshiliklari, ruxiy zurikish va zarbalari yigindisi» tushuniladi. «Kasallikning

ichi tasviri (dunyosi)» mijozning shaxs sifatidagi xususiyatlariga, xastalik ogirligi, darajasi va davomiyligiga, kasallik avjlanishi jarayoniga: bemorning uz kasalligi xakidagi tibbiy tasavvuriga, ijtimoiy omillar va b.k.larga bog'liq buladi (R.A.Luriya).

L.L.Roxlin buyicha «kasallikning ichki tasvirini» ifodalab beruvchi asosiy manba bulib - mijoz tomonidan kasallik xakida uylab kaygurish turlari xizmat kiladi. Boshka samatik kasalliklarida bulgani kabi BA da bemorlar-ning kasallikka nisbatan ta'sirlanishlarini sakkiz xili ajratiladi: astenodepressiv, ipoxondrik, isterik, istsriopoxondrik, fobik. psixastenik, eyforik-anozognozik va xastalikni e'tirof, kilmaslik (L.L.Roxlin: Z.T.Kostyunina: V.V.Kovalev).

Mazkur sindromlar uta xos klinik belgilar bilan kurinish beralar. Xususan. astenodepressiv turdagi ta'sirlanish kayfiyatni tushib ketishi. kasallik xakida bid'atli yomon fikrlarga borish. kasallik okibati albatta fojiaga tarkalishi xakida yyra tolib yurish kabilar bilan ifodalandi. Mijozlar uta tushkunlikka tushib koladilar, xayol suradigan, kamgap va chigal fikrlar bilan yuradigan kishilarga aylanib koladilar. Kupchilik bemorlarda suitsidal goyalar paydo buladi, lekin ularni amalga oshirishga oshikish kuzatilmaydi. Uyku buziladi, bolalardan va jamoadan ajralib kolish vaximasi paydo buladi.

Isteroipoxondrik ta'sirlanishga moyillik bulgan bemorlar esa uz kasalliklarining alomatlarini anik va rangli kilib tasvirlab beradilar. Uzlariga aloxida e'tibor kilishlarini talab kiladilar, ular xastaliklarini boshkalarinikiga aslo uxshash emasligini uktirishga intiladilar:

Ularga shifokorlar notugri tashxis kuyib, notugri davolash muolajalari utkazilayotgandek tuyulaveradi va shuning uchun xam kuplab mutaxassislarga murojaat kiladilar, tartibsiz davolanadilar, kupincha uzini-uzi davolashga urinadilar va ular boshka xayotiy muxim kizikishlarini ishi. oilasi va b.k.larni batamom unitib kuyadilar. Ular uchun «kasallikka berilib ketish», kasallikka uta engil berilish kabilar xosdir. Bu turladi kechinmalar yoshlarda, ota-ona tomonidan ortikcha e'tibor bulganda va BA ogir kechganda kuzatiladi.

Ipoxondrik xildagi kechinmalar kayfiyatning tushib ketishi. keragidan ortikcha darajada uz xolatiga e'tibor kilish, xolati darajasiga ogirlashtirib baxo berishga moyillik bulishi, imkoyatlarni kupligi va senestopatiyalar bilan ifodalanadilar. Ular uzlariga yangidan-yangi simptomlarni «kashf kiladilar» guyoki ular rak yokn sil kasalligppga giriftor bulganlar, «upka nafas ololmaydigan darajada shishib ketgan». Bu toifa bemorlarni davolash kiyin masala. Bu turi kuprok psixasteniklarda va tutkanoksimon alomatlari mavjud bemorlarda kuzatiladi.

Bronxial astmada fobik ta'sirlanishlar xam kup uchrab turadi. Bunda bemorni kurkuv vosvosasi kuvlaydi, doimo vaxima bosadi: mijoz doimo yiglaydi, bezovtalanadi va vas-vasaga tushib koladi. Bu xil kechinmalar astma xuruji davrida kuchayadi, umumiy xolatning yaxshilanib borishi bilan utib ketadi.

Bemorlarda anozognozik ta'sirlanish bulganda, kasallik darajasi bemor tomonidan nomuvofik (past) baxolanadi, bemorlar uzok muddat davomida yordamga murojat kilmaydilar, dori kabul kilishdan bosh tortadilar, muayyan davolanmaydilar. Bunday tarzda uzini tutish intelekti past bemorlarda, kuchli intoksikatsiyada va bosh miya gipoksemiyasida kuzatiladi.

Bundan tashkari BA da apatik ta'sirlanishlar (reaksiyalar) xam uchraydi (I.P.Zamotaev, V.E.Rojnov, A.Sultanova, 1983). Bunda bemorlar va tekshiruvlarga unamaydilar, uykusizlik buladi. Bunday xolatlar kupincha glyukokortikoidli gormonlar berilgandan keyin kuzatiladi.

Sababi, bemorda gormon berila boshlandimi «tamom, ilojsiz xolat va endi kasallikni umuman davolab bulmaydi» - degan nomakbul va salbiy fikrni tugilib kelganligidir.

Bronxial astma mavzusida asosiy urinishlardan biri kilib astmatik xolat belgilanishi lozim, chunki uning alomatlari BA dan farkli ularok bir muncha uziga xos ifodalanib kurinish beradi va ikkinchidan, dolzarb masala bulib xisoblanadi.

Zamonaviy konsepsiyalarga kura uning asosida bronxial shajarlarda joylashgan betoadrenergik retseptorlar faoliyati buzilishi tufayli kelib chiqadigan utkir nafas etishmovchiligi sindromi yotadi.

Astmatik xolat BA ning xavfli asorati bulib, uning chastotasi 5-23,4 foizni tashkil kiladi, 1,23-16 foiz xollarda ulimga olib keladi.

Ma'lum buldiki, astmatik xolatning oxirgi yillarda tobora kupayib borayotganligini asosiy sababi BA keng tarkalganligi va uning ogir turlarini yildan-yil sari kup uchrab turganligi ekan. Bu albatta turli omillar (dori-darmonlarning keng kullanishi, kimyoviy preparatlarni kuplab ishlab chiqarilishi, kishlok xujaligini ximizatsiyalash va x.k.lar, okibatida axolini allergizatsiya darajasini ortishi) tufayli atrof muxitni ifloslanishi bilan xam bevosita bog'liqdir.

Astmatik xolatni keltirib chiqaruvchi sabablar jumlasiga simpatomimetiklarni me'yordan ortikcha berish, antigistaminolarii sedativ va boshka dori-darmonlar mikdorini oshirib yuborish, glyukokortikoid garmonlar bilan nomuvofik davolash, anafilaktik shok va boshka shu kabilar kiradilar.

Uning asosiy patogenetik mexanizmlarini kuyidagicha ifodalash mumkin: eronxlar betoadrenergik retseptorlarini tula blokadasini bronxospazm-eronxlar shillik kavatlari gipersekretsiyasi va shishi (dimlanishi yalliglachishli va allergik tabiatga ega bulgan) kichiq va urta kalibrli bronxlarning ekspirator kollapsi-giperkapniya-gipoksiya-tukimalar degitratatsiyasi-politsetemiya va utkir upka-yurak sindromi.

Aloxida urinni uning rivojlanishida prostoglandinlar almashinuvi va immun tizimining buzilishlari egallaydi. Umuman, xar kandy ogir bugilish xuruji astmatik xolatga utishi mumkin.

Akademik A.G.Chuchalin buyicha astmatik xolatni ikki shokli tafovutlanadi: anafilaktik va allergometabolik. Birinchisi kamrok kuzatiladi va pirazon xosilalari, sulfanilamidlar, antibiotiklar va boshka turdagi dori-darmonlar kabul kilingandan keyin paydo buladi.

S.Ch.Babichev va b.k. esa uning uch turini ajratishni taklif etganlar: bronxospazm etakchi sindrom bulishi bilan ifodalanuvchi astmatik xolat, bronxosekretor jarayonlarni ustuvorligi va bronxlarni kisman obstruksiyasi rivojlanishi bilan kechuvchi turi va total upka obstruksiyasi bilan ifodalanuvchi turi.

Unga baxo berishda kuyidagi klinik alomatlariga e'tibor beriladi:

1. Ksantin xosilalari va simpatomimetiklarning bronxodilatatsiya kilib ta'sir- kursata olish darajasi (samaraligi va samarasizligi).

2. Samarsiz yutal shakllanishi;

Utkir nafas etishmovchiligini avjlanib borishi tezligi.

Arterial kondagi gazlar mutanosibligi va kislota-ishkor xolati uzgarishlari tashxisiy axamiyat kasb etadi.

Astmatik xolatni verifikatsiya (oydinlashtirib olish) kilish uchun 0,1%-li adrenalini eritmasi 0,3-0,5 mg dan xar 20 dakikada teri ostiga 3 marta kiritiladi (1:1000) mutanosiblikda eritilgani) yoki adrenalini 0,3 ml dan xar 30-60 dakikada teri ostiga (ikki marta) beriladi (N.V.Putov. 1980). Bu maksadda eufillinni 2,4%-li eritmasidan xam foydalanish mumkin. Buning uchun 2,4%-li eufillin eritmasi 10 ml dan xar 30 dakikada (ikki marta) vena ichiga kiritiladi. Ogirlik darajasiga kura astmatik xolatni 3 boskichi ajratiladi.

1. BOSKICH - nisbiy kompensatsiyalashgan boskich. Bugilish xuruji uzok muddat davomida tuxtamay davom etadi (6 soatdan kup) simpatomimetik va boshka bronxodilatatorlar yordam bermaydi. Bemorlarni xushi joyida buladi, ruxiy buzilishlar yuk. Kuchsiz ifodalangan taxipnoe va okimtir sianoz, kuzatilib kam xollarda kup terlash buladi. Upka ekskursiyasi chegaralangan, perkussiyada-kutichasimon oxangli tovush, auskultatsiyada-upka barcha maydonlari buylab eshitiladigan vezikulyar nafas, chiqarish chuzilgan. yoyilgan kuruk diskantli xirillashlar. Kupincha yurak soxasida ogrik seziladi va u yurak glikozidlariga kam beriladigan taxiaritmiya (100-120 ta bir dakikasiga) bilan xamda kon bosimini kutarilishi bilan davom etadi. Vena ichiga eufillin yuborilgandan sung bosh ogrigi, bosh aylanashi, kungil aynish va kayd kilish kuzatiladi. Ung korincha etishmovchiligi nimitik ifodalanadi. Bu boskichda yana shu ifodaliki, ventilyasion buzilishlar bulmaydi, kuchsiz ifodalangan arterial gipoksemiya (R..O: 60-70 mm.sim.ust), norma yoki gipokapniya (RaSO₂ normada 35-45 mm.sim.ust ga teng buladi) yoki RaSO₂ giperventilyasiya natijasida 35 mm.sim.ust. dan kamayadi.

2. BOSQICH - dekompensaiiya yoki «sokov» upka boskichi. Umumiy axvoli ogir darajada. Ruxiyatning kuchli buzilishi, psixomotr kuzgalishlar, gallyusimatsiyalarda (depressiya, apatiyalar bilan almashib turadi) bu davr uchun xosdir. Bemorlar elka xududini kotirib turgan xolda majburiyat vaziyatni egallab turishga urinadilar, kukrak kafasi nafas chiqarish boskichida turib koladi, yordamchi mushaklar nafas olishda katnashadilar. Sianoz shiddali tusda ifodalangan. SHovkinli, xushtaksimom nafas bilan auskultativ fenomenlar annklanishi orasida nomutanosiblik topilishi ayniksa muxim tashxisiy kalit xisoblanadi (upkada xirillashlar deyarli topilmaydi, nafas shovkinlari susaygan, upka ayrim xududlarida esa umuman eshitilmaydi - vaxolanki, xushtaksimom dagal nafas tasofada meziladi). Kichiq puls, taxikardiya (dakikada to 140 tagacha) kupchilik xollarda paradoksal puls aritmiya va gipotoniya xam aniklaniladi. Bu boskichda bronobstruktiv sindrom va ventilatsion buzilishlar jadallashadilar, gipoksemiya (RaS 50-60 mm sim.ust.) va giperkapniya (R,,. SS 50-70 mm.sim.ust. va undanyukoriga) kuchayadilar.

3. BOSQICH - gipoksik yoki giperkapnik koma boskichi. Umumiy axvol uta ogir darajada bulib, klinik manzarasida asabiy-ruxiy buzilishlar ustuvorlik kiladi, es-xushi yukoladi va xush ogishidan oldin changak (akashak) bulishlar kuzatilishi mumkin. YOyilib ifodalanuvchi diffuzsianoz, terlash, sulak okish, tuxtab-tuxtab nafas olish, nafas olish yuzaki va aritmik tusda buladi, gipotoniya , kollaps va ipsimon nozik puls kabilar aniklanadi. Gipoksemiya (Ra O₂ - 40-50 mm.sim ust. Va yukori) va giperkapniya (Ra CO₂ 80 -90 mm. sim. ust va yukori) xamda ventilyasion buzilishlar shiddatli tus oladilar. YUkoridagilardan tashkari asmatik status gipovolemiya (kam xollarda gipervolemiya va gipertanatriemiya-Dop. 1984) bilan gematrokrit kursatkichlari va kon zardobi oksillari konsentratsiyasini ortib ketishi bilan xam davom etadi yoki namoyon buladi, avval metabolik alkoloz va sungra esa, asmatik status darajasi ortib borishi bilan metabolik atsidoz rivojlanadi. Bronxial astma va xomiladorlik munosabatlariga oid ma'lumotlar oxirgi yillarda kupayib borayotganligini takrorlab utish lozim. Bu borada ayniksa Uzbekistonda SSV tomonidan ishlab chiqishgan va tavsiya etilgani tavsiyanomalar eng oxirgi tib ilmi yutuklarini uzida mujassamlashtirganligi bilan ilmiy-amaliy axamiyat kasb etishni aloxida kayd etib utish kerak.

Ma'lum buldiki xomiladorlik davri 48% xollarda astma xujayrani kaytalanishiga sabab buladi va utkir virusli infeksiya, uchogli infeksiyalar va sovkatish kabilar moyillik yaratishi okibatida xuruj kiladi. BA ni kaytalanishini 84,6% ni xomiladorlikni birinchi yarmiga tugri keladigan

64,8% xollarda obstruktiv turlar ifodalanauvchi tashki nafas faoliyatini buzilishi kuzatiladi. BA urta ogir va ogir kechganda xomiladorlik paytida tula remissiya bulmaydi, remissiya boskichda xam biron obstruktiv sindrom alomatlari xuruj kilishi davom etadi (L.L.Molchanova va b.k. 1996). Kuchli gipoksiya va mikrotsirkulyasiya tizimidagi salbiy uzgarishlarni strukturali davom etishi sababli 14,4% xasta xomilador ayollarda xomilani zudlik olib tashlash xavfini taxdid kiluvchi BA xuruji rivojlanadi, ogir darajasi esa bunday xolat 100,0 foiz kuzatiladi.

Ogir kechuvchi gestoz urta darajada (26,7%) va ogir darajada utuvchi BA bilan ogrigan xomiladorlardan 20 foiz albatta rivojlanadi. Bundan tashkari BA 29,5% xollarda xomila gipoksiyasiga sabab buladi. 19,2% esa bola tashlashga olib keladi. Bundan tashkari 40% chakaloklar asfiksiya xolatidan dunyoga keladilar. Tugrukdan keyingi davrda 14.7% ayolda BA kaytalanadi va ayol jinsiy a'zolari tartibotidan yiring sepsisligi kasalliklariga chalinish xavfi ortadi. BA bilan xasta ayollardan tugilgan chakaloklarda ekssudativ diatez (27,3 foizgacha) va utkir respirator virusli infeksiyalarga chalinishi xavfi yukori buladi (16,9 foizgacha).

YUkoridagilardan kelib chiqkai xolda kuyidagilar tavsiya etiladi: Xomilador ayollarda uz vaktida BA xavfli omillarni bartaraf kilish yuli bilan kasallik kuzgolishini oldini olib turish lozim: yukori nafas yullari surunkali infeksiyasi uchoklarini erta aniklash va faol sanatsiya kilish darkor: utkir virusli infeksiyalardan muxofaza kilish yoki vaktida davolash tadbirlarini kurish:

BA bilan xastalangan ayollarni II chi xavf guruxiga (engil va urtacha ogir turi), ayrim xollarda (tugma nukson bulishi, doimiy astmatik xolat, ogir darajili BA) eca III guruxga kiritib xaftaaro kuruv nazorati urnatiladi, kechki gestoz va boshka infeksiyalarni preventiv davolash tadbirlarini kurish. Xomilani tuxtalish yoki davom etish masalasi birinchi 10-12 xaftalardayok xal kilinishi lozim.

3-mavzu. Allergik reaksiyalar. Anafilaktik shok.

Ichki kasalliklarning shoshilinch holatlarida stomatolog taktikasi.

1.1.Ma'ruza mashg'ulotning texnologik modeli

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 18-24 gacha
Mashg'ulotning shakli	Ma'ruza axborot ma'ruza, slayd ma'ruza, multimedia ma'ruza shaklida
Mashg'ulotning rejasi	1.Kirish 2.Anafilaktish shok etiologiyasi 3.Anafilaksiya tushunchasi 4.Anafilaktik shok klinika, diagnostika, davolash chora tadbirlari 5.Xulosa
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Maqsadi yoritiladi. Ta'limiy: Allergologiyada anafilaktik shok rivojlanishi, klinika, diagnostikasi, davo choralari haqida ma'lumot berish Tarbiyaviy:

	1. Talabalarga anafilaktik shokni tushuntirish 2. Anafilaktik shok turlari haqida tushuncha berish
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proyektor, kompyuter, multimedialar
Mashg'ulot uslubi	Axborotli, suxbat, ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2 Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyatining mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (5 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar Tinglaydilar
3. YAKuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi	Tinglaydi
4. Mustaqil ta'lim uchun topshiriklar (5 daqiqa)	1. Mustaqil ish beradi 2. Uyga vazifa beradi	Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80minut-2soat		

Mavzu bayoni: ICHKI KASALLIKLARNING SHOSHILINCH HOLATLARIDA STOMATOLOG TAKTIKASI

Anafilaksiya grek suzidan olingan bulib, ana – yana, aphyllaxis – ximoyasiz, ya'ni ximoya kila olmaydigan degan ma'noni bildiradi

Anafilaktik shok yurak qon aylanish doiralarning o'tkir buzilishi okibatida quyidagi belgilar bilan namoen bo'ladi:

- teri rangining okish kukimtir eki marmarsimon rangga kirishi, sovuq ter bosishi.
- tirnok osti satxida qon okishining xaddan tashkari sekinlashuvi,
- xalovatsizlik, es xushning xiralashuvi – dispnoe,
- siydik mikdorining kamayishi, yaxni kam siyish- oliguriya.

- Tomir urishining tezlashuvi – taxikardiya,
 - Qon bosimining pasayib ketishi kabi xolatlar ana shular jumlasidandir
- Anafilaktik shokning kelib chiqish sabablariga karab, dori-darmonlarni kullash okibatida kelib chiqadigan anafilaktik shok, zardob xamda vaksinalarni kullash natijasida yuzaga keladigan shok, allergik ovqat lar, xasharotlarning chakishidan vujudga keladigan shoklar fark kilinadi.

H, P.Schuster H ,Schonborn .R,Ianer(1975) anafilaktik shok sabablarini 2 turkumga bo'ladilar :

- 1 Tashxis (diagnostika) va davolash maksadida ishlatiladigan vositalar :
- -dori-darmonlar.immun zardoblar:
- -uzida yod saklagan rentgen kontrast moddalar va boshka turli testlar uchun
- -teri orqali allergik kasalliklarni davolash va aniqlash maksadida ishlatiladigan allergenlar
- kolloid xolatdagi qon urnini bosuvchilar
- qon qo'yish xamda shu qo'yish jaraenida yul kuyilishi mumkin bulgan xatoliklar
- 2. Xayvonlar zaxari:
- asalari,oddiy beli ingichka ari,kovokari va boshkalar chakkanda.
- Yuqorida qayd kilingan sabablar orasida dori-darmonlarni ishlatish natijasida kelib chiqadigan allergik xolatlardan anafilaktik shok birinchi urinda turadi.YU.P.Borodin (1973) ma'lumotlariga karaganda,dori-darmon bilan davolash okibatida kelib chiqkan anafilaktik shok xolatlar 10dan 30 foizgacha ulim bilan tugagan.

Dori-darmonlar ishlatishdan kelib chiqadigan anafilaktik shokni ularning tutgan urniga karab quyidagi larga bulish mumkin:

1. tabiiy (penitsillin,bitsillin) va yarim sintetik penitsillinlar (oksatsillin,ampitsillin va boshkalar) guruxi;
2. tetratsiklin guruxiga kiruvchi dori-darmonlar (tetratsiklin,randomitsin, metatsiklin, morfotsiklin, glikotsiklin va boshkalar) guruxi.
3. Fenotiazin va ba'zi bir xil gistaminlar qarshi ishlatiluvchi dorilar (aminazin va uning analoglari, pipolfen, diprazin),
4. Streptomitsin va aminoglikozidlar (neomitsin, kanamitsin, gentamin va boshkalar) guruxi.
5. Uz tarkibida yod saklaydigan barcha dori- darmonlar (lyugol eritmasi, sayodin kontrast dorilar),
6. Vitamin V 1 (tiamin bromid) va kokarboksilaza,
7. Barbituratlar (fenobarbital va boshkalar) guruxiga kiruvchi dorilar,
8. Pirazon turkumiga kiruvchi dorilar (analgin, antipirin, amidopirin, butadion), atsetilsalitsilat kislotasi va fenilpropionatlar (brufen va boshkalar),
9. Novokain, sulfanilamid va uning turkumiga kiruvchi dorilar,
10. Etilendiamin(suprastin va boshkalar) guruxi bilan eufillin guruxi,
11. Sefalosporin guruxi.

Kasallikning rivojlanishi.

Ma'lumki, anafilaktik shok tez utadigan ximergik kurinishdagi allergik jaraen turiga kiradi.

- A.A. Polner (1973) fikricha, ximergik kurinishdagi xamma allergik reaksiyalarga, shu jumladan, odam tanasida sodir bo'ladigan anafilaktik shokka ikkita asosiy xususiyat sodir etgan :

1. qonda aloxida kurinishdagi antitanalar (reaginlar eki IgE ga bog'liq antitanalar) ning aylanib yurishi,

2. allergik kasalliklarga irsiy moyillik (konstitutsiya eki A.D. Ado bo'yicha allergik konstitutsiya) bulgan kishilarda allergik reaksiyaning rivojlanishi.

- Odam organizmining turli allergenlarga nisbatan sezgirligining oshib ketishi turli muolajalar qilish, ogiz orqali, nafas yo'llari ga dori-darmonlar purkash yo'llari bilan davo kilinadi.

Anafilaktik shokda odam a'zolarida sodir bo'ladigan xaddan tashkari murakkab jaraenlar rivojlanishini

3 boskichga bulish mumkin:

- 1) immunologik boskich,
- 2) biokimeviy boskich,
- 3) anafilaktik shok belgilari keng yuzaga chiqkan kasallik fiziologiyasi boskichi.

Keyingi vaqtda doriga bulgan allergik reaksiyalar tobora Ko'payib bormokda

G.V.Grebnevning boshka mualliflar bilan keltirgan ma'lumotlariga k ra (1991), keyingi 2 yilichida allergik kasallikka uchragan 617 bemordan 171 ta bolada dori va zardoblarga nisbatan sezgirlik oshib ketganligi aniqlanadi.

Xar xil kasalliklarni davolashda ishlatiladigan antibiotiklar ichida penitsillindan kelib chiqadigan anafilaktik shok yuqori foizni tashkil kiladi.Xozirgi kunda bu 0,6 dan 16 foizgachadir.

Dori-darmonlar ishlatishdan kelib chiqadigan anafilaktik shokni ularning tutgan urniga karab quyidagi larga bulish mumkin:

- 1) tabiiy (penitsillin,bitsillin) va yarim sintetik penitsillinlar (oksatsillin,ampitsillin va boshkalar) guruxi;
- 2) tetratsiklin guruxiga kiruvchi dori-darmonlar (tetratsiklin,randomitsin, metatsiklin, morfotsiklin, glikotsiklin va boshkalar) guruxi.
- 3) Fenotiazin va ba'zi bir xil gistaminlar qarshi ishlatiluvchi dorilar (aminazin va uning analoglari, pipolfen, diprazin),
- 4) Streptomitsin va aminoglikozidlar (neomitsin, kanamitsin, gentaminva boshkalar) guruxi.
- 5) Uz tarkibida yod saklaydigan barcha dori- darmonlar (lyugol eritmasi, sayodin kontrast dorilar),
- 7) Barbituratlar (fenobarbital va boshkalar) guruxiga kiruvchi dorilar,
- 8) Pirazonon turkumiga kiruvchi dorilar (analgin, antipirin, alidopirin, bUtadion), atsetilsalitsilat kislota va fenilpropionatlar (Srufen va boshkalar),
- 9) Novokain, sulfanilamid va uning turkumiga kiruvchi dorilar,
- 10) Etilendiamin(suprastin va boshkalar) guruxi bilan eufillin guruxi
- 11)Sefalosporin guruxi.

Adabietda anafilaktik shokning ogir kurinishi dori-darmonlarni juda oz mikdorda kullaganda xam yuzaga kelganligi xakida ma'lumotlar bor.

-Penitsillin antibiotigini ishlatish maksadida kulanilgan shprints, terilizator xam anafilaktik shok xastaligini boshidan kechirgan bemorlar uchun uta xavflidir. Odatda anafilaktik shok konstitutsiyasida anomaliyasi bulgan xam; i allergik kasalliklarga moyilligi bor bolalarda eki katta eshdagi kishilarda sodir bo'ladi.

Xasharotlar chakishi okibatida tana sezgirligining oshib ketishi E.Rayk (1966) ma'lumoti bo'yicha 5%ni tashkil kilgan bo'lsa, xozir bu kursatkich Birmuncha Ko'paygan.

AKSH da 1956 - 1959 yillardaek xasharotlar chakishi okibatida 220 ta oda da ulim yuz bergan. Keyingi vaqtda bizning tibbiet jurnallarimiz saxifalarida xam xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan anafilaktik shok xakida Ko'plab ma'lumotlar e'lon kilinmokda.

Respublika bolalar allergik kasalliklari okibatida yuz bergan xar xil kurinishdagi allergik reaksiyalarning 2 tasida anafilaktik shok xolati uchraydi.

Xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan javob jaraeni allergik peaksiyalardan iboratligi xammaga ravshan.

Xasharotlar chakishi okibatida kelib chiqadigan anafilaktik shok dori liergiyasi okibatida yuzaga keladigan belgilardan fark kilmaydi, lekin xasharotlar zaxarining uziga xos xususiyatlari xam bor.

Xasharotlar zaxari ichida asalari zaxarigina urganilgan, xolos. Asalari zaxari (apitoksin) - asalarining maxsus bezlari (apis) ning m xsulidir. Apgoksinning ta'sir kismi oksil modsa bulmish mellitin va 18 ta murakkab aminokislotalardan iborat. Asalari zaxaridan 2 fosfolipaza A fermenti va gialuronidaza xamda atsetilxolin, gistamin va juda oz mikdorda boshka kimyoviy elementlar ajratilgan. Ko'pchilik bolalarda xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan allergik jaraen asta -sekin boshlanadi. Avvaliga xasharot chakkan soxada makalliy jarayon shish ko'rinishida, eshakem, Kvinke shishi, nafas kisish xuruji sifatidanamoyon bulib, so'ngra xar xil ogirlikdagi anafilaktik shok xodisalari yuz berishi tajribada kurilgan. Anafilaktik shokning kelib chiqishida ovqat allergiyasining urni Qanday?

Allergenli ovqat lar xisoblanmish sigir suti, engok, tuxum, pista, pistabodom, pishlok, balik, shokolad, moshli (moshxurda, moshkichiri) taomlar, kofe, kakao, tomatlar, kuziQorinlar, sitrusli mevalar (limon, apelsin, mandarin, xypmo) asal, tovuk gushti, pepsi-kola, koka-kola, tarxun kabi ichimliklarni iste'mol kisilish natijasida kelib chiqkan anafilaktik shok jumxuriyat bolalar allergik kasalliklari yillik tajribasida uchramadi.

Tibbiy adabiyotda kasallikni aniqlash maksadida ishlatiladigan ovqat allergenlariga nisbatan bitta-ikkita misollar bor xolos.

1963 yilgacha bulgan tibbiy adabiyotlarda kukrak eshidagi bolalardan 40 tasida sigir sutiga nisbatan, to'grirogi V-laktoglobulinga nisbatan anafilaktik shok yuz berganligi qayd kilingan.

Sovuq xavoga nisbatan allergik sezgirlik bor bolalarda tananing katta kismiga sovuq ta'sir kilganda (daryo yoki dengizda chumilish vaqtida) anafilaktik shok yuz berishi mumkinligini A.D.Ado va YU.A. Poroshina (1976) qayd qilib utganlar.

Allergik kasalliklarni davolash jaraenida maxsus sezgirlikni pasaytirish usuli (spetsifik giposensibilizatsiya) 1911 yildan, ya'ni Noon va Freeman bu usul taklif kilganlaridan buyon 20 marta ulim bilan tutagan anafilaktik shok sodir bulgan.

Respublika bolalar allergik kasalliklari markazida 20 yil mobaynida maxsus giposensibilizatsiya olgan 700 nafar bemordan atigi bittasida anafilaktik shokxolati sodir bulgan.

Davolash

- ▶ Anafilaktik shokni davolash oson ish emas. Bunda xar bir daqiqa kimmatli bulib, uni kuldanda boy bermaslik darQor. Shifokor saviyasining pastligi xamda anafilaktik shokka qarshi kurashni tashkil kila olmaslik va uning bemor tepasida esankirab kolishi davoning muvaffakiyatsiz chiqishiga olib kelishi mukarrar. Anafilaktik shokda bemorga quyidagicha yordam kursatilishi kerak.
- ▶ 1. Bemorga yordam kursatish uchun ikkita shifokor va tajribali xamshira kerak. Bir shifokor kasalning qon bosimini ulchash bilan band bo'lsa, ikkinchi shifokor bemorga dori darmonlar buyurib, uni xamshira yordamida amalga oshirish bilan shugullanadi.
- ▶ 2. Bemorning qoniga shokka sababchi allergenning tushishini albatta tuxtatish darQor. Buning uchun dori yuborilgan eki xasharot chakkan joydan yuqorida jgut boglanadi.
- ▶ 3. Anafilaktik shok xolatida dori-darmonlar ichida yordam berib, ulimdan olib koladigan adrenalini va uning guruxidagi preparatlar xisoblanadi. SHuning uchun xam shifokor anafilaktik shokda bemor ogir xavfli xolatdan chiqib, qon bosimi kutarilgunga kadar adrenalini kullaniishi kerakligini unutmasligi lozim. Avvalo xasharotlar chakkan joy atrofiga teri ostiga, mushak orasiga 0,1% 0,3-0,5 ml adrenalini eritmasi yuboriladi. Xasharot chakkan joydan uning nishtarini olib tashlash kerak. U joyni ukalash man etiladi, chunki xar bir ukalash xarakati qon tomirlariga allergenlarning surilishini tezlashtiradi.

Kasallikning rivojlanishi.

Ma'lumki, anafilaktik shok tez utadigan ximergik kurinishdagi allergik jaraen turiga kiradi.

A.A. Polner (1973) fikricha, ximergik kurinishdagi xamma allergik reaksiyalarga, shu jumladan, odam tanasida sodir bo'ladigan anafilaktik shokka ikkita asosiy xususiyat sodir bo'ladi.

1) qonda aloxida kurinishdagi antitanalar (reaginlar eki IgEga bog'liq antitanalar) ning aylanib yurishi,

2) allergik kasalliklarga irsiy moyillik (konstitutsiya eki A.D. Ado bo'yicha allergik konstitutsiya) bulgan kishilarda allergik reaksiyaning rivojlanishi.

Odam organizmining turli allergenlarga nisbatan sezgirligining oshib ketashi turli muolajalar qilish, ogiz orqali, nafas yo'llari ga dori-darmonlar purkash yo'llari bilan davo kilinadi., Anafilaktik shok sezgirligi oshgan odam tanasiga kerakli mikdorda allergenning kaytadan tushishi okibatida sodir bo'ladi.

Ko'pincha anafilaktik shok turli dori - darmonlarni teri ostiga, mushak orasiga eki venaga yuborganda sodir bo'ladi.

SHuni qayd qilib utmok kerakki, sezgirligi yuqori darajada oshib ketgan organizmga juda kam mikdorda allergenlar tushgan takdirida xam anafilaktik shok kelib chiqishi mumkin.

Anafilaktik shokda odam a'zolarida sodir bo'ladigan xaddan tashkari murakkab jaraenlar rivojlanishini 3 boskichga bulish mumkin:

1) immunologik boskich, 2) biokimeviy boskich, 3) anafilaktik shok belgilari keng yuzaga chiqkan kasallik fiziologiyasi boskichi. Anafilaktik shokda muxim axamiyat kasb etuvchi davr - odam tanasining sezgirligi oshib, immunologik jixatidan kayta tiklanish jarayonidir. Bunda teri sezgirligini oshiruvchi antitanalarning paydo bulishi kasallikning rivojlanishida muxim axamiyatga ega. Sezgirligi oshgan tana tukimalari ma'lum allergenning Ko'p mikdorini uziga singdira olish xususiyatiga egadir.

Anafilaktik shokning immunologik boskichida sezgirligi oshib ketgan az'zoning tukima va xujayralariga birikkan antitanalar bilan tashki muxitdan tushgan allergenning tuknashuvi okibatida bo'ladigan reaksiya jaraeni sodir bo'ladi.

Anafilaktik shok rivojlanishida bazofil leykotsitlarda, mayda qon tomirlar atrofidagi shillik kavatda joylashgan govak biriktiruvchi tukimaning tuyingan xujayralarida (allergen- antitana urtasida sodir bo'ladigan jaraen muxim axamiyat kasb etadi.

Anafilaktik shok tukimalari teri (eshakem. Kvinke shishi), sillik mushak a'zolari bulishi mumkin.

Allergen- antitana birikmasi oldin qonda sodir bulib, so'ngra shokli a'zolar tukimalarini emirib, birikishi xam mumkin. Anafilaktik shokda allergen- antitana urtasida sodir bo'ladigan jaraenda fakat reaginlar emas, balki pretsipitat antitanalarining xam ishtirok etishi isbotlangan, lekin shunga karamasdan, bu jaraenda antitana IgE (Ishisaka, 1971) sinfiga tegishli reaginlar aloxida urin egallaydi.

SHuni xam qayd qilib utish kerakki, dori allergiyasida dori allergenlari odam a'zosida gapten sifatida bulib, oksil bilan birikkanidan keyingi xakikiy antigenlarga aylanadi.

Allergen antitana tukimalarida morfologik va fiziologik ish k (bilyatini ko'potadigan uzgarishlar keltirib chiqaradi. Natijada tuyingan tukimalar xakida qonning bazofilotsitlari degranulyasiyaga uchrab, biologik jixatdan faol moddalari Ko'plab ishlab chiqara boshlaydi, shuning okibatida tez boshlanadigan allergik reaksiyaning ikkinchi, ya'ni ximergik - patokimeviy boskichi boshlanadi. Immun birikma bulmish allergen-antitana tukima va qon zardobi tarkibida fermentlarning aktivligini pasaytirib yuboradi. Allergen- antitananing bushashuvi natijasida proteolitik va lipolitik fermentlarning aktivligi oshib natijada tukimalarda gistamin, atsetilxolin, geparin, sekin reaksiya beruvchi substansiyalar (anafilaksii SRS - A), vazoaktiv kininlar(bradikinin, kallidin) ajralib chiqadi.

Odamda sodir bo'ladigan anafilaktik shokda yuqorida nomi qayd kilingan fermentlar aktivligi oshishi tufayli yashin tezligida tukimalardan juda katta mikdorida gistamin ajraladi.

Anafilaktik shokning rivojlanish jaraenida Ko'plab gistamin ajralishi bilan bir katorda allergen markaziy nerv xosilalari (miyaning pustlok kismi va pustlok ostidagi kismini va b.),vegetativ nerv sistemasi funksiyasini kattik pasaytiradi.

Xozirgi vaqtda anafilaktik shokda kelib chiqadigan jaraenlarni fakat gistamin Ko'plab ishlab chiqishi, ya'ni gistaminorezis xamda gistaminergiya bilangina izoxlash noto'gri bulur edi.

Immun kompleks allergen - antitana birikishi okibatida tukimalardan fakat gistamingina emas, balki atsetilxolin, geparin, serotoninlar xam ajraladi.

Tekshirishlar shuni kursatadiki, anafilaktik shokda atsetilxolin eng avvalo miya suko'pligi - likvorda paydo bo'ladi Anafilaktik reaksiyada atsetilxolin ta'sirida ikkilamchi gistamin ajralishi sodir bo'ladi.

A.D.Adoning (1970) fikricha, biologik aktiv modda - serotoninning anafilaktik shokda deyarli ishtiroki ko'p.

SJBS - A| moddasi anafilaktik shokda bronx sillik mushaklarining kickarishida muxim urin tutadi.Uning siklik nukleotidlardan AMFga xam ta'siri bor.

Anafilaktik xolatda allergen - antitana kompleksi turli kinazalar, plaminogen-plazmin, kallikreinogen-kallikrein va boshkalarining funksiyasini oshirib yuboradi.

Keyingi vaqtlarda anafilaktik shokning rivojlanishida kininlarning axamiyati urganib chiqildi. Kininlarning ok qon tanachalari diapenezini, qon okimi tezligini kapillyar qon tomirlar

uzgaruvchanligini oshirib yuborishi, shuningdek qon tomirini pasaytirishda, qon tomirlar bushligini kengaytirishda ishtirok etishi aniqlangan.

SHunday qilib, anafilaktik shokda gistamin va boshqa biologik moddalarning ta'siri natijasida qon tomirlar uz tarangligini (tonusini) ko'potadi okibatda periferik qon tomirlar qarshiligining keskin pasayishi tufayli qon bosimi pasayib ketadi. Qon tomirlar tonusining pasayishi periferik qon tomirlarga xamda vena qon aylanish doirasiga ta'luklidir. Kapillyarlarda va vena qon aylanish doirasida qonning dimlanishi, qon aylanish doiralarda qon mikdorini keskin kamayib ketishiga olib keladi.

YUrakning zarb xajmi xam kamayadi. Keyingi yillarda o'tkaziladigan tekshirishlar yurak mushaklari qisqarish kobilyatining to'gridan - to'gri buzilishi, yurakda ortib boraetgan qon xajmining kamayishiga olib kelishini isbotlab berdi. SHuning uchun xam yurak ish unumdorligining pasayishi qon bosimining yanada tushib ketishiga sabab bo'ladi.

Kasallikning belgilari.

Anafilaktik shok yurak qon aylanish doiralarning o'tkir buzilishi okibatida quyidagi belgilar bilan namoen bo'ladi:

- teri rangining okish kukimtir eki marmarsimon rangga Kirishi, sovuq ter bosishi.
- tirnok osti satxida qon okishining xaddan tashkari sekinlashuvi,
- xalovatsizlik, es xushning xiralashuvi - dispnoe,
- sindik mikdorining kamayishi, ya'ni kam siyish- oliguriya.
- Tomir urishining tezlashuvi - taxikardiya,
- Qon bosimining pasayib ketishi kabi xolatlar ana shular jumlasidandir. SHokning (belgilari mayda (kapilyar) qon tomirlarga qon kelishining kamayishidan boshlanadi. SHuning uchun xam teri sovuq, nam va kukimtir okish tusga ega bo'ladi: bosh miyaga qon kelishining kamayishi avvaliga bemorda bezovtalik belgilarini keltirib chiqarsa, keyinchalik es xushning xiralashib, ko'polishiga olib keladi. -Nafas a'zosi bulmish o'pka ga qon kelishining kamayishi uz navbatida nafas kisishiga olib kelsa, ajralib chiqaetgan siydik mikdorining kamayishi - buyrak doirasida qon aylanishining kamayishi okibatidir.

Anafilaktik shok - shifokorlar fikricha, allergik xolatning eng kurkinligi kurinishi xisoblanadi.

Kasallikning ikki xil kurinishi bulib, ularni belgilari jixatidan juda tez utadigan xamda sekinrok rivojlanadigan turlarga bulish mumkin.

Tez, yashin tezligida utadigan anafilaktik shokda kasallikning belgilari xaddan tashkari tez boshlanib, rivojlanadi va bir necha daqiqa davomida ulim b t n tugaydi. Bemorga oldiniga xolsizlik, tush orkasida ogrik, kungil aynishi, ulim talvasasi paydo bulib, tezda xushini ko'potadi. Bularning xammasi shunchalik tez sodir bulishi, bemor Qanday qilib xushini ko'potganligini aytib ulguradi, xolos. Bu xolda bemorlardan sovuq ter chiqadi, rangi buzarib ketadi, ayniksa yuz kurinishi aloxida tusga kirib, bir necha daqiqa ichida uzgarib ketadi. Tomir urishi ipsimon, kuchsiz va yuzaki yoki bilinar-bilinmas bo'ladi.

Kuchsiz eki yuzaki urishi shark tibbietida «vey» deb ataladi, tomirni kattikrok bosib kurish bilan aniqlanadi. Bunday puls - vey - odam tanasining kuvati nixoyatda pasayganda sodir bulib, kattik kungil aynishi, terlash alomatlari bilan kechadi va kasallikning nixoyat darajada xavfliligidan darak beradi. Agar anafilaktik shok xalkum shishi bilan sodir bo'lsa, stridor tusiga kiradi. Bunda bemorning oz terisi kukargan bulib, buyin venalari burtib chiqadi va yakkol kuzga tashlanadi. Ko'pincha bemorda klonik tortishuv alomatlari sodir bulib, u siydigini va ichini tutolmaydi. Ayrim xollarda tabiiy a'zolarining teshiklaridan (ogiz, kulok, anus, jinsiy a'zoldan) qon ketish alomati xam kuzatiladi. Anafilaktik shokning sekinrok utadigan turida kasallikning shiddatli

boshlanishi kuzatilmaydi: bemor tanasida issiklik belgisi, kulok shangillashi, xolsizlik, tomokda kichishish alomatlari, kuz shillik pardasida yalliglanish, esh okishi, kuruk kattik chiyillash alomati bilan yutal butun organizm buylab kichishish sezgisi, Qorinda tutib-tutib bo'ladigan kattik ogrik, ich kelishi Xozirgi zamon davolash usullari xam bunday shokda yordam bera olmaydi. Ba'zi bir xollarda ulim Xikildoqda paydo bo'ladigan shishdan bo'ladi. Ko'pchilik xollarda shokka qarshi qo'llaniladigan dori-darmonlar uz vakgida ishlatilganda bemor asta-sekin uz xoliga kela boshlaydi, qon bosimi kutarilada va tomir urishi joyiga tusha boshlaydi.

SHuni xak eslatib utish kerakki, bemorda birorta antibiotikka sezgirlik oshib ketgan bo'lsa usha antibiotik ishlatilgan soxada uning xidiga xam shok belgilari yuzaga kelib, xatto kasallik yana takrorlanishi mumkin. Tibbiy adabiyotlarda bir bemorda anafilaktik shokning bir necha marta takrorlanganligi xakida dalillar bor. Anafilaktik shokda yurak toj qon tomirlarida etishmovchilik belgilaripaydo bulib, bu xol yurak mushaklarining xam zararlanishiga (anafilaktik shokdan kelib chiqadigan miokardit) olib kelishi mumkin.

Dori-darmonlarga anafilaktik shok paydo bulgan bemorlarga xar Qanday dorini kabul qilishda extiyotQorlik takozo kilinadi.

Anafilaktik shokning bir necha klinik turlari mavjud.

Gemodinamik turi - bunda yurak qon - tomir tizimidagi buzilishlar boshkalaridan ustunlik kiladi: yurak soxasida og'riqlar, qon bosiminin pasayishi, terida mikrotsirkulyasiyaning buzilishi (bemor rangi okarib eki kizar b ketishi), aritmiya kuzatiladi. U ko'pincha ishemik kasalliklari eki miokard infarkti bilan kushilib kelishi mumkin.

Serebral turi - Bu xollarda MNS buzilishi bilan bog'liq uzgarishlar kuzatiladi. Bemorlarda ulimdan kurkish xissi, talvasa, nafas olish va qisqarishdagi buzilishlar miya shishi belgilari qayd etiladi. SHokning keyinchalik rivojlanishi okibatida nafas va yurak faoliyati tuxtab kolishi, meningial belgilar va xushini ko'potish xolatlar yuz berishi mumkin.

Asfiktik (bugilish turi) - Bemorlarda xikkildok, o'pka shishi va ronxospazm paydo bo'ladi.

Abdominal turi - bunda kungil aynishi, qayd qilish, Oshqozon soxada og'riqlar bulib, ko'pincha o'tkir Qorin belgilari elgondan namoen bulishi mumkin, ba'zan ichak titilishi, axlat bilan qon kelishi xam kuzatiladi. Aellarda tuxumdon va bachadon soxalarida ogrik bulishi mumkin.

Anafilaktik shok kechishiga kura yashin tezlikda kechadigan, kaytalanadigan va abortiv (xamma belgilarsiz, tez tugaydigan).

YAshin tezlikda kechadigan turlarida xaet uchun muxim azolarning zararlanishi bilan bog'liq bulgan ulim xollari odatda shokning birinchi daqiqa larida va soatlarida yuz beradi.

Abortiv shokning klinik belgilarida birdaniga tuzatish bo'ladi va klinik sogayish yuzaga keladi Kaytalanuvchi kechishda esa klinik sogayishdan 1 necha soatdan keyin shok YAna ogir kechishda kaytalanishi mumkin.

Anafilaktik shokning kechish ogirligiga karab 3 boskichga bulinadi

1. engil boskich - 2 minutdan 2 soatgacha davom etadi. Bunda teri kizarishi, tomok kurishi, burun okishi, bosh aylanishi, bosh ogrigi, qon bosimi kutarilishi, taxikardiya, xolsizlik kuzatiladi.

2. xolsizlik, kurishning buzilishi, kuzgalish xolati, ulimdan kurkish, terining okarishi, sovuq ter chiqishi, eshitish pasayishi, kulok shangillashi, Oshqozon -ichak, nafas, buyraklar tomondan buzilishlar bilan namoen bo'ladi.

3. ogir boskichi. - kollaps (rang okarib ketishi), sianoz, ipsimon puls qon bosimi pasayishi, xushdan ketish, koma xolati, Qorachiqlar kengayishi, yurak va nafas faoliyatlarining tuxtashi bilan namoen bulishi mumkin.

Kvinke shishi.

Derma va teri osti klechatkasining aniq lokalizatsiyalangan shishi, okish, zich infiltratning nomi Kvinke shishi deb aytiladi. Kvinke shishida zararlanish uchogi ko'pincha govak klechatka joylarida uchraydi. SHishlar shillik kavatlarda xam joylashishi mumkin. Labda, kovokda, ogiz bushligi shillik kavatlarida ko'proq uchraydi. Ayniksa Xikildoqda joylashgan Kvinke shishi xavfli xisoblaniladi.

Patogenezi

Allergik reaksiya reagen tipda kechadi, allergenlar tushgach organizm tomonidan antigen sifatida kabul kilinib unga qarshi antitelolar ishlab chiqariladi. Antigen antitelo kompleksi bulutsimon xujayralarda va bazofillarda fiksatsiyalanadi va ulardan bir kancha mediatorlar (serotonin, brondikinin, gistamin) ajralib chiqishiga sabab bo'ladi, natijada allergik reaksiya kelib chiqadi.

Klinikasi:

Katta, okish, kattik kichimaydigan infiltrat bosganda chukurcha xosil kilmaydi. Agar shish Xikildoqda joylashsa avval ovoz xirrilashi, akkillovchi yutal insperator nafas kiyinligi, shovkinli stredaroz xarakterdagi nafas eshitiladi, keyinchalik yuzda sionoz kelib chiqib vaqt utgach yuz okaradi. Bemorlar bezovta bo'ladi, agar jaraen traxeobronxial daraxt shillik kavatida bo'lsa bronxial astma sindromi qo'shiladi. Ogir xolatlarda ratsional yordam berilmaganda bemorlar asfiksiyadan ulishi mumkin. Engil urtacha ogirlikdagi shish bir soatdan bir sutkagacha o'tkir davr tugagach bir necha vaqt davomida ovoz bugilishi, tomokda ogrik nafasning kiyinlashuvi auskultatsiyada kuruk va xul xirrilashlar saklanib turadi. Xikildoq soxasidagi shish kechiqtirib bulmas intensiv terapiyani takazo kiladi. Ogir xolatlarda traxeostamiyagacha borishi mumkin.

1.2. Amaliy mashg'ulot materiallari

1-mavzu. Nafas funksiyasi va tashxis. Qo'shimcha tekshiruv usullari.

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
<p>Amaliy mashgulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Nafas funksiyasi 2. Tashqi nafas faoliyati buzilishining umumiy sabablari 3. Tashqi nafas olish sistemasi ishining ko'rsatkichlari. 4.Instrumental tekshirish 5.Laborator tekshirish usullari 	<p>Amaliy mashgulotning kisqacha annotatsiyasi</p> <p>Nafas sistemasining kasalliklari ko'p tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi. Nafas olish — bu kislorodning organizmga tushishi, uning biologik oksidlanish jarayonlarida ishlatilishi va organizmdan SO₂ chiqarishni ta'minlaydigan jarayonlar haqida ma'lumotlarni etkazish va b usullarni amalda kullay bilish</p>
<p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> <p>Allergologiyada tekshirish usullari bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish</p>	<p>Maqsadi yoritiladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nafas sistemasinitalabalarga tushuntirib berish 2. Tashqi nafas. 3. Allegologik sinash usullari texnikasi, moxiyati 3.Instrumental tekshirish usullari 4.Laborator tekshirish usullari tushuntiriladi
Ta'lim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy

Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa	1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (20 daqiqa)	1. Talabalarni kichiq guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. “SWOT-tahlil” usuli Muammoning asosiy to'rt jihatni yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, xal qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi jixati taxlil qilinadi: S -kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish) W - kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish) O - imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash) T - tahdidnu o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash	Kichiq guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3-klinik mashg'ulot(40 daqiqa)	<i>Allergologiyada tekshirish usullarni bajarish texnikasi</i>	Talaba mustaqil bajaradi
4-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80 daqiqa , 2 soat		

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

SHu mavzuni o'qitishda talabalarning normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, farmakologiya bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

1-mavzu. Nafas funksiyasi va tashxis. Qo'shimcha tekshiruv usullari

Mavzu bayoni

Nafas sistemasining kasalliklari ko'p tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi.

Nafas olish — bu kislorodning organizmga tushishi, uning biologik oksidlanish jarayonlarida ishlatilishi va organizmdan SO_2 chiqarishni ta'minlaydigan jarayonlar yig'indisidir. Bunda quyidagilar farq qilinadi:

-tashqi (o'pka) nafas olish, bu havo va qon o'rtasida gazlar almashinuvini ta'minlaydi;

-ichki (to'qima) nafas olish, bu to'qimalarda gazlar almashinuvini ta'minlaydi;

-gazlarni tashuvchi sistema (qon va qon aylanish sistemalari), bu o'pka va to'qimalar o'rtasida gazlarni tashiydi.

Demak, to'qimalarni starli O_2 bilan ta'minlash va organizmdan SO_2 ni chiqarish har xil yo'llar bilan amalga oshiriladi. Nafas olish funksional zvenosining u yoki bu zvenosi buzilsa, har xil kompensator mexanizmlar ishga tushib, natijada faoliyat kerakli darajada sakdanadi.

Tashqi nafas olish bir-biriga har tomonlama bog'liq hamda boshqarilishda bir-biriga qaram bo'lgan quyidagi asosiy jarayonlarni, ya'ni:

-alveolyar ventilyasiyani;

-alveolalar-kapilyarlar membranasi orqali molekulyar O_2 va SO_2 ning diffuziyasini;

-o'pka kapilyarlari orqali qon o'tishi - perfuziyasini o'z ichiga oladi.

Nafas olish uzunchoq miyada joylashgan dorzal va ventral yadrolar hamda Varoliy ko'prigining old qismida joylashgan pnevmotoksik yadrolar, ya'ni nafas olish markazlari hisoblanmish tuzilmalar orqali boshqariladi. Bu markaz faoliyati avvalo SO_2 va O_2 qonientsiyasi, tomirlar ichki bosimi, bosh miya qobig'ining holati, o'pka va nafas ining harakatchanligi va boshqalarga bevosita bog'liqdir.

Tashqi nafas biologik-fiziologik nuqtai nazardan ikki yo'l bilan boshqariladi.

1.O'zgarish yoki (qayta bog'lanish) prinsipi bo'yicha.

Bunda qondagi gazlar normal bosimining o'zgarishi xemoretseptorlarni qo'zg'atadi, nafas markaziga impulslar keladi va ular qayta ishlanib, tegishli efferent impulslarning nafas iga kelishi natijasida alveolyar ventilyasiya o'zgaradi.

2.«G'azablanish», «qo'zg'alish», ya'ni his-hayajon prinsipi bo'yicha. Bu esa qonda gazlar tarkibining o'zgarishiga bog'liq emas. Masalan, jismoniy mehnatni boshlashdan oldin nafas olish tezlashadi, chunki bundan harakat markazlari va markaziy nerv sistemasining faollashuvi natijasida impulslar nafas markazini ham qo'zg'atadi. Ular, asosan, ro'y beradigan o'zgarishlarning oddini olishga yo'nalgandir. Bu har ikki yo'l bir-birini to'ldirib, organizmga kerakli miqdorda O_2 ni etkazib berishga qaratilgandir.

Tashqi nafas faoliyati buzilishining umumiy sabablari:

1.O'pkadan tashqari sabablar: nafas markazi faoliyatining buzilishi (narkotik moddalar ta'siri, travmalar, qon quyilishi, meningit va eniefalitlar); nafas i inneriatsiyasining buzilishi va shikastlanishi (ko'rarening ta'siri, nevrit, miozit, orqa miyaning shikastlanishi); plevrit,

pnevmo- va gidrotoraks); yuqori nafas yo'llarining patologiyasi (o'smalar, yot tanachalar tushishi, rinit, difteriya).

2.O'pka to'qimasi shikastlanishi bilan bog'liq sabablar: pastki nafas yo'llari patologiyasi; pnevmoniya, bronxial astma, yot tanachalar; nafas maydonining kamayishi (atelektaz, emfizema, pnevoskleroz).

Tashqi nafas olish sistemasi ishining ko'rsatkichlari.

I. O'pkaning hajmlari:

1. O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS) - bu maksimal nafas olgandan keyin o'pkadan chiqarilish mumkin bo'lgan eng ko'p havo miqdoridir. Uning tarkibiy qismlari:

- nafas olishning rezerv hajmi (NORH) - ya'ni oddiy nafas olgandan keyin olinishi mumkin bo'lgan maksimal havo miqdori, O'TXni 40-45% tashqil qiladi;

-nafas chiqarishning rezerv hajmi (NCHRH) - ya'ni oddiy nafas chiqargandan so'ng o'pkadan maksimal chiqarilishi mumkin bo'lgan havo miqdori, O'TX ning 40-45% ni tashqil qiladi;

-nafas hajmi (NH) - ya'ni oddiy nafas olganda olinadigan yoki chiqariladigan havo miqdori, O'TXning 10—15% ini tashqil qiladi. O'TS 80%dan kam bo'lsa pasaygan deb qisoblanadi.

2. O'pkaning qoldiq xajmi (QH) - bu maksimal nafas chiqargandan keyin o'pkada qoladigan havo miqdori, bu o'pka umumiy hajmining 25% ini tashqil qiladi.

3.O'pkaning umumiy hajmi (O'UH) - bu maksimal chuqur nafas olganda o'pkadagi gazlarning miqdoridir, ya'ni O'TX va QH lar yig'indisi.

4. Nafas olish hajmi (NOH) — bu tinch holatda nafas chiqargandan keyin olinishi mumkin bo'lgan gazlarning maksimal hajmi, ya'ni NORH va NH ning yig'indisi.

5. Funksional qoldiq hajm (FQH) - bu tinch holatda nafas chiqargandan keyin o'pkada qoladigan gazlarning hajmi, ya'ni NCHRH va KHning yig'indisi. FQHtinch nafas olganda aktiv ventilyasiyada qatnashmaydi. Bu hajm o'ziga xos «buferlik» rolini o'ynab yuqori nafas yo'llari va alveolalar o'rtasida SO₂ va O₂ lar bosimining to'satdan o'zgarishiga qo'ymaydi.

O'TX tashqi nafas olish apparatining funksional imqoniyatlarini ifodalaydi. Uning kamayishi o'pka to'qimasining kamayishiga, ko'krak Qafasining kengayishini hamda diafragma harakatining chegaralanishi hamda o'pkaning plevritlarda suyuqlik yig'ilganda kengaya olmasligi holatlarida kuzatiladi.

QH va FQHlarning ko'payishi emfizema, nafas yo'llarining torayishi, ko'krak qafasining deformatsiyasi va boshqalarda kuzatiladi. O'UXning kamayishi diffuz fibrozda, o'pkada qon dimlanganda, pnevmotoraks va boshqalarda kuzatiladi.

II. O'pka ventilyasiyasi.

Nafasning minutlik hajmi (NMH) — bu bir minutda olinadigan havo miqdori. Normada 4—11l/min.

1.Nafas olish soni (NS) — bu bir minutdagi nafas sikllarining soni. Normada bir minutda 12—38 marta.

2.Alveolyar ventilyasiya (AV) 1 mino'tda tushadigan havo miqdori. U NMH dan kam bo'ladi, chunki bir qism havo nafas yo'llarida ushlab qolinadi.

III. Nafas mexanikasining ko'rsatkichlari.

1. O'pkaning nafas ventilyasiyasi (O'NV) – bu bir minut davomida o'pkada ventilyasiya bo'ladigan eng ko'p havo miqdori. U nafas apparati rezervini xarakterlaydi. Uning kamayishi nafas etishmovchiligining birinchi belgilaridan hisoblanadi.

2. O'pkaning jadallashgan tiriklik xajmi (O'JTH) — bu maksimal nafas olib bir sekund davomida kuchli nafas chiqargandagi eng ko'p havo hajmi. O'JTX/O'TH nisbati Tiffno sinamasi deyiladi.

3. Pnevmatometriya. U O'TH va Tiffno sinamasi bilan bir qatorda bronxlar o'tkazuvchanligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar bronxial astmada, astmoid bronxitda, reaktiv bronxospazmda va boshqalarda pasayadi.

4. Nafas rezervining koeffitsienti $NRK = O'MV/NMH$. Normada 8 dan yuqori. Tashqi nafas olishning buzilishidan nafas etishmovchiligi kelib chiqadi. Bu atama 1854 yilda Vintrax tomonidan kiritilgan.

Nafas etishmovchiligi bu organizmning shunday holatiki, bunda qondagi gazlar tarkibi nafasini ta'minlay olmaydi, yoki bunday ta'minlanish tashqi nafas olish apparatining zo'riqishi hisobiga bo'ladi, natijada organizmning funksional imqoniyatlari pasayadi.

Nafas etishmovchiligi rivojlanish mexanizmiga ko'ra quyidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Alveolyar ventilyasiya buzilishi.
2. O'pkada qon aylanishi (perfuziya) buzilishi.
3. O'pkada gazlar diffuziyasi buzilishi.
4. O'pkada umumiy va regional ventilyasiya-perfuziya munosabatlarining buzilishi.

1. Alveolyar ventilyasiyaning buzilishi bilan bog'liq nafas etishmovchiligi. Alveolyar ventilyasiya bir minutda 4—5 l ga to'g'ri keladi. Ma'lumki, alveolyar ventilyasiyada bir-biri bilan bog'liq MNS, periferik nervlar, yuqori nafas yo'llari, ko'krak qafasi va o'pka qatnashadi. Alveolyar ventilyasiyaning buzilishi giper- va gipoventilyasiya shaklida bo'ladi.

Alveolyar gipoventilyasiya — bu tashqi nafas olishning tipga oid shakli bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ida organizmning gazlar almashinuviga talabini alveolalar mino'tlik hajmi tomonidan ta'minlanmasligidir.

Bu holat asosiy mexanizmlar nafas biomexanikasining buzilishi va tashqi nafas sistemasining idora qilinishi buzilishi hisobiga bo'lishi mumkin.

Nafas biomexanikasining buzilishi. Nafas biomexanikasi plevra bo'shlig'idagi, alveola va havo yo'llaridagi bosimni, traxeya va bronxlar o'tkazuvchanligini va havo yo'nalishiga o'pkadagi qarshilikni, o'pka to'qimasi elastikligini, ko'krak qafasi, qorin bo'shlig'i va nafas muskullari tomonidan ko'rsatiladigan qarshilikni xarakterlaydi.

Nafas biomexanikasining buzilishiga va alveolyar gipoventilyasiyaga olib keluvchi patologiyalar: nafas yo'llari va o'pka to'qimasidagi shish va yallig'lanishlar, alveolalararo to'siqning destruksiyasi yoki qalinlashishi, bronxlar silliq i spazmi. SHunga qarab, gipoventilyasiya obstruktiv va restriktiv turlarga bo'linadi.

Nafas etishmovchiligining obstruktiv (lotincha obstructio - to'siq) turi havo yo'llarining (yuqori va pastki) torayishi natijasida havo harakatiga qarshilikning oshishi bilan xarakterlanadi.

Bu turning patogenttik asosida havo oqimiga rezistiv (noelastik) qarshilikning ortishi yotadi. Natijada nafas siklining vaqt-hajm parametrlari o'zgarib, organizm talabiga mos alveolyar ventilyasiyani ta'minlay olmaydi. Nafas muskullariishining ortishi natijasida ventilyasiyaning energetik qiymati oshadi. YUqori nafas yo'llarining torayishi bu erga yot narsalar tushsa, burun, hiqildoq, traxeyalar devori yallig'lanishdan shishsa yoki o'smalar bo'lsa, laringospazmda hamda nafas yo'llari tashqarida ezilsa bo'ladi.

Bundaq hollarda stenotik nafas olish yuzaga kelib, o'pkaning havo bilan to'lishining kechiqishi bilan xarakterlanadi. CHunki Gering-Breyer refleksi kechiqadi.

Pastki nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilishining bosh patogenetik mexanizmlari: bronx- va bronxiolospazm, kichiq bronxlarning elastiklik xususiyatlari yo'qolishi natijasida torayib qolishi, bronxlar devorining shishishi va yallig'lanishi natijasida bronxiolalarning qon, ekssudat va boshqa narsalar bilan obturatsiyasi hamda transpulmonal bosim oshganda (yo'talda) kichiq bronxlarning kompressiyasi bo'lishi mumkin.

Bunday hollarda havoni chiqarishga o'pka va ko'krak devorlarining elastik tortish kuchi etishmagani uchun nafas i ham ishga tushadi. Natijada nafas chiqarish vaqtida plevral bo'shliqda bosim ortishi o'pka ichidagi bosimni oshirib «nafas yo'llarini «ekspirator berkitishga» olib keladi.

Bunday «ekspirator kollaps» yuzaga kelishida transpulmonal bosim, pastki nafas yo'llarining o'tkazuvchanligi va o'pka to'qimasi elastik qarshiligining o'zgarishi qatnashadi.

Bronxlar o'tkazuvchanligining klapan mexanizmi bronxirlarda, bronxo-astmatik hollarda va bronxiolalarning qisman obturatsiyasi va spazmi bilan boradigan o'gja kasallarida ham uchraydi.

Havo yo'llarining yorig'i (prosvet) ko'p tomondan o'pkaning elastikligiga bog'liqdir. Elastiklik pasayganda bronxlarni radial cho'zuvchi kuchlar kamayib kichiq bronxlar yotib qoladi. Natijada nafas chiqarish qiyinlashadi, o'pka havoga to'ladi. Nafas chiqarish muskullari aktivlanadi. Bu esa plevral, keyin esa o'pka ichidagi bosimni oshirib kichiq bronxiolalarni kompressiya qiladi va nafas chiqarishni yana ham qiyinlashtiradi. Bu mexanizm o'pka emfizemasida alveolalarida to'siq destruksiyasi natijasida kelib chiqadi va alveolyar gipoventilyasiyaning obstruktiv tipiga olib keladi.

Obstruksiyaning asosiy klinik va funksional belgilari:

- avval odatdagidek yuklamalar bo'lganda nafas siqilishiga shikoyat qilish;
- yo'tal, ko'pincha (kam miqdorda) balg'am ajralgandan so'ng bir oz vaqt nafas olishning qiyinlashishi seziladi;
- o'pkaning orqa va yon tomonlarida havo ko'p bo'lgani uchun perkutor ovoz timpaniq yoki quticha sado beradi;
- ausqo'l'tatsiyada quruq hushtaksimon xirillashlar eshitiladi (ayniqsa jalal nafas chiqarilganda);
- kechikgan belgilari: nafas chiqarishning cho'zilishi, kafas olishda yordamchi ning qatnashishi, qobirg'alar orasining tortishishi, o'pka pastki chegaralarining tushishi, o'pkaning pastki chegaralari harakatining cheklanishi;

Nafas etishmovchiligining restriktiv (restrictio - chegaralanish, kamayish) turi o'pka yoyilishining chegaralanishidan kelib chiqadi. Bunga ikki xil — o'pkadagi va o'pkadan tashqari omillar olib keladi.

Restriktiv nafas buzilishining patogenetik asosi o'pkaning elastiklik qarshiligining oshishidir. Bu qarshilik o'pkaning cho'ziluvchanligiga bog'liq. CHO'ziluvchanlik deb,

transpulmonal bosim o'zgarish birligiga mos ravishda o'pka hajmining o'zgarishiga aytiladi. Elastik qarshilikni o'ta olish uchun bajarilgan ish nafas hajmiga to'g'ri proporsionaldir.

Restriktiv tipdagi nafas buzilishi pnevmoniyalarda, pnevmofibroзда, atelektaz, o'pka o'smasi va kistalarida bo'ladi. Xlor, tamaki to'tuni, etil spirti, yuqori qonsentratsiyadagi kislorod, ionlovchi radiatsiya, ko'pincha mikroblar va gripp viruslari surfaktant sistemasini (antielastik omil) shikastlab, restriktiv nafas etishmovchiligiga olib keladi.

O'pkadan tashqaridagi sabablar: plevraga suyuqlik yig'ilganda, gemo-, pnevmotorakslarda ham o'pka to'qimasi kompressiya bo'lib nafas olganda yoyila olmaydi. Natijada yuzaki nafas olish bo'ladi.

Restriksiyaning klinik va funksional belgilari:

- jismoniy yuklamada nafas siqishi, ko'pincha inspirator tipda;
- chuqur bo'lmagan tezlashgan nafas olish (qisqa tez nafas olish va tez nafas chiqarish — «berkitilgan eshik» fenomeni);
- ko'krak qafasi ekskursiyasining chegaralanishi;
- timpaniq sadoli perko'tor tovushning (kaltalanishi) qisqarishi;
- o'pka pastki qismining yuqoriga ko'chishi;
- o'pka pastki qismi qo'zg'alishining chegaralanishi;
- vezikulyar nafasning susayishi, ho'l xirillashlar paydo bo'lishi;
- bronxlar o'tkazuvchanligi normal bo'lganda o'pkaning barcha hajm va sig'imlarining kamayishi;
- diffuz o'zgarishlar va ventilyasiya — perfuziya munosabatlarining buzilishi.

Nafasni idora etishning buzilishi. Nafas markazining (NM) ritmik aktivligi unga uzuluksiz qo'zg'atuvchi afferent signallar oqimi kelib turganda bo'ladi. NM afferent idora etishning chetga chiqishi quyidagi mexanizmlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- afferent qo'zg'atish defitsiti, masalan, chaqaloqlar asfiksiyasi sindromida, NM narkotik moddalar ta'sir qilganda, Pikvik sindromida;
- afferent qo'zg'atuvchilar ko'l bo'lganda, masalan, stress, isteriyada, qon aylanishi buzilganda, travmalarda, reflektor yo'lbilan qorin pardalari va teriga og'riq ta'sir qilganda. Bu xolatlarda tez va yuzaki nafas olinadi;
- tormozlovchi afferentatsiya ko'p bo'lsa, masalan, burun va halqumning shilliq pardalari kimyoviy yoki mexanik ta'sirlardan kuchli shikastlansa, nafas chiqarish vaqtida reflektor to'xtaydi. Bu Krechmerning tormozlovchi trigeminovagus refleksidir.
- xaotik (betartib)afferentatsiya.

Bu holat NMga va nafas iga har xil afferent ta'sir bo'lganda, ya'ni katta lat eyish va kuyishlarda, visseral shikastlanishda bo'ladi.

Odam tinch turganda nafas olishi ma'lum chastotada, chuqurlikda va ritmda bo'ladi. Uni eupnoe deyiladi. Har xil kasalliklarda NMga reflektor, gumoral va boshqa ta'sirlar natijasida nafasning ritmi, chuqurligi va chastotasi o'zgaradi. Bu o'zgarishlar kompensator reaksiyaning ko'rinishi yoki nafas etishmovchiligining ko'rinishi ham bo'lishi mumkin.

Bradipnoe, kam nafas olish. Buning rivojlanishi NM ga keladigan nerv impulsatsiyasining o'zgarishi yoki nafas neyronlari faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Bradipnoe arterial bosim oshganda (aorta ravog'i va uyqu arteriyasi sinusidagi baroretseptorlardan refleks), giperoksiyada, yuqori nafas yo'llarida havo o'tishiga qarshilik ko'payganda, NMga qobirg'alar orasidagi dan keladigan impulslar kelmasa, yoki Gering-Breyer refleksi

tormozlovchi ta'siri kechiqsa hamda NMga patogen omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib undagi neyronlar quzgaluvchanligini pasaytirganda yuzaga keladi. NM ning ezilishi uzoq va og'ir gipoksiyalarda, narkotik ta'sirlardan, miyada qon aylanishi buzilganda hamda nevroz va isteriya hollarida ham uchraydi.

Polipnoe yoki taxipnoe — tez yuzaki nafas olish. Buning asosida ma'lum ta'sirlar natijasida NM faoliyatining qayta qurilishi yotadi. Bunday holatlar isitmada, isteriyada hamda atelektaz, pnevmoniya va qon dimlanganda ham uchraydi. Itlarda yuqori temperatura ta'sir qilganda bo'ladi. Bundan tashqari, polipnoe nafas olishda qatnashuvchi qismlarda og'riq bo'lganda ham uchraydi.

Giperpnoe — chuqur va tez-tez nafas olish. Odatda bu jismoniy ish qilganda uchrab, odam talabini qondirishga qaratilgan. Buning rivojlanish mexanizmi quyidagicha. Muskul va bo'g'inlardan kelgan impulsatsiya uzunchoq miyaning to'r sistemasini aktivlashtiradi. Natijada nafas olish markazining qozgaluvchanligi ortadi. Bu vaqtda oddiy kuchdagi reflektor va gumoral stimullar bu markazda neyronlarning kuchli razryadini hosil qiladi.

Kuchli emotsional holatda sovuq yoki issiq suvlarga tushgandagi (teri retseptorlaridan refleks) giperpnoeda ham shu mexanizm yotadi. Lekin bunday hollarda gipokapniya natijasida bosh aylanishi, hushdan ketish holatlari bo'lishi mumkin, chunki SO₂ NM stimulyatori bo'lishi bilan birga bosh miya tomirlarini kengaytiradi va venalar tonusini ham oshiradi. Bu vaqtda yuzaga keladigan alkaloz nerv-muskul qozgaluvchanligini oshirib tetaniyaga ham olib keladi.

NM nning yuqori darajada qozg'olishi Kussmaul nafas olishi ko'rinishida bo'ladi. U ko'pincha diabetik koma holatida bo'lib, shovqinli tez nafas olish - chuqur nafas olgandan keyin kuchli nafas chiqarish bilan xarakterlanadi.

Apnoe — nafasning vaqtinchalik to'xtashi. NM rag'batlanishining pasayishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, passiv giperventilyasiyada (SO₂ ning qonda kamayishi), arterial bosim tez ko'tarilganda (baroretseptorlardan refleks).

Yo'tal va aksirish. Bular reflektor akt bo'lib, yuqori nafas yo'llaridagi retseptor zonalarning qitiqlanishidan kelib chiqib, nafas ritmi va chuqurligining qisqa muddatli o'zgarishi bilan boradi. Yo'tal halqum, yutqun, traxeya va bronxlar shilliq pardalaridagi til-halqum va adashgan nerv oxirlari qitiqlanishidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, plevraning sezgir oxirlarinint qitiqlanishidan ham kelib chiqadi. Yo'talda qisqa nafas olgandan keyin ovoz yoriqlari tezda berqiladi va shu vaqtda nafas muskullari taranglashadi. Natijada nafas yo'llarida, o'pka va plevra bo'shliklarida bosim ortadi. Keyin ovoz yoriqlari birdan ochilib, havo katta kuch va tezlik bilan nafas yo'llaridan chiqib o'zi bilan yo'ldagi narsalarni olib chiqadi.

Aksirish burun bo'shlig'i shilliq pardalaridagi uch tarmoq nerv oxirlari qitiqlanishidan kelib chiqib, yo'taldan farqi ovoz yorig'i ochilganda havoni og'iz bo'shlig'i orqali emas, balki burun orqali chiqishi bilan tavsiflanadi.

Davriy nafas olish nafas olish ritmining buzilishi natijasida nafas olishning apnoe bilan almashib turishi bilan xarakterlanadi. Uni ikkita turi bor.

CHeyn-Stoks nafas olishi - nafas amplitudasi asta-sekin kattalashib giperpnoega o'tadi, keyin kichiklashib apnoega o'tadi. Bu jarayon yana qaytalanaveradi. SHunga qarab, apnoeda kasalning hushi yomonlashib, ventilyasiya kuchayganda yana tiklanadi. Bunday nafas olish gipoksiyaning belgisi bo'lib, yurak etishmovchiligida, miya va pardalarining kasalligida, uremiyada, morfiy ta'sirida kuzatiladi.

Biot nafas olishida nafas harakatining amplitudasi doimiy bo'lib, birdan to'xtab yana birdan boshlanib ketaveradi. Bularmeningit, ensefalit va boshqa kasallarda uchrab, uzunchoq miyaning shikastlanishi bilan boradi.

Apneystik nafas olish — terminal nafas olish turlaridan biri bo'lib, sekin cho'zilgan nafas olish, nafas olish oxirida nafasning to'xtashi va shiddatli nafas chiqarish bilan xarakterlanadi. Bu nafas markazi pnevmotaksik kompleksining funksional yoki organik shikastlanishidan kelib chiqadi.

Gasping nafas olishi (inglizcha gasping — spazmatik, havo yutish) — terminal nafas olish bo'lib, ayrim-ayrim, kuchi borgan sari kamayib borayotgan xavo yutish bilan boradi. Klinikada og'ir zaharlanishda, miya shikastlarida, qon quyilganda, chuqur gipoksiya va giperkapniyalarda uchraydi.

Hansirash (dispnoe) — bu nafas etishmaganda odamda havo etishmaganini sezib, uni qondirish uchun nafas olishni tezlatish. Havo etishmaganda odam faqat ixtiyorsiz emas, balki ixtiyoriy ravishda nafas i aktivligini oshirib, bu holatdan chiqishga harakat qiladi. SHuning uchun ham odam hushidan ketganda hansirash bo'lmaydi. Sog' odamda hansirash og'ir jismoniy ish qilganda kuzatiladi. Patologiyada dispnoeni quyidagi jarayonlar chaqiradi: o'pkada, qonning yomon oksigenatsiyalanishi, gazlarning qon bilan tashilishining buzilishi, ko'krak qafasi va diafragma harakati qiyinlashishi, atsidoz, moddalar almashinuvining kuchayishi, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi.

Har xil patologik jarayonlarda xansirashning etiologiyasi va patogenezini etarlicha o'rganilmagan. Hansirash nafas markazining ta'sirotlarga sezuvchanligi oshganda yoki nafas olishni qo'zg'atuvchi omillar ustun kelganda bo'ladi. Bularning eng muhimlari:

- nafas olish markazini rag'batlantiruvchi retseptorlarning qo'zg'alishi, masalan, alveolalar hajmi ancha kamayganda. Patologiyada o'pkada qon dimlanganda bu retseptorlardan doimiy impulsatsiya keladi. Qonga to'lgan tomirlar alveolalarni sikadi. Alveolalar etarlicha cho'zilmaganligi uchun Gering-Breyer refleksiniig tormozlovchi effekti kam bo'ladi.

- o'pka interstitsial to'qimasidan S-retseptorlarning qo'zg'alishi. Bu retseptorlar alveolalar devorida interstitsial suyuqliklar hajmi oshganda qo'zg'aladi. Bu esa nafas markazini quzgatadi.

- nafas yo'llaridagi reflekslar, yo'tal, aksirishga olib keluvchi sabablar.

- aorta va uyqu arteriyasidagi baroretseptorlardan bo'ladigan reflekslar. Bu reflekslar qon yo'qotilganda, shok, kollaps holatlarida qo'shiladi. Bosim pasayganda NM ga tormozlovchi ta'sir qiluvchi impulslar kelishi kamayadi.

- aorta va uyqu arteriyasi sohasidagi xemoretseptorlardan bo'ladigan reflekslar. O₂ parsial bosimining kamayishi, SO₂ning ko'payishi, yoki N⁺ ko'payishi bu retseptorlarni qo'zg'atadi. Natijada nafas olish markazi qo'zg'aladi.

- NM neyronlarining to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirilishi (SO₂ bilan).

- nafas idan bo'ladigan reflekslar. Bu nafas muskullari haddan tashqari cho'zilganda sodir bo'ladi. Masalan, og'ir jismoniy ish qilganda, o'pka elastikyaigi kamayganda, yuqori nafas yo'llari torayganda bo'ladi.

- modda almashinuvini mahsulotlari tomonidan NM ning stimullanishi. Demak, har bir alohida hollarda hansirash patogenezini murakkab bo'lib, ko'p mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Hansirashda nafas olish ham, nafas chiqarish ham kuchayadi. Lekin ayrim hollarda nafas olish ustunroq kelsa uni inspirator (markaziy nerv sistemasining umumiy qo'zg'olishida, qon aylanishi etishmaydigai kasallarga yuklama berilganda, pnevmotoraksda), agar nafas chiqarish

ustunroq bo'lsa — ekspirator (bronxial astma, emfizema, ya'ni nafas chiqarishda pastki nafas yo'llarida havo oqimiga qarshilik ortganda) hansirash deyiladi.

Alveolalar giperventilyasiya natijasida organizm talabidan ortiqcha miqdorda SO_2 chiqib ketib, gipokapniya va o'pkadan ketayotgan qonda qisman O_2 parsial bosimini oshishi bilan xarakterlanadi.

Alveolyar giperventilyasiyaning passiv turi nazoratsiz sun'iy nafas oldirilganda bo'ladi.

Aktiv neyrogen giperventilyasiya nafas markazining kuchli afferent stimullanishidan bo'ladi (psixogen — isteriyada, serebral — travmalar, o'smalar, refleksogen — og'riq, harorat, baroretseptorlar qitiqlanganda).

Giperventilyaiiyada respirator alkalozni kompensatsiya qilish natijasida elektrolitlar almashinuvi buziladi.

Gipokapniya natijasida miya toj tomirlariga qonning kelishi kamayadi va bu funksional o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

3. O'pkada qon aylanishining buzilishidai kelib chiquvchi nafas etishmovchiligi. Normada tinch holatda o'pka kapillyari orqadi 1 minutda o'rtacha 5 l qon oqib o'tadi (perfuziya), bu yuraknash mino'tlik xajmiga tengdir. Har 1 l qonga alveolalar havodan 50 ml O_2 , qondan alveolalarga 45 ml SO_2 o'tadi.

O'pkada qonning perfuziyasi kamayishi yurakning o'ng va chap qorinchalari qisqaruvchanligi susayganda, tug'ma va orttirilgan yurak poroklarida, tomirlar etishmovchiligida (shok, kollaps) hamda o'pka arteriyasi emboliyasida bo'ladi.

Bunday hollarda o'pkada qon aylanishi kamayishi natijasida alveolada ventilyasiya nisbati yuqori kelib, o'pkada oqib ketayotgan qon O_2 ga yaxshi to'yinishi bilan birga gipokapniya bo'ladi. Ammo yurakning minutlik hajmi kamligi uchun lec qon aylanishi doirasida gipoksemiya va giperkapniya bo'ladi.

Alveolyar ventilyasiyaga monand holda o'pkada qonning oqishini quyidagi omillar ta'minlaydi:

1. Sirkulyasiyadagi qonning hajmi.
2. Yurak o'ng va chap qorinchalarining effektiv ishlashi.
3. O'pka tomirlarining qarshiligi. Bu esa havo va qon tarkibi hamda har xil BAM tomonidan baro- va xemoretseptorlar orqali boshqariladi.
4. Alveolalar ichidagi havo tarkibi.
5. Gravitatsiya ta'siri.

Bu omillarning har biri yoki birgalikda o'pkada perfuziyaning buzilishiga olib kelishi mumkin. O'pkada qon aylanishi va ventilyasiya munosabatlarining buzilishiga ko'pincha kichiq qon aylanish doirasida gipo- va gipertenziya holatlari bo'lganda yuzaga keladi.

O'pka gipertenziasining 2 ta formasi bor;

1. Prekapillyar formasi — bu o'pka arteriolalari spazmida, obliteratsiya yoki obturatsiyasida uchraydi. O'tkir lectron spazm emotsional zo'riqishda, stress ta'sirlarda hamda o'pka tomirlari retseptorlari lectron ta'smrlanganda bo'ladi. Ayrim hollarda o'pka kichiq tomirining embol bilan qitiklanishi boshqa tomirlarni lectron yo'l bilan spazm qilishi mumkin.

2. O'pkada qon bosimining birdan ko'tarilishi Shvachka-Parin himoya refleksini chaqiradi. Bunda baroretseptorlarning qitiqlanishi natijasida sistemada arterial bosim pasayadi, yurak ritmi sekinlashadi, talokda qon ko'p yig'iladi, skelet ida vazodilyatatsiya bo'ladi. Natijada kichiq qon aylanish doirasiga qon kam keladi va o'pka shishining oldini oladi.

Bu lectr kuchli bo'lganda yurakni to'xtatib qo'yishi ham mumkin. Tog' sharoitida ham kichiq qon aylanish doirasida gipertenziya bo'lishi mumkin.

3. Ventilyasiya va perfuziya munosabatlarining buzilishidan kelib chiqadigan nafas etishmovchiligi. Odam tinch turganda nisbat 0,8—1,0 (o'rtacha 0,86) ga to'g'ri kelib, qonning gazlar tarkibini normal holda ushlab turadi. Agar ventilyasiya nisbati ko'p bo'lsa, gipokapniyaga va kam bo'lsa alveolyar havoda SO₂ parsial bosim oshib O₂ni kamayib gipoksemiya va giperkapniyaga olib keladi.

O'pkaning har bir struktur funksional birligida o'pka ventilyasiyasining qon oqimiga nisbatan mosligi mahalliy autoregulyagor mexanizmlarga bog'likdir. Bularga alveolalardagi gazlar tarkibi buzilganda bo'ladigan vazobronxomotor reaksiyalar kiradi. Ventilyasiya-perfuziya munosabatlarining buzilishi gazlar almashinuvining muhim patofiziologik mexanizmi hisoblanadi.

Ventilyasiya — perfuziyaning pasayishi, lect alvsolyar gipoventilyasiyada uchraydi. Buning sabablari obstruktiv o'zgarishlar, o'pka to'qimasi elastikligining buzilishi, diafragma mushaklarining bir tomonlama falaji, ko'krak qafasining deformatsiyasi va b.q. Bunday hollarda o'sha joylarda alveolalarning minutlik hajmi kamayib, perfuziyaga mos kelmay qoladi. Ventilyasiya — perfuziyaning ma'lum joylarda kattalashishi o'pka arteriyasining spazmida yoki lect tiqilishida va o'pka ichida qonning shuntlanishida namoyon bo'ladi.

4. O'pkada gazlar diffuziyasining buzilishi. Alveolyalararo devorda alveoladagi havo bilan kapillyarlardagi qon o'rtasidagi to'siq quyidagilardan iborat: surfakgant sistemasi I, II, III tipdagi lectron t hujayralarining sitoplazmasi, epiteliyning bazal membranasi, kapillyarlar endoteliysining bazal membranasi (bu ikkita bazal membranali alveolo-kapillyar lectron deyiladi) va kapillyarlar lectron t hujayralarning sitoplazmasi. Epiteliy bazal membranasi va kapillyarlar membranasi o'rtasida retiqo'lyar, lectro, biriktiruvchi to'qima hujayralari (fibroblastlar) bo'ladi.

Aerogematik to'siqni qoplab turuvchi epiteliy bir-biri bilan bog'langan 3 tipdagi hujayralardan tashqil topgan: I tipdagi alveolyasitlar 8—12% ni tashqil qilib, alveolyar sathning 90% ini qoplaydi. P tipdagi alveolyasitlar 12—16% bo'lib, alveolalar yuzasining 7% ini qoplaydi. SH tipdagi alveolyasitlar alveolalar yuzasining qolgan qismini qoplaydi.

Alveodalar atrofidagi hujayralarning 30% dan ortig'I kapillyarlarning endoteliy hujayralariga, 37% interstitsial hujayralarga to'g'ri keladi. Alveolyar makrofaglarZ—19% ni tashqil etadi.

Birinchi tipdagi alveolyasitlar alveolyar yuzaning ko'p qismini qoplab, havo qon to'sig'ini hosil qilishda qatiashadi. Ularning asosiy funksiyasi gaz almashtirish bo'lib, bu vaqtda epiteliy yuzasiga, qon kapillyarlariga suyuqlik ham ajraladi. Bundan tashqari, bu alveolyasitlar alveolalarni tozalashda hamda kapillyarlardan alveolaga o'tuvchi moddalar yo'lida to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi tipdagi alveolotsitlar lectron funksiyani bajaradi. Bular mahsulotining lectron t aktivligi bor, ya'ni moleqo'lalararo kuchni kamaytiradi. Natijada, nafas olish vaqtida alveolalar devorining barqarorligini ta'minlovchi havo-suyuqlik chegarasidagi sirt taranglik kamayadi.

Uchinchi tipdagi alveolyasitlar neyroepitelial hujayralar hisoblanadi. Ular xemorseptorlar deb ham ataladi va lectron t tarkibini analiz qilib turadi hamda undan suyuqlikni so'rib olishda qatnashadi. Bundan tashqari, qisqaruvchanlik funksiyasini ham bajaradi. Bu alveolyasitlar kapillyar tomirlar bilan qontaktida bo'lib o'pkadagi neyro (xemo)-retseptor hisoblanadi.

Demak, ular tomirlar va terminal nafas yoʻllari tonusiga regulyator taʼsir qiladi. Bulardan tashqari, bu hujayralar fagotsitar funksiyani ham bajaradi.

Oʻpkada gazlar diffuziyasining buzilishi quyidagi hollarda boʻladi:

-alveolo-kapillyar membrananing qalinlashishi bilan xarakterlanadigan jarayonlarida gazlar diffuziyasi uchun yoʻl uzunlashadi, membranalarning oʻtkazuvchanligi pasayadi, yaʼni alveola-kapillyar vakuola hosil boʻladi. Bu holatlar oʻpka diffuz shikastlanishida pnevmoniya, pnevmoskleroz, sklerodermiya, emfizema, oʻpka shishlarida boʻladi.

-diffuziya maydonining kamayishi oʻpka rezeksiyasi, sil kaverna absesslarida, atelektazlarda boʻladi.

-qonning alveolyar havo bilan qontakti kamayganda. Alveola kapillyarlari orqali qonning oʻtishi 0,5—0,6 sek dir. Gazlarning diffuziyasi uchun esa 0,2 sek etarlidir.

Diffuziyaning yuqorida keltirilgan hollardagi qiyinlashishi natijasida birinchi navbatda kislorod diffuziyasi buziladi, chunki SO₂ kislorodga nisbatan 20—25 baravar engil diffuziyalanadi. Bu esa giperkapniyasiz gipoksemiyani yuzaga keltiradi.

2-mavzu: Pnevmoniya. Surunkali bronxit.

1.1. Taʼlim berish texnologiyasining modeli.

Mashgʻulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashgʻulot shakli	Amaliy mashgʻulot
<p>Amaliy mashgʻulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <p>1.Pnevmoniya toʻgʻrisida chuqurlashtirilgan bilimlar, tashxislashning tarqalgan yangi usullari (masalan, infeksiyaning ekspress tashxisotining immunoxromatografik xakida maʼlumot.</p>	<p>Amaliy mashgʻulotning kisqacha annotatsiyasi</p> <p>Pnevmoniya – etiologiya patogenezi va morfologik xarakteristikadagi oʻtkir infeksiyon kasallik boʻlib, oʻpka respirator qismlarini oʻchoqli zararlanish, alveola ichi ekssudatsiyaning kuchayishi bilan xarakterlanuvchi, fizik va rentgenologik tekshiruvlarda aniqlanuvchi, shuningdek turli xil darajadagi isitmalash va intoksikatsiyani talabalarga urgatish</p>
<p>Oʻquv mashgʻulotning maqsadi:</p> <p>1 Pnevmoniya –etiologiya patogenezi bilan tanishtirish</p> <p>2. Pnevmoniya va surunkali bronxitlar klinik kechishini davolash usullari xakida maʼlumot berish</p>	<p>Maqsadi yoritiladi.</p> <p>1.Pnevmoniya va surunkali bronxitlar haqida talabalarga tushuntirish</p> <p>2. Pnevmoniya va surunkali bronxitlar klinik kechishini davolash usullari xakida maʼlumot berish</p> <p>3. Pnevmoniya va surunkali bronxitlar xakidagi maʼlumotlar bilan tanishtirish.</p>
Taʼlim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Taʼlim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Taʼlim berish vositalari	Oʻquv qoʻllanma, lection darslik, kompyuter, multimediyalar
Taʼlim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Ogʻzaki nazorat:savol-javob.

1.2. Amaliy mashgʻulotining texnologik kartasi.

Ish osqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa	1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (20 daqiqa)	1. Talabalarni kichiq guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. “ Klaster ” usuli Puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.	Kichiq guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3- klinik mashg'ulot (40 daqiqa)	<i>Allergologik anavnez yig'ish</i>	Takaba mustaqil bajaradi
4-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80 daqiqa , 2 soat		

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Shu mavzuni o'qitishda talabalarning normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, farmakologiya bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

Mavzu bayoni

2-mavzu: Pnevmoniya. Surunkali bronxit.

Pnevmoniya – etiologiya patogenezi va morfologik xarakteristikadagi o'tkir infeksiyon kasallik bo'lib, o'pka respirator qismlarini o'choqli zararlanish, alveola ichi ekssudatsiyaning kuchayishi bilan xarakterlanuvchi, fizik va rentgenologik tekshiruvlarda aniqlanuvchi, shuningdek turli xil darajadagi isitmalash va intoksikatsiya bilan kechuvchi kasallik xisoblanadi. Amaliyotda ahamiyatli va qulay bo'lib pnevmoniyani kasallik rivojlanishidagi sharoitga, o'pka to'qimasining zararlanishi xususiyatiga, shuningdek organizm immunologik reaktivligiga qarab ajratilgan. Pnevmoniyaning etiologik klassifikatsiyasi, ma'lumotning kamligi, mikrobiologik tekshiruvlarni uzoq vaqtda talab qilinishlar, tekshiriluvchi materialni olingandan so'ng 42-72 soatdan so'ng ko'zg'atuvchining aniqlanishi va an'anaviy usulblardan qo'llanilganda xujayra ichi kultura (namuna)sini ajralishini iloji yo'qligi pnevmoniyadan pulmonologik kontinium xavfi oshishi va

etarlicha ma'lumot berilmasligi sababli pnevmoniyaning etiologik klassifikatsiyasi kam ishlatilmoqda. Umuman olganda, antibiotikni 1 chi dozadini 4- 8g yuborilishini kechiqtirishi pnevmoniyadan o'lim kursatkichini o'sishiga olib keladi. Pnevmoniyalarning muammolari ichida amaliyotga zamonaviy klinik tavsiyanomalarni etarlicha kiritilmaganligi, amaliyotchi shifokorlarning etarlicha ma'lumotga ega emasligi, shifokorlarni tavsiyanomalar bilan ishlashni xoxlamaganligi, yoki shifokorlarni tavsiyanomalarning xulosalari bilan rozi bo'lmasliklari katta to'siq bo'lmoqda. Ushbu aytilgan xulosalarni cheklash, "oxirgi nuqtalarni" kamayishiga shifoxonalarga yotkizish sonini, o'lim va dori terapiyasining xavfini kamaytiradi. Pnevmoniya shunisi bilan xavfli o'pkadagi yallig'lanish jarayoni to'xtamaydi, buning kabi xolda o'pka emfizemasi, o'pka interstitsial kasalliklari rivojlanadi, a'zolari normal qon aylanishi buzilishi bilan kechadi. Kasalxonadan tashqari pnevmoniya Maxsus xususiyatga ega va kasalxonadan tashqari sharoitlarda rivojlanadi va o'tkir kasallik xisoblanib (kasalxonadan tashqari yoki gospitalizatsiya bo'lganiga 48 soat bo'lmasdan aniqlangan), nafas yo'llarining pastki qismlarini infeksiyasi simptomlari bilan kechuvchi (isitma, balg'am, yiring, ko'krak qafasida og'riq, xansirash) va rentgenda "yangi" o'choqli infiltrativ o'zgarishlar aniqlanishi bilan kechadi. Og'ir pnevmoniya – nafas etishmovchiligi yoki og'ir sepsis belgilari bilan kechuvchi turli xil etiologiyali kasallikning aloxida shakli (og'ir pnevmoniya = sepsis + o'tkir nafas etishmovchiligi) bo'lib, yomon oqibat va intensiv terapiya o'tkazilishini talab qiluvchi kasallik xisoblanadi. Kasalxona ichi pnevmoniyasi (nazokomial) Kasalxona sharoitida 48 soatdan so'ng yoki shifoxonaga yotkizilgandan ancha vaqt keyin kelib chiqqan o'tkir kasallikdir. Tizimli yallig'lanish sindromi (TYAS) Nospetsifik sindrom bo'lib ko'pincha og'ir pnevmoniyalar fonida rivojlanadi va qon xujayralarining endoteliy va perivaskulyar bo'shliqlarning total yallig'lanishini shakllanishi bilan xarakterlanadi. Epidemiologiya Pnevmoniya bilan yil davomida er sharining 100 dan ortiq axolisi kasallanadilar, qarilar va bolalarda 15-20% ni tashkil etadi. Oxirgi 30 yil davomida kasallikni o'sishi kuchaymoqda va o'lim darajasi o'sib bormoqda. Kasalxona ichi pnevmoniyasi ko'pincha tizimli yallig'lanish sindromi (TES) + o'tkir nafas etishmovchiligidan shok xolatlari bilan kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda pnevmoniyalar bilan kasallanish 3,6% dan 16% gacha to'g'ri keladi, sabablar strukturasi yurak qon tomir sistemasi patologiyasidan, onkologik kasalliklardan, serebrovaskulyar patologiyasidan so'ng 4-5 o'rinda, o'pkaning obstruktiv kasalligidan so'ng 1 chi o'rinda turadi. Yosh kattalashib borgani sari pnevmoniya bilan kasallanish: 40-59 yoshli bemorlarda – 38 – 55%, 60 dan kattalarda – 31-60% uchraydi. Turli izlanuvchilarning ma'lumotiga asosan 60 dan 1ec bemorlarda o'rtacha kechish 21 kuni tashkil etadi. Vaqtinchalik ishga layoqatsizlik 25,6 kundan iborat va 12,8-45 kunlar o'rtasida bo'ladi. Pnevmoniya bilan xastalanganlar ichida erkaklar yukori o'rin tutadilar. Bemorlarning 52-56% ni erkaklar, 44-48% ni ayollar tashkil etadi. Axolining turli guruxlarida va dunyo davlatlari orasida kasalxona ichi va kasalxonadan tashqari pnevmoniyalar uchrashi va ulardagi o'lim xolatlari turli xildir. 1-tablitsadan ko'rinib turibdiki dunyo mamlakatlari va populyasiyalari ichida kasalxona ichi (KI) va kasalxonadan tashqari (KT) pnevmoniyalar o'tkir infeksiyon kasalliklar ichida eng ko'p tarqalgan xisoblanadi. Ulardan kelib chiqib o'lim xolatlari yoshdan populyasiyaning etnik xolatidan komorbidlik fonining bo'lishi va qo'zg'atuvchining turiga bog'liq. Pnevmoniyadan kam o'lim xolati boshqa infeksiyadan – pnevmokokk, salmonella, xlamidiya, gemofil va mikoplazmali infeksiyalar bilan xastalanganda uchraydi. Pnevmoniyalarning eng ko'p tarqalishi streptokokkli infeksiyada va Heophilis lectron , shuningdek – Chlamydia pneumonia, Mycoplasma pneumonia va legionella pneumonia, atipik mikroorganizm bilan chaqirilganda kuzatiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, pnevmoniyadagi o'lim

sabablari sepsis, nafas etishmovchiligi va yiringli asoratlar xisoblanadi (plevrit, lectro o'pka to'qimasining destruksiyasi) xisoblanadi. Umuman olganda, zamonaviy tekshiruvchilarning ma'lumotiga asosan pnevmoniya bilan kasallanish ko'pgina omillardan iborat: xayot lect, lectro ijtimoiy xolatidan, mexnat sharoitidan, xayvonlar bilan muloqotdan, sayoxat, zararli odatlari ko'pligidan, kasallar bilan muloqotidan, shuningdek xavf omillardan – alkagolizm, chekish o'pkaning obstruktiv kasalligi, surunkali yurak etishmovchiligi va jiplashib yashashdan iborat. Pnevmoniyaning lectron y al shakllanish modeli quyidagidan iborat: Epidemiologik lectr – moyillik olib keluvchi faktorlardan komorbidlik, erta zamonaviy tashxisot, profilaktika va qiyoslangan tezkor va rejali terapiya pnevmoniyaning rivojlanishini lectron y al qonuniyatlarini inobatga olgan bo'lishi kerak. Shuni nazarda tutish kerakki, pnevmoniya bolalardagi va keksalardagi terapevtik kontiniumlarning eng ko'p sababi bo'lib kelmoqda. Kam xollarda keksalardagi pnevmoniyalar boshqa kasallik tufayli kasalxonaga gospitalizitsiya qilinganda uchraydi. Yuqorida aytib o'tilganidek kasalxonada ichi va kasalxonadan tashqari pnevmoniyalar etiologiyasida keskin xar xillik mavjud. Oxirgi yillardagi lectron y al klinik kuzatishlar natijasiga ko'ra quyidagi muxim xulosani qilishga yordam berdi, ya'ni "pnevmoniya" tashxisidan avvalgi "o'tkir" ta'rifi ortguncha xisoblanadi va bunday shakllantirish amaliyotda ishlatishga tavsiya etilmaydi (birinchidan pnevmoniya o'zi o'tkir infeksiyon kasallik xisoblanadi, ikkinchidan "surunkali pnevmoniya" amaliyotda umuman ishlatilmaydi). Xozirgi vaqtda keng tarqalgan "virusli lectron pnevmoniya" termini xozirgi vaqtda unchalik muvaffaqiyatli emas, chunki lectron pnevmoniya sifati jixatdan o'pkaning virusli interstitsial zararlanishdan farq qiladi, shuning uchun bu ikki klinik xolatning davolashga yo'nalishi turlichadir. Xozirgi vaqtda klinitsistlarning fikrini, etiologiyasi aniqlanmagan o'pkaning boshqa interstitsial kasalliklari jalb qilmoqda. Ularga idiopatik interstitsial pnevmoniyalar kiradi, o'pkaning fibroz jarayoni rivojlanishi bilan kechishi va kasallikning og'irligi bilan farq qiladi. Evropa, Angliya va AQSHning 1999dan 2003yilgacha bergan ma'lumotiga asosan idiopatik interstitsial pnevmoniya (IIP) bilan kasallanish ko'p marta oshdi. O'rtacha turli mamlakatlarda 100 000 axoliga 7 dan 50 tagacha to'g'ri kelmoqda, bu iqtisodiy va ijtimoiy zarar keltirmoqda. Odatdagi interstitsial pnevmoniya idiopatik o'pka fibrozi deb nomlanadi va boshqa pnevmoniyalardan og'ir kechishi va o'chog'li o'pka fibroproliferatsiyasi bilan farqlanadi. IIP guruxiga kiruvchi kasallardan eng ko'p uchraydigan interstitsial o'pka fibrozi bilan assotsirlangan oddiy idiopatik pnevmoniya uchraydi. Idiopatik o'pka fibrozi (IO'F) 100 000 axoliga 16-68 ta ni tashkil etadi bular orasida erkaklar asosiy o'rin tutadi. IO'F ning boshqa shakllari bilan ayollar kasallanadilar, 75% bemorlarda birinchi simptomlari xayotning 5-6 dekadasida uchraydi. 50-70% xollarda o'lim ko'rsatkichi tashxis qo'yilgandan keyin 5yil mobaynida kuzatiladi, o'rtacha 75% bemorlarda IO'F ning birinchi simptomlari xayotning 5-6 dekadasida paydo bo'ladi. Shuni inobatga olish kerakki, pnevmoniyadan kuzatiladigan o'lim xolatning o'sishi, pnevmokokk va boshqa qo'zg'atuvchilarni dori preparatlariga nisbatan rezistentligi ortmoqda. Yil davomidagi pnevmoniya bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar Evropa davlatlari uchun 10,1 million 5evro deb baxolanadi. Zamonaviy sharoitda pnevmoniyalarning etiopatogenetik xususiyatlari Pnevmoniya 100 turdagi mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladi, ya'ni zamonaviy pnevmoniyalarning murakkabligi shundaki, vaqt o'tgani sari kasallik qo'zg'atuvchilarining ro'yxati kengaymoqda va yangilanmoqda. Zamonaviy sharoitda pnevmoniyalarning etiopatogenetik xususiyatlari bo'lib quyidagi laxzalar rol o'ynaydi. 1. Avvallari pnevmoniyalar Streptococcus pneumonia bilan bog'liq edi, xozirda esa pnevmoniya etiologiyasida bakteriyadan tashqari viruslar xam o'rin tutadi (parranda grippi virusi N1N1,

TORS- assotsirlangan karana virus, metapievmovirus va b), zamburug'lar va atipik qo'zg'atuvchilar- Legionella pneumonia, Chlamidophila pneumonia va boshqalar. 2. Doimiy ravishda lection yal terapiyani o'zgartirish kerak, bu birinchi navbatda respirator patogenlarning antibiotikka chidamli shtamplarini o'sishi va tarqalishi bilan bog'liq. 3. Pnevmoniya qo'zg'atuvchining "xo'jayin"ning yuqumli kasallikka qarshi kurashishidan ustun bo'lgan paytda rivojlanadi. (komorbidlik xolatida lectr javobning etishmasligi, lection buzilishlar, endobronxial obstruksiya, bronxoektaziya) yoki o'tkir rivojlangan lectr distruksiyada (masalan, sepsis yoki o'pkaning o'tkir zararlanishida) yoki medikamentoz (glyukokortikoid) lectr tizimining buzilishiga asoslangan). 4. Ba'zi xollarda pnevmoniya organizmning infeksiyaga qarshi himoya kuchini ko'p miqdordagi mikroblar agressiyasini "yorilishi" dan qon kelib chiqadi (oshqozonning ko'p miqdorda aspiratsiyasi hisobiga kelib chiqadi). 5. Pnevmoniya-immun sistemani faoliyati saqlangan xolda kam rivojlanishi mumkin, bular ayniqsa infeksiyaga qarshi immunitet shakllanmagan xolda virusli mikroorganizmlarni agressiyasidan keyin kelib chiqadi. 6. Pnevmoniya rivojlanishining asosiy mexanizmi bo'lib mikroorganizm tutgan og'iz-halqum sekretining mikroaspiratsiyasi va yuqori nafas yo'llarini himoyasining nevrogen mexanizmini buzilishidan kelib chiqadi (insult, talvasa sindromlari). 7. Pnevmoniyaning og'irlik darajasi lectro o'zgargan lokus bilan assotsirlangan buladi. Normal xolatda, ya'ni sog'lom odamda yo'tal refleksi, mukotsitar klirens, alveolyar makrofaglarning lection yal aktivligi va lection immunoglobulinlar xisobiga, infitsirlangan sekretni pastki nafas yo'llaridan eliminatsiyasi va tozaligi ta'minlanadi. Ushbu mexanizmlarni buzilishi o'zini tozalash, lection va sabab bo'luvchi xavf omillarning bo'lishi bronxlar kipriksimon epiteliysini funksiyasi buzilishi alveolyar makrofaglarning fagotsitar aktivligini pastlashuvi pnevmoniya rivojlanishi uchun yaxshi shart sharoit yaratiladi, ayniqsa kasalxonadan tashqari xolatlarda. Zamonaviy izlanuvchilarning ma'lumotiga asosan kasalxonadan tashqari pnevmoniyaning etiologiyasini yarim xollarda aniqlanadi (mikrobiologik tekshiruvlar qo'llanilganda xam) xozirgacha xamma qo'zg'atuvchilar ma'lum emas. Kasalxonadan tashqari pnevmoniya keng tarqalgan va hayot uchun xavfli kasallik hisoblanadi: AQSHda pnevmoniya o'limga olib keluvchi kasalliklar orasida 6-o'rinda turadi; AQSHda 4 yoshdan kichiq bolalarda kasallik ro'yxatga olingan; Kasalxonadan tashqari pnevmoniya lection populyasiyada yuqumli kasalliklardan bo'lgan har ikkinchi o'lim xolatini tashkil etadi va 60 yoshdan lec insonlarda respirator infeksiyalardan kuzatiladigan letal xolatni 90% tashkil etadi; Pnevmonokokkli pnevmoniyaning har ikkinchi o'lim xolati 18-65 yoshga to'g'ri keladi; AQSHda va boshqa g'arb mamlakatlarda gospitalizatsiya darajasi 45-42% va 80% bemorlar lection y poliklinika sharoitida davolanadilar. Ammo bu sonlar oxirgisi emas, sababi pnevmoniya ro'yxatga olish majbur bo'lgan kasalliklar guruxiga kirmaydi. Pnevmoniya klassifikatsiyasi Amaliyotda keng ishlatilishi uchun quyidagi tasnif tavsiya etilgan: 1. Pnevmoniyaning lection klassifikatsiyasi MKB-10 da qayta ko'rilgan 2. Pnevmoniya klassifikatsiyasi Rossiya respirator jamiyati tomonidan qabul qilingan (2010y.) Izoh: 1. Pnevmoniyalar noinfeksion tabiatni o'pkaning boshqa o'chog'li yallig'lanishi kasalliklaridan ajratiladi. "Pnevmoniya" rubrikasidan ximik faktorlardan kelib chiqqan (masalan, benzinli pnevmoniya); shuningdek lection tabiatli ("eozinofil pnevmoniya") kasalliklar chiqarib tashlandi. 2. "Pnevmoniya" rubrikasidan lection lection yoki virus tabiatli kasalliklar chiqarib yuborilgan va ular aloxida nozologik shakl sifatida ko'riladi (Kuisitma, qorin tifi, qizilcha, gripp va b) 3. Etiotrop terapiyani asoslashga yordam beruvchi lection klassifikatsiya, 50-70% bemorlarda lection tashxisining yo'qligi amaliyotda keng qo'llanishga tarqatilmagan. Bizning tajribalarimiz shuni o'rgatadiki, tez yordam

markazlarida amaliyotda qo'llash uchun RF SSV ning pulmonologik ITI tavsiya etgan klassifikatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu klassifikatsiya birinchidan tez yordam strategiyasini individuallashtirish va ikkinchidan, etiotrop, simptomatik va patogenetik terapiyasini xavfini pasaytiradi. Hamma pnevmoniyalar kechishi va klinik belgilariga asosan 4 ta etapga bo'linadi

1. Pnevmoniyaning lection agressiya davri- (kasallik boshida o'tkir isitmatempatura 38S, balg'amli yo'tal, o'pka to'qimasining o'tkir infiltratsiya belgilari- krepitatsiya fokusi va kam mayda pufakli xirillashlar, dag'al bronxial nafas, perkutor tovushning qisqaligi, leykotsitoz $\geq 10 \cdot 10^9/l$ va tayoqcha yadroli siljish $>10\%$). Davolashda ustun bo'lib lection yal terapiya hisoblanadi.
2. Pnevmoniyaning klinik stabilizatsiya bosqichi- (intoksikatsiya yo'q davri; tana xarorati 6%). Antibiotiklar bu etapda ishlatilmaydi.
3. Bronxo-o'pka apparatining lectro tiklanishi- bemorlar reabilitatsiya maqsadida lectro-kurort davolanishiga jo'natiladi, ikkilamchi, uchlamchi shuningdek birlamchi profilaktikani targ'ibot qilgan xolda Bundan tashqari pnevmoniya og'irligi bo'yicha 2 ta darajaga bo'linadi: og'ir pnevmoniya, og'ir bo'lmagan pnevmoniya. Pnevmoniya bo'lishi mumkin: o'chog'li, ya'ni o'pkada kichiq o'chog' bo'lishi (eski termin bo'yicha bronxopnevmoniya- respirator qismlardan+bronxlar); sigmentar – o'pkaning 1 ta yoki bir necha sigmentlariga tarqaladi, bo'lakli o'pkaning bir qismini egallaydi; bo'lakli pnevmoniyaning klassik shakli bo'lib krupoz pnevmoniya hisoblanadi(zamonaviy pnevmoniya shakllanishida bunday tashxis yo'q)- alveola va unga yaqin plevra qismi zararlanadi; yopishqoq- mayda o'choqlarni kattalariga yopishishi; total-butun o'pkaga tarqalishiga aytiladi. Pnevmoniyada tashxisni shakllantirish Tashxis klinik-rentgenologik tasdiqqa yondoshishi kerak, shu bilan bir qatorda sindromlari o'xshash aniq kasalliklarni inobatga olish kerak. Pnevmoniyaning giperdiagnostik xatoligi isitma ko'tarilganligi (gripp, pielonefrit, sepsis, xoletsistit, ovqatdan zaxardanish, toksiko infeksiya, infeksiyon mononukleoz, prostatit va malyariya), o'pkadan nam xirillashlar (yurak etishmasligi va alveolit) va rentgenologik o'zgarishlarga (o'pka raki, tuberkulyoz, o'pkaning lection y zararlanishi) qarab yo'l qo'yiladi. O'pkadan tashqari patologik xatoli tashxislash (pnevmoniyaning gipodiagnostikasi) og'riq sindromi bo'lganda yo'l qo'yiladi (miokard infarkti, teshilgan yara, ichak sanchig'I, xoletsistit, ichak tutilishi) va xushning noaniqligida (insult). Pnevmoniya xar bir vrach tomonidan aniqlanishi mumkin. Klinik ma'lumotlar etarlicha bulganda va o'pkaning infeksiyaga bog'liq lection omili aniqlanganda tashxis qo'yiladi, unda yuqorida aytilgan klassifikatsiyaga asosan kasallikning xarakteri belgilanadi. Xozirgi vaqtda tashxisga quyiladigan talablar

1. To'g'rilik
2. O'z vaqtida bo'lish
3. Asoslangan
4. To'liqlik
5. Logik to'g'ri qo'yilgan
6. Kabul qilingan tasnifga mos kelishi.

Tashxisni shakllantirishga misollar

1. Asosiy kasallik: O'ng tomonlama, kasalxonadan tashqari pnevmoniya, lection agressiv bosqichi, og'ir kechishi. Asosiy kasallikning asorati: O'ng tomonlama parapnevmatik ekssudativ plevrit.
2. Asosiy kasallik: Immun buzilishi fonidagi chap o'pka yuqori bo'lagida joylashgan pnevmoniya, klinik stabilizatsiya bosqichi, og'ir kechishi. Asosiy kasallikning asorati: Yo'tal obmorokli sindrom (bettoplepsiya).
3. Asosiy kasallik: Kasalxonadan tashqari aspiratsion pnevmoniya, og'ir kechishi, lection agressiya bosqichi. Asosiy kasallikning asorati: O'tkir birlamchi chap tomonlama periferik o'pka absessi, o'tkir nafas etishmovchiligi 3-daraja.
4. Asosiy kasallik: Chap o'pkaning pastki bo'lagida joylashgan nazokomial pnevmoniya, o'rta og'ir daraja, lect-o'pka apparatini funksional tiklash etapi. Xamroh: Nefrouretrolitiaz remissiya davri.
5. Asosiy kasallik: Surunkali dializ bilan bog'liq o'ng o'rta pastki bo'lak pnevmoniyasi og'ir kechishi, lection agressiya bosqichi. Asosiy kasallikning asorati: O'pkaning xavf soluvchi interstitsial shishi. Raqobatdosh kasallik: Buyrakning surunkali kasalligi IV bosqich.
6. Asosiy kasallik:

(kombinatsiyalangan) 1) Kasalxonadan tashqari mikrobakterial pnevmoniya o'pkaning 2la bo'lagida joylashgan, og'ir daraja, lectron agressiya bosqichi. 2) O'tkir infeksiyon-toksik miokardit, 3-aktivlik daraja, og'ir kechishi. Xamroh: Surunkali o't-tosh kasalligi, remissiya davri. 7. Asosiy kasallik: (qo'shilgan) 1) virusli total kasalxonadan tashqari pnevmoniya, og'ir daraja, lectron agressiya bosqichi. Pnevmoniyani tashxislashda zamonaviy strategiyasi Xozirgi vaqtda shifokorlarga tashxislashga aloqador savollarga javob bo'ladigan asosiy va avtoritet manbaa bo'lib zamonaviy ma'lumotlarga tayangan etakchi mutaxassislar tomonidan tayyorlangan tavsiyanomalar qo'llaniladi. Ammo bunday qo'llanmalar tez eskiradilar, shuning uchun xar 3-5 yilda qaytadan ko'rib chiqilishi kerak (Sotsialnikov A.G., 2009; Shekkel P.G. et.al., 2001). 2010-yilda chop etilgan rossiya respirator jamiyati tavsiyalari pnevmoniyaning eng oxirgi qo'llanmasi xisoblanadi. Ushbu tavsiyanomada pnevmoniya to'g'risida chuqurlashtirilgan bilimlar, tashxislashning tarqalgan yangi usullari (masalan, infeksiyaning ekspress tashxisotining immunoxromatografik usuli, legionella pneumonia 1 sero gurux va streptococcus pneumonia chaqiruvchi pnevmoniya fonida tizimli yallig'lanish sindromi mezonlarini tashxislash; og'irlikni baxolashga yondashish va xavfni stratifikatsion va b.) va ushbu kategoriyadagi bemorlarni tekshirishni usuli ko'rsatilgan (masalan, lectron y bemorlarda balg'amni mikrobiologik tekshiruv).

SURUNKALI BRONXIT

Bronx shoxlarning davomli kasalligi. U utkir bronxit yoki zotiljamdan sung rivojlanadi. Kasallik kuzgatuvchisi utkir bronxitnikiga uxshash. Ob-xavosi keskin uzgarib turuvchi, nam iklimli, axoli zich yashaydigan shaxarlarda kasallik kuprok kuzatiladi. Kasallik kupincha kasbga xos buladi. Bunga novvoylar, tegirmon ishchilari, tosh silliklovchilar, ip yigirish korxonasi ishchilari, sement fabrikalarida, shaxtada, ruda konlarida ishlovchilar kiradi. Chekish kasallikning rivojlanishida lec axamiyatga ega. Surunkali bronxit bilan kasallanganlarning 80% ini chekuvchilar tashkil kiladi. Kasallikning kelib chiqishiga burundan nafas olishning buzilishi va xar xil yuldosh kasalliklar: yutkinning yalliglanishi (faringit), laringit, sinusntlar yordam beradi. Surunkali bronxitda bronxlar utkazuvchanligining buzilishi natijasida bronxlarning nay vazifasi va upkaning shamollashi buziladi. Patologik anatomiyasi. Uzok davom etgan yalliglanish jarayoni lect shillik kavatlarini atrofik va gipertrofik uzgarishlarga olib keladi. Shillik va togay plastinkalarining atrofiyasi, devorining yupkalanishi esa bronxoektazlar xosil bulishiga olib keladi. Jarayon lect atrofidagi tukimaga utib interstitsial zotiljam rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Natijada alveola devorlari asta-sekin yupkalanish atrofiyaga uchraydi va upka emfizemasi rivojlanadi, bu esa upkada kon aylanishi buzilishiga olib keladi, keyin kon aylanish soxasida bosim oshib yurak ung korin chasi gipertrofiyasi va uning etishmovchiligi rivojlanadi. Klinik kurinishi. Kasallarnipg asosiy shikoyati astasekin kuchayib va tezlashib boruvchi yutal xisoblanadi. Yutal vaktida oz mikdorda yopishkok,, yiringli yoki shillikyiringli balgam ajraladi. Kasallik boshida yutal fakat ertal ab buladi, keyinchalik u xam kunduzi, xam kechasi bemorni bezovta kilib uyk,u buzilishiga olib keladi. Kasallik boshlanishida umumiy axvol uzgarmaydi. Kasallik xuruj kilganda kupincha subfebril isitma kutariladi. Kovurgalararo va korin tugri muskullarining uta taranglyashishi natijasida kukrakda, orkada, korin usti soxasida ogrik bulishi mumkin. Asta-sekin xansirash rivojlanadi, dastlab jismoniy xarakat kilganda, keyin tinch x,olatda tez charchash, terlash kuzatiladi. Xansirash ekspirator xususiyatga ega. Kasallik kupincha baxorda va kuzda kaytalanadi. Kuzdan kechirganda uzok vakt uzgarish animanmaydi. Keyinchalik tarkalgan kukarish paydo buladi, u yutal vaktida zurayadi, buyin vena tomirlari burtib chiqadi. Emfizema kushilishi tufayli kukrak kafasi bochkasimon bulib koladi. Asoratsiz

surunkali bronxitda paypaslaganda va tukillatganda uzgarish aniklanmaydi. Emfizema rivojlanganda esa tukillatganda kutisimon tovush eshitiladi. Eshitish. Bunda nafas kattiklashgan, nafas chiqarish davomli buladi, emfizemada esa susaygan vezikulyar nafas eshitiladi, kuruk lectr xirillashlar kuzatilishi mumkin. Laboratoriya ma'lumotlari. Kasallik kaytalaganda konda leykotsitlar kupayadi, ECHT tezlashadi. Balgam shilli k-yiringli, leykotsitlar kup, lectro davrida eritrotsitar flora kupayadi. Rentgenda tekshirganda emfizema va pnevmoskleroz kuzatiladi. Bronxoskopiya va bronxografiya lect shoxlarining shakli buzilganini, shillik kavatning atrofik va gipertrofik uzgarishini aniklaydi, bronxoektazlar kuzatilishi mumkin. Kasallik davomli lectro. Bronxlar toraygan va toraymagan buladi. Birmuncha og'ir va rivojlangan bronxidlarda bronxlar toraygan buladi.

3-mavzu: Bronxial astma.

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
<p>Amaliy mashgulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <p>1. Broxospastik sindromlarni taqqoslash Allergik rinit, konyunktivit klinik kechishlarini</p> <p>2. Aspirinli bronxial astmaning klinik kechishi Pollinoz etiopatogenezi, klinikasi, davolash taktikasi</p> <p>3. Jismoniy zurikish astmasi belgilari.</p>	<p>Amaliy mashgulotning kishqacha annotatsiyasi</p> <p>Talabalarga bronxial astma turlari etiopatogenezi davolash usullari stomatolog taktikasini urganish</p>
<p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> <p>Talabalarga bronxial astma bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish va urgatish. Bronxospastik sindromni taqqoslash bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish.</p>	<p>Maqsadi yoritiladi.</p> <p>Talabalarga bronxial astma, bronxospastik sindromni taqqoslash bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish.</p>
Ta'lim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, lectron darslik, kompyuter, multimediyalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat: savol-javob.

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik	1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi	Talabalar amaliy

bosqichi 5 daqiqa	2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (20 daqiqa)	1. Talabalarni kichiq guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. “ Sinkveyn “ usuli Har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi va besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. 1-bosqich. Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi) 2-bosqich. Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi) 3-bosqich. Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta so'z bilan ifodalanadi (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi) 4-bosqich . Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan to'rtta so'zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi) 5-bosqich. Mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi)	Kichiq guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3- klinik mashg'ulot (40 daqiqa)	<i>Pikfloumetriya, spirografiya o'tkazish texnikasi</i>	Talaba mustaqil bajaradi
3-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80 daqiqa , 2 soat		

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

SHu mavzuni o'qitishda talabalarning normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, farmakologiya bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

Mavzu bayoni

3-mavzu: Bronxial astma.

ASTMA –“Bronxial daraxtning surunkali yallig'lanish jarayoni”- G.I.Sokolskiy 1838 y. deb hisoblashgan. Bronx yo'llari va surunkali o'pka kasalliklar bilan doimiy og'riydigan bemorlar ko'proq kasallanadi. Bronxial astma (BA) – bu nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishi bilan

kechadigan , bronxlarning reaktivligi oshishi oqibatida bronxlar shilliq qavatining shishi, gipersekretsiyasi va mushaklarining spazmi natijasida bo'g'ilish xurujlari bilan namoyon bo'ladigan va astmatik status rivojlanishi bilan jiddiy oqibatli kasallik hisoblanadi. Bronxial astma (BA) – bu nafas yullarining surunkali yalliglanish kasalligi bo'lib, semiz xujayralar, eozinofillar, limfotsitlar, allergiya va yalliglanish mediatorlari ishtirokida, moyilligi bulgan kishilarda bronxlarning gireaktivligi va variabel obstruksiyasi bilan kechadi va bunda bo'g'ilish xuruji, xirillashlar, yo'tal va nafas olishi qiyinlashishi bilan kuzatiladi. Kasallikning asosida silliq bronxial muskullarning spazmi va buning oqibatida mayda bronxlarning kuchli torayishi kelib chiqishi yotadi. Bronxlar reaktivligining o'zgarishiga spetsifik va nospetsifik ta'sirlar sababchi bo'lib, bular asosan, organizmga tashqaridan takror kirgan yot oqsillardir Bronxial astma etiologiyasida quyidagilar ahamiyatga ega:

- 1.Noinfeksion allergenlar (chang, dori-darmonlar, hashoratlar va hayvonlar allergenlari).
- 2.Infeksion allergenlar (viruslar, bakteriyalar, zamburuglar, va b.)
- 3.Mexanik va kimyoviy iritantlar (metall, yog'och, g'o'za changlari, mum, kislota, ishqorlar bug'lari).
- 4.Fizik va meteorologik omillar (haroratning, namlikning o'zgarishi, atmosfera bosimining, erning magnit maydonining tebranishlari va boshkalar.)
- 5.Asabiy-ruxiy qo'zgalishlar, stress ta'sirlar.

Bu omillarning barchasi adashgan nervni kitiqlab, unda spazmatik ta'sir paydo qilib, astma xurujini keltirib chiqaradi. Ichki omillar:

- 1.Irsiy moyillik
- 2.Atopiya
- 3.YUqori nafas yo'llarining giperreaktivligi
- 4.Jins
- 5.Irq

Tashqi omillar:

- 1.Kasbiy omillar (sensibilizatsiya holati)
- 2.CHEkish
- 3.Ijtimoiy-iqtisodiy holat
- 4.Parhez va dori-darmonlar
- 5.Semirish

Patomorfologiyasi: Hozirgi zamon qarashlariga binoan bronxial obstruksiyaning 4 ta komponent chaqiradi: bronxlar silliq mushaklari spazmi, bronxlar shilliq qavati shishi, bronxlarning, ayniqsa terminal qismning, shilliq "qopqoqchalar" bilan bekilishi, bronx devorida sklerotik o'zgarishlarning mavjudligi xos.

Astmaning sabablari:

Allergenlar (dori darmonlar, ovqat mahsulotlari, uy buyumlari)

-Kasb

-hunarga aloqa bor kishilar

-Aspirin va boshqa nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar

-Fizik zo'riqish

-Stress.

-Klimaks va x.k.

Bronxial astma (BA)ning patogenezi: Kasallik faqat etiologik omil o'zining "ta'sir qiluvchi nuqtasini" topgandagina rivojlanishi mumkin. "Ta'sir nuqtasi" – organizmning tug'ma yoki

orttirilgan biologik organlar va sistemalar nuqsonlari: - alveolyar makrofaglar va neytrofillarning fagotsitar faolligining buzilishi va natijada bronxlarda infeksiyon agentlar faolligining oshishi;

- IgA ning sintezini kamayishi va natijada bronxlarda infeksiyon agentlarning faolligining oshishi;

- T-supressor limfotsitlar faolligining sustligi;

- O'zining to'qimalariga nisbatan immunologik tolerantlikning va autoallergik reaksiyalarning buzilishi;

-Semiz xujayralar, makrofaglar, lizosoma neytrofillari membranasini nostabilligi proteolitik fermentlarning va biologik faol moddalarning haddan tashqari ko'p ishlab chiqarilishiga olib keladi. SHunday qilib BA da bronxlardagi yallig'lanish jarayonining rivoji har xil hujayralarning (eozinofillar, T-limfotsitlar, semiz hujayralar) bir biriga ta'siri va natijada biologik faol moddalar ishlab chiqarilishi natijasida paydo bo'ladi. YAllig'lanish bronxlarning gipersezuvchanligiga va giperreaktivligiga olib keladi. Bronxlar o'tkazuvchanligining buzilishi bronxlar reaktivligining o'zgarishi olib keladi. Bular quyidagilar ta'sirida yuzaga keladi, ya'ni, birlamchi- tug'ma, orttirilgan, kimyoviy, fizik, mexanik va infeksiyon omillar ta'siri. Ikkilamchi - asab endokrin tizimining o'zgarishi, auto- va infeksiyon antigenlar ta'siri. Bronxlar reaktivligining ikkilamchi o'zgarishi immun, endokrin, asab tizimlarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Immunologik mexanizmlar Bronxial astmali bemorlarning asosiy qismida bronxlar reaktivligining o'zgarishiga immun tizimdagi o'zgarishlar, ya'ni gumoral va xujayraviy immunitetlarning Gell va Kumbs tasnifi bo'yicha I, III va IV tipli sezuvchanlikning yuqori bo'lishi sabab buladi. Immun reaksiyalar nafas yo'llarining shilliq qavatida hosil bo'ladi.Uning o'zgarishi ham bronxlar gipersezuvchanligi va giperreaktivligiga olib keladi. Allergik mexanizmlar tez va sekin rivojlanuvchi reaksiyalar bilan bogliq. Tez rivojlanuvchi reaksiya (reagin turi) shok organning allergen bilan o'zaro ta'sirida paydo bo'ladi, bu esa semiz hujayralar va eozinofillarning, bronxlar shilliq qavatida va uning ichida Tlimfotsitlar miqdorining oshishiga olib keladi. Bu hujayralar biologik aktiv moddalar ishlab chiqaradi va BA patogenezida immunoximik bosqichni (patoximik bosqich) rivojlantiradi: gistamin, serotonin, bradikinin, neytrofillar xemotaksis omili, leykotrienlar, interleykinlar va b. mikrotomirlar o'tkazuvchanligini oshiradi, bu esa ularning massiv ekssudatsiyasiga olib keladi. Bronxlar shishi va ularning ichiga epiteliyning ajralib tushishi rivojlanadi, bu esa shilliq "kopkokchalarining" shakllanishiga olib keladi; bundan tashkari biologik faol moddalar bronxospazm rivojlanishiga olib keladi (patofiziologik boskich). Sekin rivojlanuvchi allergik reaksiya (immunokompleks turi) sirkulyasiya kiluvchi IgG, IgA, IgM turdagi antitelolar va komplement orkali rivojlanadi. Immun komplekslarning semiz hujayralar, eozinofillar va T-limfotsitlar bilan bog'lanishi natijasida yallig'lanish mediatorlari ajralib chiqadi va bronxlar obstruksiyasiga olib keladi. Noimmunologik mexanizmlar Bronxlar reaktivligining o'zgarishiga tug'ma va orttirilgan biologik nuqsonlar sabab bo'ladi. Noimmunologik mexanizmlar effektor hujayralar birlamchi yoki ikkilamchi ta'sir ko'rsatishi natijasida bronxlar silliq mushaklari, qon tomirlari, bronxial bezlar retseptorlari ta'sirlanishi yuzaga keladi.. BA ning shakllanishida organizmdagi gormonal disbalans xam katta rol o'ynaydi: bu glyukokortikosteroid etishmovchilik, giperestrogenemiya, gipoprogeronemiya, gipotireoz.GKS – buyrak usti bezi gormonlaridan biri bulib, juda ko'p biologik faol moddalarning blokatoridir, antitelolar hosil bo'lishini kamaytiradi, betta-2- retseptorlar sezuvchanligini oshirishi hisobiga bronxodilatatorlik ta'siri bor. Bu gormonlarning (kortizolning) etishmovchiligi bronxoobstruksiyaning sababi bulishi mumkin. Ko'p ayollarda menstruatsiya paytida BA kechishi og'irlashishi kuzatiladi. Progesteron betta-2- adrenoretseptorlarni

stimulyasiya qiladi va bronxodilatatsiya chaqiradi, atsetilxolin, prostoglandin-F2-alfa miqdorini oshiradi va bronxospazmni chaqiradi. BA rivojida vegetativ nerv sistemasi ham katta rol o'ynaydi, bu esa adrenergik disbalansda yaqqol ko'rinadi – alfa-adrenoretseptorlar beta-aderoretseptorlardan ustunlik kiladi, bu esa bronxospazmga olib keladi. BA patogenezida “aspirin” astmasi alohida joy olgan. Bu turdagi BA atsetilsalitsil kislotasini va nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlarni ko'tara olmaslik natijasida paydo bo'lgan. Bularning asosida araxidon kislotasining metabolizmi buzilishi yotadi, bu esa leykotrienlar va prostoglandin-F2-alfa ishlab chiqarishini ko'paytiradi va bronxospazmga olib keladi Tasnifi: Bronxial astma tasnifida ikkita yo'nalish bor, ya'ni bittasi etiologik, ikkinchisi esa kasallikning og'irlik darajasi va bronxial obstruksiyaning qay darajadiligiga asoslangan.

Bronxial astma tasnifi (G. B. Fedoseev 1988 yil.)

I. Bronxial astma rivojlanishi etaplari. Amaliy sog'lom kishilarda tug'ma yoki orttirilgan biologik nuqsonlar va o'zgarishlarning mavjudligi, ya'ni:

a) mahalliy va umumiy immunitetning o'zgarishi.

b) «tez javob qaytarish» reaksiyasi (semiz xujayralar, makrofaglar, eozinofillar, trombositlar) mavjudligi.

v) mukotsiliar klirens o'zgarishi.

g) endokrin tizim o'zgarishi

d) o'pka tomirlari endoteliysining metabolik disfunktsiyasi.

j) araxidon kislota metabolizmining buzilishi.

z) shaxsning nerv-psixik holati xususiyati.

i) bronxlar va LOR organlari reaktivligining o'zgarishi. Biologik nuqsonlar klinik jixatdan BA rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

2. Astma oldi (predastma) holati. Bu nozologik kasallik bo'lmay, balki, BA ning klinik paydo bo'lish xavfi hisoblanadi. Klinik diagnozda bu holat qo'yiladi, ya'ni ko'rsatiladi. Predastma holati nafas yo'llarining vazomotor buzilishlarini, bronxospazm belgilari bilan, allergiyaning boshqa ko'rinishlari («eshak emi», «Kvinke shishi», qonda eozinofiliya, balg'amda ham, migren, neyrodermit) hisoblanadi.

3. Klinik shakllangan BA – bu birinchi bor astma va astmatik status xurujlaridan keyingi holat.

II. BA ning shakllari: (klinik tashxisda ko'rsatilmaydi).

1. Immunologik shakli.

2. Noimmunologik shakli.

III. BA ning klinik – patogenetik shakllari:

1. Atopik – allergenni ko'rsatish kerak.

2. Infeksiyaga karam – infeksiyon agent va infeksiyon jarayonning borishini ko'rsatish kerak.

3. Autoimmun.

4. Gormonal – endokrin, o'zgargan organi va disgormonal o'zgarishlarni ko'rsatish lozim.

5. Nerv-psixik shakli.

6. Ifodalangan adrenergik disbalans.

7. Bronxlar reaktivligining birlamchi o'zgarganligi, immun, asabendokrin tizimlar ishtirokisiz shakllanib, tugma bo'lishi mumkin, kimyoviy, fizik, mexanik va infeksiyon agentlar ta'sirida rivojlanadi.

8. Xolinergik variant

9. Aspirinli astma

10. Dizovarial shakli

IV.Og'irligiga ko'ra:

1.Engil darajali – yiliga xurujlar soni 2-3 marta takrorlanib, dorilarni qabul qilish tufayli o'tib ketadi, remissiya davrida bronxospazm yo'q.

2.O'rtacha og'irlikda – xurujlar soni yiliga 3-4 marta bo'lib, og'irroq kechadi, xuruj dorilarni in'eksiyalar orqali qabul qilganda o'tadi, xurujlararo davrlarda astmatik xolat birmuncha ifodalangan bo'ladi. Remissiya davrida jismoniy zo'riqishdan so'ng yoki bajarish mobaynida bronxlar spazmining engil klinik belgilari kuzatilishi mumkin.

3.Og'ir darajali – xurujlar soni yiliga 5 va undan ko'p bo'lib, og'ir kechadi, bartaraf kilish kiyinroq bo'lib, astmatik status bilan asoratlanadi. Xurujlararo davrda esa bronxlarning spazmi ifodalangan bo'ladi.

V.Kechishiga ko'ra:

1.Qo'zg'alish davri.

2.Qo'zg'alishning pasayishi.

3.Remissiya.

VI.Asoratlanishiga ko'ra:

1.O'pkaga talluqli: o'pka emfizemasi, nafas etishmovchiligi, atelektaz pnevmotoraks va boshqalar.

2.O'pkadan tashqari – miokard distrofiyasi, o'pka – yuragi, yurak etishmovchiligi va boshqalar. Hozirgi vaqtda BA ning xalqaro tasnifi asosida kasallikning og'irligi nazarda tutiladi, chunki xuddi shu ko'rsatkich bemorlarni davolash taktikasini aniqlab beradi.

Klinikasi: Bronxial astmaning klinikasida 3 ta davr farqlanadi:

1-bosqich .Astma “darakchilari”-xurujdan bir necha minut oldin paydo bo'lib, yo'tal yoki tomoq qirilishi, vazomotor rinit,burunning bitishi, hansirashning kuchayishida, terining qichishishi, asabiylashish, poliuriya, bemor kayfiyatining buzilishi kabi o'zgarishlar paydo bo'ladi. Vrach bemorning shu o'zgarishlarga e'tibor qilishi zarur, chunki bu bosqichda o'z vaqtida qabul qilingan preparat xuruj regressiyasini chakiradi.

2-bosqich.Avj olish davri-ekspirator tipli bo'g'ilish xuruji, ya'ni,qisqa nafas olish, nafas chiqarishning 2-4 marta uzayishi,nafas chiqarishning qiyinligi, masofadan eshitiluvchi xirillashlar xos.Bemor majburiy holatni, ya'ni, ortopnoe holatida, o'tirganda oyoqlariga tiranadi yoki oldinga egilib utiradi va tirsaklari bilan tizzalariga yopishadi yoki qo'llari bilan stol chetiga, krovat chetiga tiranadi, og'iz bilan havo “tutishga” harakat qiladi. Bemor gapira olmaydi, yuzida qo'rqish alomati,. yuzi shishgan, sovuk ter bilan koplangan, diffuz sianoz. Nafas olishda burun qanotlari shishadi. Ko'krak qafasi maksimal nafas yutish holatida. Nafas olish aktida hamma yordamchi mushaklar qatnashadi, o'mrov usti chuquri va qovurg'alar sovuq ter bilan qoplangan, bo'yin venalari bo'rtgan, ko'krak qafasi emfizematoz, perkussiyada timpanik tovush, auskultatsiyada dag'al nafas asosida quruq, hushtaksimom xirillashlar, pulsi tezlashgan, yurakning nisbiy chegaralari o'ngga kengaygan, yurak tonlari bo'g'iq, xuruj “shishasimon”,yopishqoq, kam ajraluvchi balg'am ko'chgach o'tadi. Balg'am tahlilida eozinofillar, ayrim hollarda SHarko-Leyden kristallari, Kurshman spirallari aniqlanadi. EKG: yurak elektr o'qining o'ngga siljishi, chuqur S1 tishchasi, baland R III va aVF da, S-T segmenti inversiyasi III va aVF da., baland o'tkirlashgan R tishcha II va III standart tarmoqlarda va ko'pincha manfiy R tishcha V1 da, Giss tutami o'ng oyoqchasi to'liq qamali. Rentgenologik tekshiruvda o'pkalar shaffoflashishi, diafragmaning past joylashishi va sust tebranishi. Qovurg'alar gorizontal joylashgan va ular orasi kengaygan. O'pka manzarasi kuchaygan.

Bo'g'ilish xuruji astmatik statusga o'tib ketishi mumkin va koma yoki ulim bilan ham tugashi mumkin.

3-bosqich – xurujni orqaga kaytishi Regressiya davri-3-bosqich – xurujning orkaga kaytishi. Bemorda yo'tal ko'paygan, u balg'am ko'chishi bilan birga paydo bo'ladi va bu bemorga ancha o'zini engil his etishiga olib keladi. Patogenezig bog'liq holda xuruj regressiyasi bemorda har xil kechadi. U tez o'tib davolashdan so'ng yuqoridagi belgilarning bartaraf bo'lishi bilan kechishi mumkin, boshqa organlarda o'zgarishsiz, yoki aksincha, bemorni holdan toydirishi mumkin. BA klinik manzarasida bu kasallikning yo'tal varianti borligini ham esda tutish kerak. BA ning bu shaklida tipik bo'g'ilish xuruji klinikasi bo'lmaydi, o'pka auskultatsiyasida esa quruq xirillashlar yoki kam fizikal o'zgarishlar topiladi. Birdan- bir xos belgi- bu bo'g'ilishli yo'tal bo'lib, u ko'pincha kechasi bemorni bezovta kiladi. Yo'tal xuruji paytida bemorda bosh aylanishi, terlash, yuz sianozi bo'lishi mumkin. Yo'tal xuruji tashxisi uchun BA ning nafas chiqarish shiddatini monitoring qilish tavsiya etiladi va bunda kechkurun bronxodilatatorlarni profilaktik kabul kilish musbat natijani berishini inobatga olish kerak.

Tashqi nafas olish funksiyasini instrumental tekshirish.

Spirografiya – nafas olish vaqtida o'pka hajmining grafik ravishda tasvirlanishi. BA ning spirografik belgilari: o'pkaning tezlashtirilgan hayotiy hajmining (O'TXX) va TNCH1 ning sustlashishi. Bunda TNCH1 eng sezuvchan kursatkich bulib, bronxial obstruksiya darajasini ko'rsatadi; Tiffno indeksining pasayishi (TNCH1/O'TXX), asosan 75% dan kamrok Pnevmataxografiya – ikki oordinatali sistemada “oqim-hajm” tizimini aniklash – havo oqimining ekspirator tezligini O'TXX 25-75% li nuqtasida, ya'ni nafas chiqarishning o'rtasida aniqlash. Bu usul yordamida hajm tezligini (PXT), UTXX ning 25%, 50%, 75% li nuqtalarida maksimal hajm tezligini (MXT25, MXT50, MXT75) va o'rtacha hajm tezligini (25-75%) aniqlash mumkin. Pikfloumetriya – havoning maksimal hajm tezligini to'la nafas olgandan so'ng tezlashtirilgan nafas chiqarishda (nafas chiqarish tezligi) o'lchash usuli. Pikfloumetriya kuniga bir necha marta va bronxodilatatorlar qabulidan oldin va keyin o'tkaziladi. PNT ni albatta ertalab, keyin 10-12 soatdan so'ng o'tkazish kerak. Pikfloumetriya dastlab vrach kabulida kilinadi, keyin esa bemorning o'zi o'tkazishi mumkin. BA da PNT quyidagicha o'zgaradi:

- qisqa ta'sir etuvchi betta –2 – stimulyatorning kabulidan 15-20 minutdan so'ng PNT ning 15% ga oshishi.

- bronxolitiklar qabul qiluvchi bemorlarda PNT 20% va undan ko'prokqa sutkada tebranadi, bronxolitiklar qabul qilmaydigan bemorlarda esa – 10% ga.

- PNT ning sutkalik tebranishi quyidagi formula orqali aniqlanadi: PNTning sutkalik tebranishi % = $\frac{PNT_{maksimal} - PNT_{minimal}}{PNT_{o'rtacha}} \times 100\%$ PNT o'rtacha - jismoniy zo'rikishdan yoki boshka triggerlar ta'siridan so'ng PNT ning 15% ga kamayishi. Bronxial astmaning diagnostik mezonlari:

1. Nafas chiqarishning qiyinligi bilan kechuvchi bo'g'ilish xuruji va u o'pkada quruq hushtaksimon xirillashlar (hatto bu xirillashlar masofadan ham eshitaladi) kechadi. 2. Bronxial astmaning xurujiga ekvivalent ravishda tunda xurujsimon yo'tal, u bemorning uyqusini buzadi, nafas chiqarishning qiyinligi yoki ko'krak qafasida siqilish hissi, hansirash va hushtaksimon xirillashlarning yilning ma'lum paytida ma'lum bir antigenlar bilan to'qnashilganda yoki fizik zo'riqishdan so'ng bezovta qilishi;

3. Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlari (NCHH, Tiffno indeksi, nafas chiqarish hajmining maksimal nuqtasi va h,) natijalariga ko'ra nafas etishmovchiligining obstruktiv tipini aniqlash;

4. Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlarining bronxodilatatorlar qabul qilgandan so'ng oshishi va nafas chiqarishning engillashuvi;

5. Havoda bronxial astmaning biologik markeri- azot oksidi (NO) ning ko'pligi.

“Aspirinli astma” ning diagnostik mezonlari:

1. Bo'g'ilish xurujining aspirin yoki boshqa NYAQP lar qabul qilish bilan saqlovchi moddalar shuningdek, o'zida salitsilatlar va sariq rang beruvchi tartrazin moddasini qabul qilish bilan bog'liqlik.

2. Bo'g'ilish xurujining xususiyatlari: bo'g'ilish xuruji aspirin qabul qilgandan so'ng, bir soat o'tgach boshlanib, tumov, ko'z yoshi ajralish, giperemiya bilan kechadi. Xuruj paytida ko'ngil aynish, qayt qilish, gipersalivatsiya, epigastral sohada og'riq bo'lib, A/B pasayadi. Vaqt o'tish bilan bronxial astma o'ziga xoslikka ega bo'ladi: mavsumiylik yo'qoladi, astma belgilari bemorni doimo bezovta qiladi, xurujlararo davrda ko'krak qafasida “bosib qolish hissi”, bronxodilatatsion terapiya kam samarali, asta-sekinlik bilan BA avj ola boradi.

3. Astmatik triada quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aspirinli astma avj olib borish

2. Aspirin va boshqa NYAQP larni ko'tara olmaslik

3. Rinosinusit va retsidivlanuvchi burun polipozi (rentgenda rinosinusopatiya aniqlanadi).

4. Qonda prostaglandinlarning turli guruhlarining indometatsin qabul qilgandan so'ng oshishi (Rg F2) oshadi, PGE1 kamayadi.

5. Atsetil kislotali tezlashtiruvchi sinama musbat, ya'ni, bemorga atsetil kislota quyidagi dozada beriladi: 1-kun 10 mg 2-kun 20 mg 3-kun 40 mg 4-kun 80 mg 5-kun 160 mg 6-kun 320 mg 7-kun 640 mg 30, 60, 120 minutdan so'ng, bemorni ob'ektiv ko'rib, o'pka auskultatsiya o'tkazilib, NCHX aniqlanadi. Sinama quyidagi belgilar paydo bo'lsa, musbat bo'ladi: bo'g'ilish xurujini sezish, burundan nafas olishning qiyinligi, rinoreya, ko'zdan yosh oqishi NCHX ning dastlabkisiga nisbatan 15% ga kamayishi.

Bronxial astmani davolash

Bronxial astmani davolash etiologik omillarni hisobga olgan holda quyidagilarni: 1. BA xuruji davrida davolash; astmatik status holatida jadal davolashni. 2. Qo'zgalish davrida davolashni o'z ichiga oladi.

3. Remissiya davrida davolashni o'z ichiga oladi. BA ni davolash bemorni individual xususiyatlariga qarab olib borilishi lozim va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-eliminatsion muolajalar (allergen yoki potensial allergenlar, nospetsifik qo'zg'atuvchilar bilan kontakti yo'qotish);

-medikamentoz terapiya (patogentik va simptomatik);

-nomedikamentoz terapiya (naturoterapiya). BA davolashda qo'llaniladigan asosiy medikamentoz preparatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

YAllig'lanishga qarshi preparatlar: Natriy kromoglikat (intal) Natriya nedokromil (tayled) Ditek Glyukokortikoidlar (asosan maxalliy - ingalyasiya sifatida, hamda ichiga eki parenteral).

Bronxodilatatorlar:

1. Aderenergik retseptorlar stimulyatorlari:

a) alfa- va betta 1,2 - aderenergik retseptorlar stimulyatorlari (adrenalin, noradrenalin)

b) betta-2- va betta-1-aderenergik retseptorlar stimulyatorlari (izadrin, novodrin, euspiran)

v) selektiv betta2-adrenostimulyatorlari :

-qiska ta'sir etuvchi – salbutamol, terbutalin, salmefamol, ipradol

-uzok ta'sir etuvchi – salmeterol, formeterol

2. Antixolenergik preparatlar:

a) ipratropium bromid (atrovent)

b) berodual

v) troventol

Metilksantinlar:

a) eufillin

b) teofillin

Patogenetik terapiya kasallikning kechishi, og'irlik darajasi va klinik-patogenetik shakllarini hisobga olgan holda tavsiya etiladi va o'z ichiga glyukokortikoidlar, membranani barqaror etuvchilar, bronxolitiklarni qo'llashni oladi. Membranani barqaror etuvchilarga natriy kromoglikat-intal, ketotifen va boshqalar kiradi va ular BA ning atopik shaklida va o'rta va og'ir kechishda qo'llaniladi. Glyukokortikoidlar yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lib, ularga: beklometazona dipropionat (beklomet, bekotid, beklorkort, aldetsin), ingakort, fliksotid (prolong ta'sirli ingalyasion GKS) kiradi.

Ingalyasion GKSlarni bronxolitiklar bilan birgalikda qo'llash mumkin.. Bronxolitik preparatlarga qisqa ta'sirli beta 2 adrenomimetiklar: fenoterol, albuterol (salbutamol), terbutalin, klinbuterol, geksaprenalin; uzoq ta'sirli: salmeterol va forioterol; xolinolitiklardan: ipratropium bromid (atrovent) va oksitropium bromid kiradi.

Kombinatsiyalangan preparatlarga: berodual (duovent), ditek, intalplyus, kombipek, bronxolitik preparatlarga teofillinning hosilalari: eufillin (aminofilin), teopek, teobilong, retafil, teotart, teodur kiradi.

Antigistamin preparatlardan 2- avlod preparatlari: terfenadin, astemizol, akrivastin, loratidin, (klaritin), setirizin kirib, ularning sedativ ta'siri yo'q, terapevtik samarasi tezroq, ularni uzoq qo'llaganda ham o'rganib qolish yo'q. Antibiotiklar BA ni davolashda qo'llanilmaydi. Ular faqatgina BAning infeksiyaga qaram turida, bemorlarda o'tkir pnevmoniya, surunkali bronxit qo'zg'alganda, gormonga qaram turda esa yuqori nafas yo'llarining zamburug'li asoratlari yuzaga kelgandagina qo'llaniladi.

Asosan amaliyotda ftorxinolonlar, makrolidlar, linkomitsin, sefalosporinlar qo'llaniladi.

Bronxial astmani pog'onali davolash. . Olib borilgan davolashning samaradorligi klinik belgilar, xurujlar soning kamayganligida, ob'ektiv tekshiruvlarning musbatligida, laborator va funksional tekshiruvlarning natijalarning normallashtirishida namoyon bo'ladi. Pog'onali davolashda stabil ijobiy natijaga erishilganda, kasallikning kechishini nazorat qilish uchun kelgusida preparatlarni kamaytirish imkoniyati yuzaga kelishi bir pog'ona pastga tushish imkoniyatini tug'diradi. Aksincha, kasallikni davolashda medikamentoz davolashni nazorat qilish imkoniyati qiyinlashganda, medikamentoz davoni kuchaytirish yuzaga keladigan bo'lsa, u holda bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi. Bronxolitik terapiya BA ning xamma bosqichida qo'llaniladi kuyilagi preparatlarni uz ichiga oladi:

1) metilksantinlar – eufillin (2.4% - 10.0 vena ichiga) eufillin i eufillin v tabletkada, asosan uzaytirilgan.

2) betta-2-adrenorestimulyatorlar va xolinolitiklar.

Kushimcha patogenetik va simptomatik terapiya: - mukolitik preparatlar – ingalyasiya sifatida (atsetilsistein), tabletkada (mukaltin, lazolvan), termopsis, yodli preparatlar va b.; - antibakterial terapiya respirator sistema infeksiyasida; - kalsiy antagonistlari (nifedipin, izoptin)

BA va YUIK birga kelganda;

- antigistamin prepartlari: dimedrol, tavegil, suprastin, klaritin, astemizol va b.; -leykotrien retseptorlari antagonistlari
- zafirulakst;
- fizioterapevtik uslublar
 - ko‘krak qafasi massaji, DF iglorefleksoterapiya;
- immunokorrektorlar
 - ribomunil, timalin, timoptin, immunomodulin.
- ekstrakorporal uslubli terapiya
 - plazmoferez, gemosorbsiya
- psixotrop terapiya
 - ko‘rsatmaga binoan;
- yo‘talga karshi preparatlar
 - tusupreks, libeksin.

4-mavzu: Gipereaktivlikning tezkor tipi chakirgan kasalliklar

1.1. Ta‘lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg‘ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot
<p style="text-align: center;">Amaliy mashg‘ulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <p>1. Gipereaktivlikning tezkor tipi chakirgan kasalliklar</p> <p>2. Anafilaktik shok</p>	<p style="text-align: center;">Amaliy mashg‘ulotning kishqacha annotatsiyasi</p> <p>Talabalarga gipereaktivlikning tezkor tipi chakirgan kasalliklar haqida ma‘lumot berish</p>
<p>O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:</p> <p>Talabalarga Gipereaktivlikning tezkor tipi chakirgan kasalliklar bo‘yicha bilim darajalarini rivojlantirish va urgatish.</p>	<p style="text-align: center;">Maqsadi yoritiladi.</p> <p>Talabalarga gipereaktivlikning tezkor tipi chakirgan kasalliklar haqida ma‘lumot berish</p>
Ta‘lim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Ta‘lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta‘lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar
Ta‘lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og‘zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa	1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg‘ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	Talabalar amaliy mashg‘ulotga tayyor bulishi kerak, davomat

		tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (20 daqiqa)	1. Talabalarni kichiq guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. "Baliq skeleti" usuli Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. CHizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichiq guruhlarda yuqori "suyagida" kichiq muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichiq muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Kichiq guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmlarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar.	Kichiq guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3- klibik mashg'ulot(40 daqiqa)	<i>Provokatsion sinamalar o'tkazish</i>	Talaba mustaqil bajaradi
4-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80 daqiqa ,2 soat		

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

SHu mavzuni o'qitishda talabalarning normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, farmakologiya bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

Mavzu bayoni

Organizmning har xil allergenlarga nisbatan sezuvchanligining o'zgarishi klinik jihatdan allergik reaksiyalar va kasalliklar sifatida namoyon bo'ladi. Allergiya rivojlanishida immun sistema qaysi hujayralarining ko'proq qatnashishiga ko'ra V-limfotsitlarga bog'liq (gumoral) va T-limfotsitlarga bog'liq (hujayraviy) tipdagi allergik reaksiyalar farqlanadi. V-limfotsitlarga bog'liq reaksiyalar guruhiga mexanizmida V-limfotsitlar tomonidan ishlab chiqariladigan mmunoglobulinlarning har xil sinflariga oid antitanalar etakchi rol o'ynaydigan allergiya shakllari kiradi. Immunoglobulinlarning turi, immun jarayonning boshqa ishtirokchilari uning natijalariga qarab allergiyaning bir necha turi farqlanadi. Bular ichida IgE, IgI, IgM va boshqa gumoral omillar ishtirokida amalga oshuvchi V-limfotsitga bog'liq allergik reaksiyalar yaxshi o'rganilgan. V-limfotsitga bog'liq, immunoglobulinli gipersezuvchanlik reaksiyalarini sensibillashgan organizmning ushbu antitanalarni tutgan zardobi yordamida boshqa organizmga» ko'chirib o'tkazish» mumkin. Allergiyaning bunday hosil qilish uni «passiv ko'chirish» deb nomlanadi.

T-limfotsitga bog'liq guruxga patogenezida T-limfotsitlar va ular ishlab chiqaradigan fiziologik faol moddalar (limfokinlar etakchi rol o'ynaydigan allergik reaksiyalar kiradi. Limfokinlar allergik reaksiyalar mexanizmida vositachilar-mediatorlar rolini bajaradi. Bunday reaksiyalarning sababchilari quyidagilar bo'lishi mumkin: yot to'qimalar oqsili va hujayralari, chunonchi mahalliy qo'llaniladigan dorilar (masalan, antibiotiklar), mikroorganizmlarning antigenlari. Bunday turdagi allergik holat kasaldan sog'lom odamga faqat sensibillangan limfotsitlar yoki bunday hujayralar «ekstrakti» orqali (masalan, qon quyilganda yoki zardob preparatlari yuborilganda) passiv o'tkazilishi mumkin.

Sensibillangan organizmga antigenning qayta ta'siridan so'ng (uni ko'pincha «hal etuvchi» deb nomlaydilar) klinik belgilarning rivojlanishiga ko'ra allergik reaksiyalar shartli ravishda uch turga bo'linadi:

- allergik tezkor reaksiyalar (ATR)
- allergik kechiqkan reaksiyalar (AKR)
- allergik sekinlashgan reaksiyalar (ASR)

ATR tipi klinik jihatdan organizm allergen bilan kontakt qilgach o'sha zahotiy oq yoki bir necha daqiqadan so'ng namoyon bo'ladi (masalan, allergik rinit, kon'yunktivit, anafilaktik shok).

AKR tipi «hal etuvchi» antigen bilan kontaktdan so'ng bir necha soat (odatda 5-6-soatdan kechiqmay) o'tgach aniqlanadi. (Masalan, allergik genezli gemolitik anemiya, zardob kasalligining ayrim shakllari).

ASR tipi sensibillangan organizmga allergenni hal etuvchi ta'siridan bir necha soatlar yoki kunlar o'tgach aniqlanadi (masalan, tuberkulin reaksiyasi, kontaktli dermatit).

Barcha gipersezuvchanlik reaksiyalari rivojlanish mexanizmlarining o'ziga xosligiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Bu masala bo'yicha juda ko'p munozaralar, baxslar, hatto so'nggi vaqtgacha ayrim chalkashliklar va taklif etilgan «nusxalar» bor. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bu masalani ishlab chiqishga R. Djil va R. Kumbs (1963 y.) katta hissa qo'shganlar va ular allergik reaksiyalar tasnifi mezonlarini ishlab chiqqanlar. SHunga ko'ra bu ko'pincha ularning nomi bilan ataladi. Ular avvalo allergiyaning 4 turini farqlaganlar, keyinchalik 5-turi qo'shildi. 1,2,3 va 4 tur reaksiyalar antigenning sensibillashgan organizm gumoral antitanalari bilan reaksiyaga kirishishi natijasida rivojlanadi (bu turlarga tezkor, kechiqkan, sekinlashgan allergik reaksiyalar kiradi). Gipersezuvchanlikning 4-tur reaksiyasi asosan sensibillashgan hujayralar - T-limfotsitlar, shuningdek makrofaglar ishtirokida amalga oshadi. (Bu turga ASR tipi kiradi)

1-tur allergik reaksiyalar. Bu turni anafilaktik, atopik yoki reagenli deb ataydilar. Bu tur asosan IgE (reaginlar) ishtirokida amalga oshadi. Undan tashqari, 1-tur allergik reaksiya rivojlanishida IgS 1-4 (odamda 1&O 4 bo'lsa kerak) subpopulyasiyalari ishtirok etishi mumkin, ammo ularning «patogenetik hissasi» IgE nikiga nisbatan uncha katta ahamiyatli emas.

Allergenning (ko'pincha bu o'simliklar, o'tlarning komponentlari SKS ning hujayralari bilan) birinchi kontakti antitanalar ishlab chiqarish bilan kuzatiladi. Ular esa sitoplazmasi eng ko'p IgE retseptorlariga ega bo'lgan to'qimalarning to'q («semiz») hujayralari va bazofillarining yuzasiga o'rnashadi. Bunday retseptorlarning ma'lum bir mikdori trombositlar, makrofaglar, silliq mushaklar to'qimasi hujayralarining yuzasi - sathida ham bor deb hisoblaydilar.

O'sha allergenning organizmga qayta ta'siri bazofillar, semiz va boshqa to'qimalarning hujayra membranalarida joylashib olgan antitanalar bilan o'zaro reaksiyaga kirishishi kuzatiladi.

Bu hujayralarni faollashtiradi va ular ilgari sintezlagan hamda yangi xosil bo'ladigan yuqori faol birikmalar - allergiya mediatorlari (gistamin, serotonin, kinin, leykoprotein, geparin, prostaglandin, proteazalar, xemotoksin omillar va q.k.) sekretsiyasining kuchayishini shartlaydi. Hujayralarning bevosita shikastlanishi va ular ajratgan mediatorlar ta'sirining oqibati qo'shni hamda qon tomir devori hujayralarining membranalari o'tkazuvchanligining ortishi, to'qimalarning shishishi, tomir devori, to'qima hamda organlarining silliq mushak hujayralari qisqarishini, bezlarning gipersekretsiyasini, nerv retseptorlari qo'zg'alishini shartlaydi. Bu va boshqa natijalarning u yoki bu ko'rinishda birga kelishi allergiya ayrim shakllarining, klinik ko'rinishlarini belgilaydi. Bunday mexanizm ko'pincha bronxial astmaning allergik shakllari, kon'yunktivit, toshma, dermatit, anafilaktik shok va atopik reaksiyalar tarzidagi rivojlanish asosida yotadi.

Atopiyalarning (bir tur allergiyani shakllaridan biri) sabablari va rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinganda, qonuniy ravishda allergiyaga nisbatan nasliy moyillik belgilari aniqlangan. Bu birinchi tur allergiyaning boshqa ko'rinishi-anafilaktik reaksiyalar uchun bunchalik darajada xos emas.

TT-tur allergik reaksiyalar. Bu tur sitotoksik yoki sitolitik deb nom olgan. U asosan S 1,2,3 (qisman IgM) sifatidagi antitanalar ishtirokida amalga oshadi.

Sitotoksik allergiya rivojlanishini chaqiruvchi antigenlar odatda 3 toifaga bo'linadi:

1. Hujayra membranasi komponentlari (ko'pincha qon hujayralari, spermatozoidlar va ayrim organlar - buyraklar, jigar, yurak, miya, ko'z, qalqonsimon bez, taloq hujayralari dir);
2. Organizm hujayralari yuzasiga ikkilamchi o'rnashgan hujayraga bog'liq bo'lmagan antigenlar (ba'zi bir dori vositalari, mikroorganizmlarning bo'lakchalari, metabolitlar);
3. To'qimalarning nohujayraviy tuzilmalari (masalan, buyrak ko'ptokchalari kollagen mielin bazal membranasi antigenlari).

Hujayraga taalluqli bo'lmagan tuzilmalarning allergik reaksiyalarga jalb etilishi ko'pincha yaqinda joylashgan to'qima hujayralarining lizisi bilan kuzatiladi.

Antigen bilan kontaktda hosil bo'ladigan antitanalar sitolemmaga o'rnashadi, ularni shikastlaydi va emirilishini chaqiradi.

Ana shunday mexanizm bo'yicha gemolitik anemiyaning, trombositopeniyalar, leykopeniya hamda azospermiyaning (spermatozoidlarning emirilishi va ularning spermada bo'lmasligi) allergik shakllari rivojlanadi.

Organizmnining shikastlanmagan hujayralarida yot begona antigen va gaptenlar (ko'pincha dori vositalari, masalan, oltin preparatlari, antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari, viruslar, bakteriyalar, parazitlarning komponentlari yoki metabolitlari) o'rnashib qolgan hollarda ularga nisbatan hujayrada «o'tirib» qolgan antigen bilan kompleks hosil qiluvchi antitanalar ishlab chiqariladi. Bunda faqat begona antigen «neytrallanibgina» qolmay, balki organ va to'qimaning normal hujayrasi ham lizisga uchraydi. Ana shunday mexanizm bo'yicha rivojlanuvchi ikkinchi tur allergiyaga miokardit, endokardit, ensefalit, tireoidit va gepatitning allergik shakllarini kiritish mumkin. Hujayrasiz tuzilmalarda, masalan buyrak ko'ptokchalari, ularning kanalchalari bazal membranalarida, nerv o'zanlarining hamda tomirlarining «pardalarida» antigenlar paydo bo'lganda hosil bo'luvchi antitanalar ushbu antigenlar bilan o'zaro reaksiyaga kirishishi ham membrananing o'zini hamda unda joylashgan hujayralarni shikastlaydi.

Anafilaktik shok

Klinikasi

Anafilaktik shokning klinik ko'rinishi turli odamlar uchun farq qiladi va keng tarqalishi mumkin. Anafilaktik shok engil shaklda yuzaga keladi va engil umumiy simptomlar sifatida namoyon bo'ladi (kichkina, bronxospazm, nafas qisilishi).

Ko'pincha shokning ko'rinishi ko'proq xavfli ko'rinadi va yordam vaqtida ko'rsatilmagan bo'lsa, bemorning o'limiga olib kelishi mumkin.

Anafilaktik shokning dastlabki daqiqalarida qon bosimi keskin ko'tariladi, keyin pasayadi va nihoyat nolga tushadi. Ehtimol, keyinchalik kichkina bo'g'imlar bilan qattiq og'rishi, yuz va yuqori oyoqlarning shishishi. Qorin bo'shlig'ida, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishida paroxismal og'riqlar mavjud. Bemorning ongi chalkashadi, konvulsionlar mavjud, tana haroratining keskin ortishi, ichak tutilishining istaksizligi va siyish jarayoni sodir bo'lishi mumkin.

Shoshilinch tibbiy yordam bo'lmasa, o'lim nafas olish va yurakning buzilishidan kelib chiqadi.

Asosiy belgilari

Anafilaktik shok quyidagi asosiy belgilari bilan xarakterlanadi: (ba'zan bir necha soniyadan keyin) alerjene sabr, rangi o'chgan, tashvishli bo'ladi ta'sir zonklama bosh og'rig'i, bosh aylanishi, quloq shang'illashi shikoyat o'tmay. Uning tanasi sovuq ter bilan qoplangan, u boshdan kechiradi qo'rquv o'lim.

Anafilaktik shok birinchi shoshilinch yordam

Dorivor moddalarni kiritish to'xtatiladi.

Adrenalin 0.15-0.75 ml 0.1% eritma bilan 2-3 ml izotonik natriy xlorid eritmasi bilan qarshi maydonini tugating.

Landshaft holat, oyoq isitgichlari, bosh tomonga, pastki jag'i itarish uchun, tilni tuzatish uchun, iloji bo'lsa, kislorod yetkazib berishni boshlang.

Darhol tanitish:

Adrenalin 0,1% - 5 ml tomir ichiga purkagich;

Prednisolon 1 kg vazniga 0,5-1 ml, 40-60 ml gidrokortizon yoki 2,5 ml deksometazon (kortikosteroidlar antigen-antikor reaksiyasini bloklaydi);

Cordiamine 2,5% - 2 ml;

Kofein 10% - 2,0 (in'ektsiya Epinefrin va kofein, qon bosimini oshirish uchun har 10 daqiqada takrorlab.);

tachiqardiya bilan 0,05% eritma Strofantina yoki 0,06% eritma Korglucon;

antihistaminiklar: Suprastin 2% - 20 ml, Dimedrol 1% dan 5,0 ml gacha, Pipolphen 2.5% 2.0 ml. 20 daqiqadan so'ng, inyeksiyani takrorlang.

Bronxospazm va ishemik og'riq uchun - 2,0% - 10,0 ml Eulillinum, 10-20 ml 40% glyukoza yoki mushak ichiga 2,4% - 3 ml;

qon bosimi sezilarli darajada pasayadi, sekin - Mesaton 1% - 1,0 ml;

iM 0,5% - o'pka shishi va CLO belgilari bilan 10 ml ml sho'r 2,4-10,0 ml glyukoza 40% yoki 10 bilan 0,5 ml strofantina, vena ichiga Lasix 1% amal qilishi mumkin - 4,8 ampulalar;

yurak-tomirlar etishmovchiligi mavjud bo'lmagan holda, shish bilan birga tez ta'sir qiluvchi diuretiklar qo'llaniladi: 1 kg vazniga 0,03-0,05 ml tomir ichiga 2 tomchi Furasemid eritmasi;

konvulsion va kuchli ta'sirlanish bilan: Droperidol 2% - 2,0 ml yoki 0,5 ml dan 0,5 ml Seduxen;

nafas olish anormal bo'lsa - tomir ichiga Lobelin 1% - 0,5-1 ml;

kardiyak tutish intrakordagi bo'lsa, Adrenalin 0,1% - 1,0 ml yoki kaltsiy xlorid 10% dan 1,0 ml gacha buyuriladi. Yurakning yopiq massajini va sun'iy nafasni o'tkazing.

Davolash bronxial astma bolalar majburiy bo'lishi kerak. Bemorning birinchi mashg'ulotida bronxial patologiya tiklanishi kerak.

5-mavzu: Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma).

1.1 Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashgulot rejasi Reja: 1 Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma)	Amaliy mashgulotning ksqacha annotatsiyasi Talabalarga stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma xakida tulik tushuncha berish.
O'quv mashg'ulotning maqsadi: 1.Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma)	Maqsadi yoritiladi. 1. Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma)ni urgatish
Ta'lim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa	1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichiq guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. "Akademik polemika" usuli	Kichiq guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar

		Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi
Jami: 80 daqiqa , 2 soat		

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

SHu mavzuni o'qitishda talabalarning normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, farmakologiya bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

Mavzu bayoni

5-mavzu: Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (hushni yo'qotish, kollaps, koma).

O'tkir tomir etishmovchiligi – obmorok yoki kollaps ko'rinishida paydo bo'ladi. Obmorok (hushdan ketish, hushsizlik) – qisqa vaqt davom etuvchi hushini yo'qotish bo'lib, vaqtincha bosh miyaning qon bilan ta'minlanmay qolishidan kelib chiqadi. Kollaps – o'tkir tomir etishmovchiligi bo'lib, tomirlar tonusining birdan pasayib ketishi va aylanayotgan qon hajmining nisbiy kamayishiga aytiladi.

YUIK ning quyidagi formalari mavjud:

- stenokardiya; miokard infarkti;
- o'tkir koronar etishmovchiligi (buning tipik belgilaridan biri koronar aterosklerozi bo'la turib, to'satdan o'lib qolishdir);
- og'riqsiz formasi, bu forma qon aylanishining etishmovchiligi yoki yurak ritmining izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi.

Turli xil shikastlanish, jarohatlanish, baxtsiz hodisa va og'ir kasalliklarda o'lim darhol sodir bo'lmaydi. Haqiqiy yoki biologik o'lim davriga o'tish, malum bir davr bilan xarakterlanadi. Bunda yurak faoliyati va nafas olish yo'qoladi, lekin shu vaqt ichida bosh miya po'stloqlari to'qimlarida qaytmas jarohatlanishlar yuz bermagunga qadar, shu vaqt ichida organizmni tiriltirib olsa bo'ladi. Ushbu davrni klinik o'lim davri deb atashadi. Klinik o'lim davrida organizm tashqi ko'rinishdan hayot belgilari yo'qligi, yurak urmasligi, nafas olish, muskul tonusi yo'qligi, ko'z qorachig'i yorug'likni sezmasligi, teri qoplaminig oqarib yoki ko'karib ketishi kuzatiladi. Jarohatlangan hayotini saqlab qolish uchun 4-6 daqiqadan kechiqmagan vaqtda jonlantirishni boshlashga ulgurish kerak. Har bir talaba quyidagi asosiy reanimatsion (organizmni tiriltirishga qaratilgan) chora-tadbirlarni o'tkazishni bilishi shartdir; o'pka sun'iy ventilyasiyasi (sun'iy nafas berish) va yurak yopiq massajini o'tkazish. Bular nafas olish va qon aylanishini tiklashga yordam beradi. Stomatologiya anesteziyasidan keyingi holatlarda shifokorning harakatlari.

SHok o'tkir yurak tomir etishmovchiligining ko'rinishi bo'lib, kuchli ekzogen va endogen ta'sirlar natijasida organizmning himoya va javob reaksiyasi hisoblanadi. SHok tasnifi bo'yicha bo'linadi:

- gipovolimik shok (qon hajmini kamayishi natijasida);

- ogʻriqli shok; - kardiogen shok (yurak-tomir kasalliklarda asoslangan);
- septik shok (bakterimiya va yuqumli kasalliklarda asoslangan); - anafilaktik shok (alergenlar taʼsirida);
- diabetik shok (diabetik giperglikemiya va gipoglekemiya); - neyrogen shok (asab sistemasini shikastlanishi);
- elektrik shok;
- toksik shok sindromi.

Anafilaktik shok - bu tezkor tipdagi anafilaktik reaksiyaning eng ogʻir va eng mudhish asoratlaridan biri hisoblanadi. U organizmga har xil yoʻllar bilan oqsil va nooqsil tabiatli antigenlarning tushishi orqali roʻy beradi. Anafilaktik reaksiya organizmga dori preparatlari, jumladan, antibiotiklar, diagnostika preparatlari kiritilganda, hasharotlar chaqishi oqibatida, kam hollarda esa oziq-ovqat mahsulotlaridan soʻng ham rivojlanishi mumkin.

Tibbiy punktga shoshilinch yordam tamoyillari.

1. Organizmga allergen tushishini toʻxtatish.
2. Bemorni tekis joyga yotqizish, toza havo kelishini taʼminlash, kislorod berish, tilning orqaga ketishini, aspiratsiyaning oldini olish.
3. YUqori nafas yoʻllari oʻtkazuvchanligini taʼminlash.
4. Adrenalin 0,1%-0,5 yoki 1,0 ml yuborish. Teri orasiga, vena ichiga va ingalyasiya yoʻli bilan yuborish mumkin. Adrenalin qachonki shok diagnozi tasdiqlangandagina yuboriladi.
5. Glyukokortikosteroidlarni qoʻllash - tomir oʻtkazuvchanligini pasaytirish, membrana stabillovchi, antigistamin, simpatomimetik taʼsirlari tufayli qoʻllash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Koma holatlari.

Koma holatlarida birinchi tibbiy yordam koʻrsatish(2 soat) Koma (yunonchadan koma-qattiq uyqu) - bu oʻtkir serebral etishmovchilik boʻlib, hushning, hayotiy muhim aʼzolar faoliyati boshqarilishining buzilishi,nevrologik va vegetativ buzilishlar, tashqi atrof muhit taʼsirini sezmaslik bilan kechadigan patologik holat. Hushning miqdoriy buzilishlariga tasnifi boʻyicha quyidagi oʻzgarishlar kiradi:

Koma I (yuzaki)-hushning yoʻqligi, bemorni umuman uygʻotib boʻlmaydi. Ogʻriqli taʼsirotlarga xaotik, koordinatsiyalashmagan, oyoq qoʻllarni bukish yoki yozish bilan javob qaytaruvchi distonik harakatlar. Koʻz reflekslari: siliar, korneal, qorachiq reflekslarining saqlanganligi, oral avtomatizm va patologik tavon reflekslarining paydo boʻlishi, chanoq aʼzolari nazoratining yoʻqligi, nafas va yurak - qon tomir tizimi tomonidan engil buzilishlar boʻlishi mumkin.

Koma II (chuqur)-hushning yoʻqligi, himoya reaksiyalarining boʻlmasligi, mushak tonuslarining buzilishi (gormetoniya bilan toʻliq diffuz gipotoniya), pay reflekslarining pasayishi, koʻz reflekslari sust yoki umuman chaqirilmaydi, chuqur nafas olish buzilishlari, baʼzan spontan nafas saqlangan, yurak-qon-tomir tizimi dekompensatsiyasi.

Koma III (terminal) - agonal holat, toʻliq atoniya, arefleksiya, ikki tomonlama midriaz, vital funksiyalar sunʼiy boshqariladi. Koma tabiati aniqlanganda patogenetik davolash qilinadi. Koma xolatining barcha bosqichlarida reanimatsion chora-tadbirlar qoʻllaniladi. Zudlik bilan nafas yoʻllari oʻtkazuvchanligi, nafas va qon aylanishi tekshiriladi. Bir vaqtning oʻzida intubatsiya va suʼniy ventilatsiya zaruriyati haqida qaror qabul qilinadi.

Oʻtkir tomir etishmovchiligi – obmorok yoki kollaps koʻrinishida paydo boʻladi. Obmorok (hushdan ketish, hushsizlik) – qisqa vaqt davom etuvchi hushini yoʻqotish boʻlib, vaqtincha bosh miyaning qon bilan taʼminlanmay qolishidan kelib chiqadi. Obmorokda toʻsatdan bosh aylanish,

darmonsizlik, o'zini yomon his qilishi, ko'z oldi qorong'lashuvi, quloqlarida shang'illash eshutilishi, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Bemor tanasining rangi obmorok boshlanishidan oldin oqaradi so'ng ko'zi mayus holda bir nuqtaga tikiladi, to'satdan o'zini bilmagan holda yiqiladi. Obmorok bir necha soniyadan 2-3 daqiqagacha davom etadi. Uzoq davom etuvchi obmorok hayot uchun xavfli. Obmorok boshlanganda albatta shifokorni chaqirish zarur, shifokor kelguncha kasalning boshi pastroq oyog'i baland qilib yotqizish kerak. YAxshi nafas olishi uchun belidagi kamari echilishi, toza havo kelishini taminlash uchun bo'yin tugmasi echilishi, xona ichida bo'lsa deraza oynalari ochilishi zarur. Oyoq tagiga iliq rezinali (grelka) qo'yiladi. Bemorni obmorokdan olib chiqish uchun yuziga sovuq suv sepish yoki navshadir spirti hidlatish zarur.

Kollaps – o'tkir tomir etishmovchiligi bo'lib, tomirlar tonusining birdan pasayib ketishi va aylanayotgan qon hajmining nisbiy kamayishiga aytiladi. Kollapsda bemorning umumiy ahvoli yomonlashib kamdarmon, qaltirash, ko'z oldi qorong'lashishi, quloqlarida shang'illash eshutiladi, boshi aylanadi, tanasi sovuq ter bilan qoplanadi, lekin oyoq-qo'llari issiq bo'ladi, sababi qon periferiyaga taqsimlanadi. Teri qoplamasining oqarishi sekinlik bilan ko'karadi, puls tez uradi. Ba'zan noto'g'ri urib, nafas yuzaki va tez, ko'z qorachig'i kengaygan, tana harorati +35°S ga tushib ketadi. Kollaps holati rivojlanganda, bemorni jismoniy va ruhiy tinchlantirish uchun sharoit yaratilishi lozim, u isitiladi, oyog'ini ko'targan holatda yotqizib qo'yiladi hamda qon tomirlarni harakatga keltirib markazga ta'sir qiluvchi dorilar (kamfora, kofein, kordiamin va boshqalar) teri ostiga yuboriladi. Bemorni gospitalga yotqizish kerak. Bemorni zambilga yotqizgan holda, shifokor yoki feldsher nazorati ostida, sanitariya mashinasida gospitalga olib boriladi. Olib borish vaqtida bemorning hol-ahvoliga qarab davolash chora-tadbirlari o'tkaziladi.

O'TKIR NAFAS ETISHMOVCHILIGI

Sabablari:

- a) Nafas yullari yalliglanishi (bronxit, laringit, traxeit, faringit, rinit,atelektaz).
- b) Nafas yullariga yot jismlar, usmalar tikilishi.
- v) Nafas yullarining kon, suv, kusus moddalari bilan berkilib kolishi
- g) Pnevmoniya, plevrit, pnevmotoraks, diafragma kasalliklari.
- d) Markaziy nerv sistemasi jaroxdtlari, kasalliklari.
- e) Nafas sistemasi jaroxatlari, kasalliklari.
- j) YUrak-kon tsmir sistemasi kasalliklari.
- z) Moddalar almashinuvining buzilishi.

Belgilari:

I daraja - utkir nafas etishmovchiligi: lab ozgina kukargan teri okargan, beyuvalik, nafas tezlashgan, yuzaki 25-29 tagacha, pul tezlashgan 80-91 tapcha, kon bosimi 160/120 mm.sim.ust.gacha kutarilgag

II daraja - utkgr nafas etishmovchiligi: x,ansirash, kukarish aniq engil terlash, bezoztalik, nafas tezlashgan, yuzaki 20-23 martagach; puls 84-96 martagacha, kon bosimi 160/120 mm.sim.ust.dan baland.

III daraja - o'tkir nafas etishmovchiligi: kuchli hansiran akrotsionoz, sovuq, terlash, qul-oyoqlar sovuq, nafasda yordamchi muskullar faol qatnashadi. Bezovtalanish, sungra karaxtlik. Nafas yuzaki, tezlashgan 25-27 martacha, puls 90-100 martagacha, kon bosim 160/120 mm.sim.usg.gacha.

IV daraja - ukir nafas etishmovchiligi: gipoksik koma xolat. Bemor balikdek havo yutadi, ogzi ochiq, talvasa bulishi mumkin, majburiy holat. Kuchli akrotsionoz kuzga tashlanadi. Xushi

noaniq: nafas olishda kukrak kafasi kutarilib tushadi, puls 85-95 tagacha. Kon bosimi 170/125 mm.sim.ust.gacha kutarilgan

6-mavzu: Stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (anafilaktik shok).

1.1 Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 10-12 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Amaliy mashgulot rejasi Reja: 1.Anafilaktik shok. Klinik variantlari, kechishi tashxislash, davolash usullari 2.Zardob kasalligi etiopatogenzi, klinikasi, tashxislash va davo choralari.	Amaliy mashgulotning ksqacha annotatsiyasi Talabalarga anafilaktik shokning klinik kurinishi, klinik variantlari, qon aylanish doirasida buladigan uzgarishlar, xamda anfilaktik shokda odam a'zolarida sodir buladigan xaddan tashkari murakkab jarayonlar rivojlanishi, uning boskichlari xakida tulik tushuncha berish. Zardob kasalligi klinik kurinishi, tomirlarda va biriktiruvchi tukimalardagi uzgarishlar xakida tulik tushuncha berish
O'quv mashg'ulotning maqsadi: 1. Zardob kasalligi mavzusi bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish 2. Anafilaktik shok mavzusi bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish	Maqsadi yoritiladi. 1.Anafilaktik shok. Klinik variantlari, kechishi tashxislash, davolash usullarini urgatish 2.Zardob kasalligi etiopatogenzi, klinikasi, tashxislash va davo choralari chukur urgatish
Ta'lim berish usullari	Multimedia, interfaol usullar
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa	1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi	Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	Talabalar tinglaydilar

